

**O'zbekiston Oliy va O'rta Mahsus ta'lim vazirligi**

**Toshkent Davlat Sharqshunoslik Instituti**

**Arab filologiyasi kafedrası**

**Arab tili fanidan 22.05.00. sharq filologiyasi bakalavriaturasining I-IV kurslari uchun ma'ruza matnlari.**

**№ 2 3 sentyabr 2008 yil sonli  
qarori bilan  
tasdiqlangan.**

Umumiy soat hajmi: 1168

Ma'ruza: 412

Amaliy mashg'ulot: 756

Mustaqil ta'lim:

Shundan:

1. kurs – 420 soat, 210 soat ma'ruza
2. kurs – 370 soat, 100 soat ma'ruza
3. kurs – 222 soat, 52 soat ma'ruza
4. kurs – 156 soat, 50 soat ma'ruza

Tuzuvchilar: Kafedra kollektivi.

Taqrizchi : f.f.d.prof. E.T.Talabov

## SO'Z BOSHI

Ushbu arab tilidan ma'ruzalar matni arab tili fanidan tuzilgan namunaviy dastur asosida yozildi. Ma'ruzalar matni jahon andozalari talablariga javob beradigan bakalavr darajasidagi arabshunos-filologlarni tayyorlashda foydalanish uchun mo'ljallangan. Ma'ruzalar matni bir nechta boblardan iborat iborat bo'lib, kirish, fonetika, yozuv (grafika), grammatika, morfologiya, sintaksis qismlarini o'z ichiga oladi. Matni tayyorlashda Arab filologiyasi kafedrasining ustozlari f.f.n., dotsentlar: T.Sh.Qodirov, S.A.Rustamiy, M.A.Nosirova, k.o'qituvchilar: N.X.Usmonova, N.M.Orifho'jaev, D.Q.Mamatoxunova, G.S.Mutalova, K.K.Mirzaev, o'qituvchilardan B.Begmatova, Sh.E.Zaynutdinovalar qatnashdilar. Ma'ruzaning kirish qismini f.f.d., professor R.U. Hodjaeva yozdi.

Ma'ruzalar asosida amaliy mashqulotlar o'tkaziladi. Ular o'tilgan mavzu bo'yicha savol-javob, mavzularga oid matnlarni o'qish, yozish, tarjima qilish, so'zlab berish, va grammatik tahlil qilish shaklida olib boriladi. Tahlil jarayonida arab tili grammatik masalalarini o'zbek yoki boshqa chet tili grammatikasi bilan solishtirish va qiyoslash tavsiya etiladi. Muntazam ravishda yozma ishlar o'tkazilishi lozim.

## 1.1.-1.4. KIRISH

### 1-BOB. ARAB TILI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT.

#### *REJA*

- 1.1. Arab tilining geneologik tasnifidagi o'ri.
- 1.2. Arab tilining tipologik tasnifidagi o'ri.
- 1.3. Arab tilining ilmiy-tarixiy ahamiyati.
- 1.4. O'ziri zamon arab adabiy tili va lahjalari.

Arab tili Somiy-Homiy tillar oilasining somiy tarmoqiga tegishlidir. Somiy tillar tarmoqi juda katta tarmoq hisoblanadi va olimlar tomonidan yahshi o'rganilgan. Jadimgi somiy tilida ashshurlar, ibriylar, finikiylar, oromeylar, va arablar gaplashganlar.

Somiy tillar tarmoqi 4 guruhga bo'linar ekan, arab tili Janubiy Markaziy yoki Arabiston tili guruhiga kiradi. Jadimgi darajasini - qadimgi arab tili, o'rta va yangi darajasini - klassik va zamonaviy arab tili va ularning shevalari tashkil etadi.

Barcha somiy tillar tarmoqiga o'hshash umumiylik hosdir. Bu umumiylik olimlar tomonidan qiyosiy-tarixiy metod asosida aniqlanib quyidagi omillarda yaqqol ko'zga tashlanadi:

#### 1. Fonetik umumiylik:

- a) Barcha somiy tillarda unlilarning cho'ziq va qisqa ko'rinishlari mavjud.
- b) Undoshlarning uchlik guruhi mavjud.
- v) So'z hech qachon unli tovushdan boshlanmaydi.
- g) Shuningdek ko'sh undoshli boshlanish ham so'zlarda uchramaydi.

2. Leksik umumiylik. Olimlar barcha somiy tillar uchun yuzlab umumiy so'z yoki o'zakni aniqladilar:

#### 3. Morfologik umumiylik:

a) Barcha somiy tillarda umumiy hususiyat -o'zakning undosh harflardan iborat bo'lishidir. Odatda o'zak uch undoshdan va kamroq besh undoshdan iborat bo'ladi.

b) Unlilar ba'zan qo'shimcha undoshlar bilan o'zak mazmuniini ta'kidlash yoki grammatik kategoriyani kursatish uchun hizmat qiladi.

- v) Arab tili barcha somiy tillar kabi ichki flektsiya mavjud.
- g) Ichki qurilish Uzgarmagan so'zlarda suffiksatsiya Ham mavjud.
- d) Arab tilida barcha somiy tillar kabi ikki jins mavjud.
- ye) Arab tilida barcha somiy tillar kabi butunlik va yaqqollik tushunchasi

mavjud va hokazo.

Arab tili tarixiy jihatdan Somiy tillar tarmoqida eng yosh til hisoblanadi. Janubiy arablar va Shimoliy arab qabilalarning tillari qoʻshilib chatishgan holda bizga islomgacha boʻlgan (johiliya davri) arab adabiyoti orqali yetib keladi. Arabiston yarim orolining Shimolida yashovchi Adnon qabilasi bilan Janubda yashovchi Kahtan qabilasi oʻrtasida savdo sotiq ishlari natijasida tillarini boyish jarayoni boʻlib oʻtdi. Shimoliy Adnon qabilasining mudariy tili nomini olgan til juda rivojlandi va mintaqada hukmronlik qila boshladi. Aynan mana shu mudoriy tili asosida adabiy arab tili paydo boʻldi. Shunday qilib arab adabiy tilining paydo boʻlishini asosiy omili - himyariylar va mudoriylar tilining qoʻshilib ketishi va rivojlanishi. Bu tilning asosiy namunasi islomgacha (joliyya davrii) boʻlgan adabiyotda va qurʼoni karimda oʻz ifodasini topdi.

Arab tili tarixida uch katta davr ajralib talqin qilinadi:

1. Jadimgi arab tili. (er.av. IIasrdan to IVer. Asriigacha).
2. Klassik arab tili. (V-XIX asrgacha).
3. Zamonaviy arab tili. (XIX asrdan to shu kungacha).
4. Jadimgi arab tilidagi yozma yodgorliklar lahen samud safovit yozuvlarida bitilgan boʻlib Arabiiston yarim oroli mintaqasida va Suriyaniing janubiiy qismida topilgan. Ular eramizni I va IV asrlarigacha taalluqlidir.

Klassik arab tilining ilk davri oqzaki holdagi johiliya sheʼriyatiga borib taqaladi. Bu sheʼriyat eramizning VIII va IX asrlarida arab filologlari tomonidan yozildi. Qurʼoni Karim klassik arab tilining eng yorqin namunasi sanaladi. Zamonaviy arab tili klassik arab tilining keyingi rivojlanish mahsuli hsioblanadi.

Soʻnggi adabiy arab tili va adabiyotining rivojlanishida Qurʼoni Karimning tutgan oʻrni juda katta.

VIII-IX asrlarida arab grammatikasiining aksariyat masalalari ishlab chiqildi. Arab halifaligi kengayishi va islom dinining tarqalishi bilan fath qilingan davlatlarda arab tili din, ilm, devonhonalarda davlat ishlaridagi hujjatlarni yuritish rasmiy til sifatida ishlatila boshladi. Natijada klassik arab tili YAqin va Oʻrta Sharq, Shimoliy Afrika, Pireney yarim oroli, Markaziy Osiyo mintaqalarida keng tarqaldi va butun musulmon sharqida davlatlararo halqaro til mavqeiga ega boʻldi. Bu mintaqalarda turli sohalarida bitilgan minglab ilmiy, adabiy tarixiy asarlar ana shu klassik adabiy arab tilida yozildi. Bizning ajdodlarimizdan Muso al-Horazmiy, imom al-Buhoriy, imom at-Termiziy, Ahmad al-Farqoniy, ar-Roziy, al-Farobiy, al-Beruniy, ibn Sino, az - Zamahshariy, Mahmud Joshqariy kabi buyuk allomalar turli ilm sohalariga oid yozilgan qimmatbaho asarlarini arab tilida yaratishdi. Bu asarlarning koʻplari qoʻlyozma zahiralarida saqlanmoqda. Masalan: OʻzR.Fanlar akademiyasining sharqshunoslik institutida saqlanayotgan qoʻlyozmalarning 30% i arab tilida bitilgan koʻplari oʻzbek va rus tillariga tarjima qilinib, sharqshunos olimlarimiz tomonidan tadqiq etilgan. Ammo hanuzgacha yuzlab arabiy zabon qoʻlyozmalar oʻz tadqiqotchilarini kutmoqda Shu bois Respublikamizda arab tilini oʻrganish ahamiyati yanada oshadi, chunki barcha arab tilida bitilgan maʼnaviy

boyligimizni tarjima qilib, haqimizga yetkazish arabshunoslarning eng katta burchi. Bu qo'lyozmalar bizning tarihimiz, mafkuramiz, falsafamiz, ta'limotlarimiz umuman ma'naviy merosimiz qisman mujassamlashtirilgan ekan, halqimiz undan bahramanb bo'lishi lozim.

XIX asrga kelib arab tili tarixida yangi bosqich boshlandi. Klasik adabiy arab til asosida uning yangi shakli-zamonaviy arab tili vujudga keldi. Milliy yuksalish harakati - an-nahda arab tilini o'zgarayotgan yangi hayot sharoitiga moslashuvini talab qildi. Zamonaviy arab tili XIX asrning ikkinchi yarmida milliy-ozodlik harakati jarayonida yanada rivojlanib ketdi. Shu davrda yashab ijod qilgan yirik yozuvchilar, shoirlar, publitsistlar zamonaviy arab tilini yaratishda o'zlarining katta hissalarini qo'shdilar. Bular: Misrlik Ahmad Shavqiy Ibrohim, Abdulloh Nodim, Mustafo Komil, Jirji Zaydon, Livanlik Nasif al-YAzijiy, Butrus al-Bustaniy, Ahmad Foris ash-Shidyaq, Amin ar-Rayhoni, Suriyalik adib Ishoq, Abdurahmon al-Kavakibiy va boshqalar.

Zamonaviy arab tili hozirda 22 ta arab tili davlatlarida «Davlat tili» maqomidadir. U ilm, fan, matbuot, badiiy adabiyotda, ijtimoiy-siyosiy, ommaviy habarlarda, ta'lim-tarbiya muassasalarida, radio, televidenie, barcha davlat hujjatlari olib borishda qo'llanadi. Zamonaviy adabiy arab tili har hil arab davlatlarida yashovchi arab halqlari uchun umumiy bo'lib, ularning o'zaro munosabatlarida va yaqinlashish jarayonida muhim vositadir.

Mustaqil O'zbekiston hozirgi kunda arab davlatlari bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalar o'rnatmoqda. Arab tlini yahshi o'zlashtirib, bemaolol gaplasha oladigan arab tilida puhta tarjima qilib, ilmiy tadqiqotlar olib boradigan mutahassislarga talab katta. Shu bois Respublikamizda arab tilini o'rganishga ahamiyat berilib kelmoqda ekan, butun dunyoda arab tili jahon tili sifatida mavqei oshganligini, ko'p davlatlarda uni o'rganilayotganligini hisobga olib, nazarda tutishimiz kerak. Jahondagi 15 yirik tilning bittasi arab tilidir.

Adabiy arab tili bilan bir qatorda har bir arab davlati o'z shevasiga ega. O'ozirgi arab shevalari bir tomondan zamonaviy arab adabiy tilidan, ikkinchi tomondan bir-biridan talaffuz, luqat va nahv jihatida sezilarli darajada farq qiladi. Hatto bir shevada gapiruvchi ikkinchi shevada so'zlovchini tushunmasligi mumkin. Arab mamlakatlarida lahjalar faqatgina oqzaki nutqda foydalanilmasdan, balki radio eshittirishda, teatr, kino va adabiyotda o'z o'rnini topmoqda. Ayniqsa, Mirs adabiyotida salmoqli o'rin tutgan she'riy asarlar yaratilgan. Adabiy asarlardagi so'zlashuv-diolog ko'pincha lahjalarda yoziladi. Ba'zi bir yozuvchilar o'z asarlarini ham adabiy tilda, ham lahjada yozadilar. Masalan, mashhur yozuvchii Mahmud Taymur birinchi bo'lib ikki tilda yozish uslubini qo'llagan.

Keng tarqalgan arab shevalarini o'rgatish arab tilini o'rganish jarayonida o'rin olgan.

## SAVOLLAR

1. Arab tili qaysi tillar oilasiga kiradi?

2. Bu tarmoqning umumiy hususiyatlari nimada?
3. Arab tili qanday shakllandi?
4. Arab tili tarixini qanday bosqichlarga ajratish mumkin?
5. Arab tili rivojiga mintaqamizning olimlaridan qaysilariatta hissa qo'shgan?
6. Bizning madaniy merosimizda arab tilining ahamiyati qanday?
7. Zamonaviy arab tili qachon rivojlangan?
8. Adabiy arab tili va arab shevalarining o'rtasida qanday farq bor?

### TOPSHIRIQLAR

1. Arab nahvi rivojiga hissa qo'shgan Markaziy Osiyolik olimlar haqida ma'lumot bering.

### ADABIYOTLAR

1. Dyakonov I.M. Semito-homitskie yaz'ki. M. 1958
2. Zvegintsev V.A. Istoriya arabskogo yaz'koznaniya. M. 1958
3. Belova A.G. Istoriya arabskogo yaz'ka. Kurs lektsii. Voenn'y institut. M. 1979.
4. Belkin V.M. Istoriya stanovleniya sovremennogo arabskogo literaturnogo yaz'ka. Sb. Arabskaya filologiya. M. M. 1968. Str 27-39.
5. Sharbatov G.Sh. Sovremenn'y arabskiy yaz'k. M. 1961.
6. Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. T.1997.
7. Kovalyov A.A., Sharbatov G.Sh. Uchebnik arabskogo yaz'ka M. 1998. Predislovie.
8. 1998 ، القاهرة . علم اللغة العربية . د. محمود فهمي حجازي .
9. . 1998 ، القاهرة . علوم اللغة .

## 2.1.-2.6. ARAB TILINING TOVUSHLAR TIZIMI

### REJA

1. Fonema haqida tushuncha.
2. Fonemalar tizimi haqida tushuncha.
3. Nutq tovushlarining artikulyatsion akustik tasnifi.

Tovush deb bo'qinning bir artikulyatsiyasi bilan talaffuz qilinadigan bo'lagiga aytiladi. Tovush nutqning eng kichik fonetik bo'lagidir. Tildagi so'z ma'nolarini ifodalash va farqlash uchun xizmat qiladigan tovush fonema /lotincha *Phonema* - «tovush»/ deyiladi.

Tilning tarixiy taraqqiyoti jarayonida to'plangan ma'lum fonemalar yiqindisi fonemalar sistemasidir. Har bir tilning, shu jumladan, arab tilining ham o'ziga hos fonemalar sistemasini bor.

So'zdagi biror fonema o'zgarsa, so'zning ma'nosi ham, shakli ham o'zgaradi:

a) jarangli undoshni jarangsizlantirganda, masalan:

دل *dalla* -ishora qilmoq

ضل *dalla* -adashmoq

b) cho'ziq unlilar qisqa talaffuz qilinganda, masalan:

باكر *ba:kara* - erta kelmoq

بكر *bakara* - erta turmoq

Eshitilishi bir-biridan farq qiladigan hamma tovushlar ham fonema bo'lavermaydi. Fonemaning variantlari bir-biridan sezilarli farq qiladi. o'ar qaysi fonemaning variantlari unga yondosh tovushlar ta'sirida paydo bo'ladi.

Har bir tilning o'ziga hos fonemalar tizimi bor, dedik. Ayrim fonemalar bir necha tilda bir hil bo'lishi mumkin, ammo shunday bo'lsa ham har bir tildagi fonemalar o'ziga hos ma'lum tarixiy sistemadan iborat bo'lib, boshqa tillardagi fonemalar tizimidan farq qiladi.

Ob'ektiv borliqdagi mavjud narsa va hodisalar har hil guruh va turlarga ajratilganidek, nutq tovushlari ham artikulyatsion-akustik xususiyatlariga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi.

Dastlab tovushlar unli va undoshlarga ajratiladi. Bularning miqdori turli tillarda turlichadir. Masalan, rus tilida undoshlar 43 ta, unlilar 6 ta; frantsuz tilida 21-13; arman tilida 30-6; gruzin tilida 28-5; eston tilida 16-9; arab tilida esa 28-6.

## *SAVOLLAR*

1. Tovush nima?
2. Fonema nima?
3. Fonemalar tizimi deganda nimani tushunasiz?
4. Fonemaning o'zgarishi ma'no o'zgarishiga ta'sir qiladimi?

## *TAYANCh IBORALAR*

1. Fonema.
2. Tovush.
3. Fonemalar tizimi.
4. Nutq tovushi.
5. Artikulyatsiya.
6. Akustika.
7. Unlilar.
8. Undoshlar.

## *ADABIYOTLAR*

- 1 **Kamenskiy N.S., Kratkiy vvodn'y kurs fonetiki arabskogo literaturnogo yaz'ka, Moskva, 1946, str. 10-15.**
2. Abdurahmonov ., Rustamov A., Navoiy tilining grammatik hususiyatlari, Toshkent, 1984, 13-b.
3. Reshetov V.V., Osnov' fonetiki i grammatiki uzbekskogo yaz'ka, Toshkent, 1965, str. 12-14.

## UNLILAR TASNIFI

1. Arab tilidagi unli tovushlar tizimi.
2. Unlilarning akustik hususiyati.
3. Unlilarning sifat belgilariga ko'ra tasnifi.
4. Unlilarning miqdor belgilariga ko'ra tasnifi.

Aritulyatsion-akustik va eshitib his etilishi hamda tildagi funksional hizmati jihatidan unli va undosh tovushlar o'rtasida katta farq bor.

Artikulyatsion jihatdan unli tovushlarning hosil bo'lishida o'pkadan chiqib kelayotgan havo oqimi oqiz bo'shliqida hech qanday to'siqqa uchramaydi. Akustik hususiyatiga ko'ra unlilar talaffuzida havo oqimi kuchsiz tebranadi. Unlilar musiqa ohangiga jo'r bo'la oluvchi mayin ohangga egadir.

Unlilarning bir-biridan farqi rezonator vazifasini o'tovchi o'z bo'shliqining shakliga boqliq. Oqiz bo'shliqining shakli esa til, lab va pastki jaqning holatiga bo'liq bo'ladi. Shunday qilib, unli tovushlar: 1) tilning muayyan tovushni hosil qiladigan qismi (gorizontal harakatiga); 2) tilning tovush hosil qiladigan qismining ko'tarilish darajasi (vertikal harakatiga); 3) labning holatiga qarab bir-biridan farq qiladi.

1. Tilning gorizontal harakatiga ko'ra unlilar tiloldi, tilo'rta, tilorqa qator unlilarga bo'linadi. Masalan, tiloldi unlisi *i*.
2. Tilning vertikal harakatiga ko'ra yuqori, o'rta, quyi ko'tarilish yoki yopiq, yarim yopiq, yarim ochiq, ochiq unlilari bilan farqlanadi. Masalan, yuqori ko'tarilish unlisi *u*.
3. Unlilarning talaffuzida lab ishtirok etsa, lablangan, ishtirok etmasa, lablanmagan unlilar deyiladi. Masalan, lablangan *u*.

Unlilarning yuqoridagi klassifikatsiyasi ularning sifat belgilaridir. Unlilar yana miqdor belgisi bilan, ya'ni unlilarning talaffuz vaqti bilan o'lchanadigan qisqalik va cho'ziqlik belgilari bilan ham farqlanadi. Bunday unlilar arab tili uchun harakterli hisoblanadi va ular ma'no farqlash uchun hizmat qiladi.

Arab tilida 6 ta unli fonema bor bo'lib, ularning uchtasi qisqa: (*a*, *i*, *u*) va uchtasi cho'ziq (*a:*, *i:*, *u:*) unlilardir.

Arab tilidagi qisqa unlilar *a*, *i*, *u* o'zbek tilidagi *a*, *i*, *u* fonemalariga o'hshashdir. Cho'ziq fonemalar esa qisqalariga sifat jihatdan mos keladi, ulardan artikulyatsiyani ko'proq cho'zish bilan farq qiladi.

Arab tilida undoshlar unli tovushlarning talaffuziga ta'sir qiladi. Shuning uchun

unli fonemalar undoshlarning hususiyatiga qarab, yoki o'zgarishsiz, ya'ni fonema sifatida, yoki vaziyatga qarab fonemaning varianti sifatida talaffuz qilinadi.

### *SAVOLLAR*

1. Arab tilida nechta unli fonema bor?
2. Unli tovushlar qanday hosil bo'ladi?
3. Unlilar tilning harakati bo'yicha qanday unlilarga bo'linadi?
4. Unlilar miqdor belgilariga ko'ra qanday unlilarga ajratiladi?

### *TAYANCh IBORALAR*

1. Unli fonema.
2. Vokalizm.
3. Rezonator.
4. Tilning harakati.
5. Tiloldi.
6. Tilorqa.
7. Tilo'rta.
8. Yuqori ko'tarilish.
9. Juyi ko'tarilish.
10. O'rta ko'tarilish.
11. Lablangan.
12. Lablanmagan.
13. Cho'ziq.
14. Jisqa.
15. Miqdor belgi.

### *ADABIYOTLAR*

1. Kovalev A.A., Sharbatov G.Sh., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1998, str. 11, 14-16.
2. Holidov B.Z., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1981, 17,19.
3. Ibrohimov N., Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1995, 9-10 b.
4. Talabov E., Arab tili darsligi, Toshkent, 1987, 17-18.

## UNDOSH LARNING HOSIL BO'LIH O'RNI VA TALAFFUZ USULIGA KO'RA TASNIFI

1. Undosh tovushlarning akustik hususiyati.
2. Undoshlarning hosil bo'lish usuliga ko'ra tasnifi.
3. Undoshlarning tovush ishtirokiga ko'ra tasnifi.
4. Undoshlarning hosil bo'lish o'rniga ko'ra tasnifi.
5. Undosh fonemalar tavsifi.

Undosh tovushlarning hosil bo'lishi uchun muhim bo'lgan hodisa nutq organlarining bir-biriga tegishi natijasida o'pkadan kelayotgan havoning to'siqqa uchrashidir.

Undosh tovushni talaffuz qilganda havo oqimi unlilarga qaraganda kuchli tebranadi va shovqin yordamida hosil bo'ladi.

Eshitib his etilishi jihatdan ham undoshlar kuchli shovqin bilan unlilardan farq qiladi. Jahon tillarining deyarli hammasida undosh tovushlar unlilardan ko'p. Shu tufayli ularning funktsional hizmati ham kattadir.

Arab tili ham shunday tillar qatoriga kiradi. Arab adabiy tilida 34 ta fonema bo'lib, ularning 28 tasi undosh, 6 tasi unlidir.

Arab adabiy tili fonetik jihatdan undosh fonemalar sistemasining, ayniqsa, bo'qiz, itboq va tish undoshlarining keng qo'llanishi bilan harakterlanadi.

Arab tilida undosh tovushlar:

1. O'osil bo'lish usuliga ko'ra quyidagilarga ajratiladi:
  - a) portlovchilar. Ularning hosil bo'lishida talaffuz organlarining to'la jipslashuvi natijasida havo oqimi kuchli to'siqqa uchraydi va tovush kuchli portlash bilan chiqadi. Masalan: ط ت ك
  - b) sirqaluvchilar yoki sizqiruvchi (frikativ) undoshlar. Bunday undoshlarning hosil bo'lishida talaffuz organlari to'liq yaqinlashmaydi, lekin havo oqimi ular orasidan kuch bilan o'tadi va sirqalish hosil bo'ladi. Bu sirqalish shovqinli bo'ladi. Masalan: س ف .
2. Tovushning ishtirokiga ko'ra jarangsiz va jarangli undoshlarga bo'linadi. Jarangsiz undoshlarning talaffuzida tovush paychalari titramaydi. Masalan: ف ت .

Jarangli undoshlarning talaffuzida esa tovush paychalari titraydi. Masalan: د ز .
3. O'osil bo'lish o'rniga ko'ra quyidagicha tasnif qilinadi:
  - a) lab undoshlari. Ular qatoriga ikkala labning jipslashuvidan hosil bo'luvchi lab-lab (bilabial) undoshlari ( م ب ) va pastki lab va yuqori tishlarning orasida hosil

bo'ladigan lab-tish (labiodental) undoshlari (ف) kiradi;

b) yumshoq yoki palatal undoshlar. Ular tilo'rtasi qismining qattiq tanglayga yaqinlashuvi bilan hosil bo'ladi (ك);

v) tilorqa yoki velyar undoshlar. Ular tilorqa qismining yumshoq tanglayga tegishi yoki yaqinlashishi bilan hosil bo'ladi (خ ق);

g) bo'qiz yoki tomoq, halqum (laringal) undosh tovushlar. Ularning hosil bo'lish o'rni bo'qizdir (ع);

d) burun (sanor) tovushlar. Tovushlarning talaffuzida yumshoq tanglay pastga tushib, havo burun bo'shligi orqali o'tsa, sanor tovushlar hosil bo'ladi. Bunday tovushlar lab-burun (م) va tish-burun (ن) sanorlariga ajratiladi.

4. *u:* va *i:* bo'qin hosil qila olmaydigan unlilar ham undosh tovushlar qatoriga kiradi (*u, i*).
5. Itboq (emfatik) tovushlarning talaffuzida til uchi tishga yaqinlashadi yoki tish bilan birikadi, til o'rtasi esa yumshoq tanglayga yaqinlashadi va tovush kuch bilan chiqadi (ص ض ط).
6. YA'na shunday tovushlar borki, ular boshqa tovushlardan talaffuz vaqtida tovush paychalarining ajralishidan hosil bo'luvchi portlashning qo'shilishi bilan ajralib turadi (ء). Bunday tovushlar «bo'qiz portlovchisi» deb ataladi.

## ARAB KONSONANTIZMINING ARTIKULYASIYA HUSUSIYATLAR

Arab tilidagi ب ت ج خ د ر ز س ش غ ف ق ك ل م ن ه ي undoshlari o'zbek tilidagi shu undoshlardan talaffuz jihatdan farq qilmaydi. YA'ni:

ب - lab-lab, jarangli, portlovchi, shovqinli undosh tovush;

ت - tiloldi, jarangsiz, portlovchi, shovqinli undosh tovush;

ج - tiloldi, jarangli, sirqaluvchi, shovqinli undosh tovush;

خ - chuqur tilorqa, jarangsiz, sirqaluvchi, shovqinli undosh tovush;

د - tiloldi, jarangli, portlovchi, shovqinli undosh tovush;

ر - tiloldi, jarangli, sirqaluvchi, titroq sof sonor undosh tovush, talaffuzida til uchi yuqori tishlarga yo'naladi, tiloldi esa tanglayning old qismiga tegib turadi. ر ning talaffuzida til uchi titraydi. Arab tilidagi ر o'zbek tilidagiga qaraganda ancha qattiq

talaffuz qilinadi. Arab tilidagi ر ning aytilishida til uchi ko'proq titraydi (راحة- rohat)

ز - tiloldi, jarangli, sirqaluvchi, shovqinli undosh tovush;

س - tiloldi, jarangsiz, sirqaluvchi, shovqinli undosh tovush;

ش - tiloldi, jarangsiz, sirqaluvchi, shovqinli undosh tovush;

غ - chuqur tilorqa, jarangli, sirqaluvchi, shovqinli undosh tovush;

ف - lab-tish, jarangsiz, sirqaluvchi, shovqinli undosh tovush;

ق - chuqur tilorqa, jarangsiz, portlovchi, shovqinli undosh tovush;

ك - tilorqa, jarangsiz, portlovchi shovqinli undosh tovush;

ل - tilorqa, jarangli, yon, sof sonor undosh tovush; O'zbek tilidagiga nisbatan yumshoqroq talaffuz qilinadi. «Alloh» so'zi bundan mustasno.

م - lab-lab, jarangli, portlovchi, sof sonor undosh tovush;

ن - tiloldi, jarangli, portlovchi, sof sonor undosh tovush;

ه - bo'qiz tovushi, jarangsiz, sirqaluvchi, shovqinli undosh; O'zbek tilidagidan yengilroq talaffuz qilinadi;

ي - tilo'rta, sirqaluvchi, jarangli undosh tovush;

و ع ظ ط ص ض ذ ح ث .

ث - tishora, jarangli, sirqaluvchi, shovqinli undosh tovush;

ذ - tishora, jarangli, shovqinli, sirqaluvchi undosh tovush;

ث va ذ ning talaffuzida til uchini tishlar orasiga qo'yib yuqori tishlarga qattiq yopishtirish kerak, til uchi va pastki tishlar o'rtasida ozgina oraliq bo'lishi lozim. ث va ذ tovushlarini shu tariqa talaffuz qilish kerak. Masalan: ثمر

ع portlovchi, jarangli, shovqinli, bo'qiz undoshi. ع ning hosil bo'lishida bo'qiz muskullari qattiq jipslashib taranglashadi. Jipslashish spazmatik qisilish hususiyatiga ega bo'ladi. Vaqf (pauza)dan so'ng muskul bir oz bo'shashadi. Bo'qiz muskullarining qisqarishi vaqtida tovush paychalari titraydi. Shuning uchun ع jarangli undoshdir. Yumshoq tanglay ko'tariladi va havo oqiz bo'shliqi orqali chiqadi. Masalan: علم، عين

Bo'qiz muskullari ajralganda tilning holati o'rta qator undoshlardagidek bo'ladi. Shuning uchun ع da *a* fonemasining o'rniga uning varianti 'a talaffuz qilinadi. i va u fonemalarida o'zgarish bo'lmaydi. Masalan: عمر علم عادل. ع ikkilanganda bo'qiz muskullari qattiq birlashgan holdagi vaqf uzaytiriladi. Masalan: دعم

ح sirqaluvchi, shovqinli, jarangsiz, bo'qiz undosh tovushi. hosil bo'lish o'rni jihatdan ع bilan mos keladi. Ularning talaffuzidagi farq shunday: ح ning talaffuzida muskullar ع dagidek qattiq jiplashmaydi, balki tarang bo'lib tortiladi va tor oraliq hosil qiladi. Nafas chiqarganda havo shu oraliq orqali ishqalanib o'tadi, natijada sirqaluvchi jarangsiz undosh hosil bo'ladi, tovush paychalari titramaydi. Yumshoq tanglay ko'tariladi. Burun bo'shliqidagi havo yo'li berkiladi. Nutq organlari tarang bo'ladi. Masalan: حسن

Bu tovush ikkilanganda havoning bo'qiz muskullari oraliqidan chiqayotgan vaqti cho'ziladi. Masalan: تحم

ض ص ط ظ itboq undoshlar deyiladi. Bu tovushlar talaffuzining muhim sharti shuki, til orqasi yumshoq tanglayga ko'tariladi va tovush kuch bilan chiqadi. Itboq tovushlarning talaffuzi boshqa undoshlarga qaraganda ancha jadal, nutq organlari ancha tarang bo'ladi.

ط - itboq, tishora, shovqinli, portlovchi, jarangsiz undosh tovush. ط ning talaffuzidagi nutq a'zolarining holati oddiy ت dagidek. Lekin itboq ط ning talaffuzida tilning old qismi milkka qattiq tiralib, undan keskin ajraladi. Til orqasi yumshoq tanglayga iloji boricha ko'tariladi. o'avo oqiz bo'shliqi orqali o'tadi. Masalan: طريق ، طالب

ض - itboq, tishora, shovqinli, portlovchi, jarangli undosh. ض talaffuz hususiyati jihatdan itboq ط ga to'la mos keladi. ض ning talaffuzida tovush paychalari titraydi. Natijada bu tovush jarangli bo'ladi. Shuni aytish kerakki, ط kabi ض ning aniq talaffuziga butun nutq a'zolarining, ayniqsa, tilning tarangligi bilan erishiladi. Masalan: ضيف ، ضحك

ص - itboq, tilorqa, shovqinli, sirqaluvchi, jarangsiz undosh tovush. ص ning talaffuzida nutq a'zolarining holati tishorqa س ning talaffuzi kabidir. Til uchi pastki tishlar orqasiga tegadi, til orqasi havo o'tadigan oraliq hosil qilib qattiq tanglayga

ko'tariladi. Bu oraliq س ga qaraganda itboq ص da ancha tor bo'ladi. Til va butun nutq a'zolari taranglashadi. Til orqasi iloji boricha yumshoq tanglayga ko'tariladi. ط va ض kabi havo shiddat bilan chiqadi. Masalan: صوت ، مصر

ظ - itboq, tishorqa, shovqinli, sirg'aluvchi, jarangli undosh tovush. Talaffuzida nutq a'zolarining holati itboq ص ga to'la mos keladi. Faqat ظ ning talaffuzida tovush paychalari titragani uchun jarangli tovushga aylangan. Masalan: نظام ، نظر

و - lab-lab, sirqaluvchi undosh tovush. Talaffuz vaqtida lablar oldinga cho'zilib yumaloqlanadi va toraytiriladi. Tilning orqa qismi yumshoq tanglayga ko'tarilib, ozgina orqaga tortiladi. Lablar va til tarang bo'ladi. و ning talaffuzida titrab jarangli tovush chiqaradigan tovush paychalari ham ishtirok etadi. Yumshoq tanglay ko'tariladi va burun bo'shlig'idagi havo yo'li berkiladi. O'zbek tilidagisi arab tilidagi dan talaffuz O'rniga ko'ra lab-tish tovushi ekanligi bilan farq qiladi. Masalan: vatan - وطن va - و.

Arab tili fonetikasiga hos bo'lgan yana bir fonema hamzadir.

hamza - portlovchi, jarangsiz, bo'qiz undosh tovushi. U tovush paychalarining to'la birlashishi va ularning tovush chiqarish oraliqidan o'tilib chiqadigan kuchli havo oqimi ostida ochilishi natijasida hosil bo'ladigan kuchsiz shovqindir.

Bu tovushning hosil bo'lishi: yumshoq tanglay ko'tariladi va havoning burun bo'shliqi orqali o'tadigan yo'li yopiq bo'ladi. 'amza tovushi biron unli tovush talaffuz qilinishidan oldin yoki talaffuz qilingandan keyin eshitiladi. Masalan: اقرأ

Bu tovush «bo'qiz portlovchisi» deb ham yuritiladi va u mustaqil fonemadir.

Boshqa undoshlar kabi hamza ham tashdidlanadi. Bunday paytda tovush paychalarining birlashib ochilishi orasidagi vaqf uzayadi. Masalan: تسال. Unlilarga o'rta qator undoshlari kabi ta'sir etadi va so'zning turli bo'qinlarida kelishi mumkin. Hamza tovushi hozirgi arab alfavitiga kiritilmay yozuvda mahsus belgi bilan ifodalanadi. Bu hodisa B.M.Grande tomonidan quyidagicha tushuntiriladi:

Makka talaffuzini o'zida ifodalagan Qur'on arab tilining hamma imlosi uchun namuna vazifasini o'tagan; lekin unda ba'zi tovushlar uchun qo'llangan belgilar, masalan, qisqa unlilar va bo'qiz portlovchisi, ya'ni hamza yo'q edi.

Birinchi arab grammatistlari Jur'onga, shuningdek, jonli halq tili va arab halq oqzaki poeziyasi asarlariga asoslandilar.

Arablarning talaffuzida bo'qiz tovushi mavjud bo'lib, uni yozuvda ifodalash lozim edi. Lekin musulmonlarning muqaddas kitobi Jur'onga hatto kichik o'zgarish kiritish ham ta'qiqlangan edi. Shuning uchun bu bo'qiz tovushini ifodalash uchun mahsus belgi hamza kiritilgan. Bu belgi hamzaning o'rniga yozilgan harflar ustiga

qo'yila boshlangan yoki hamzadan hech qanday belgi qolmagan bo'lsa, o'zi mustaqil yozilgan.

Arab tilida hamza belgisining yozilishi o'ziga hos xususiyatlarga ega:

hamza belgisi ا harfining ustiga yoki tagiga, و ي harflarining esa ustiga yoziladi. hamza uchun yozilgan harf «markaz» deb ataladi, ya'ni hamza alifning ustiga yoki tagiga yozilsa, markaz alif, vavning ustiga yozilsa, markaz vav, yaning ustiga yozilsa, markaz ya harflari bo'ladi. Markaz harflar talaffuz qilinmaydi. hamza markazsiz, mustaqil yozilishi ham mumkin.

Markaz harflar quyidagi qoidalar asosida ishlatiladi:

1. hozirgi arab adabiy tilida hamza so'zning boshida kelganda markaz doim alif bo'ladi. Agar hamza fatha yoki damma bilan harakatlangan bo'lsa, alifning ustiga, kasra bilan harakatlangan bo'lsa, alifning tagiga (darsliklardan tashqari adabiyotlarda. Gazetalarda ko'pincha alifning ustiga qo'yilib, kasra hamza belgisining tagiga qo'yiladi - ا). Masalan: أخذ - olmoq, اجلس - o'tir, اكتب - yoz.

Ammo hamzaning yozilish tarixida uning so'z boshida mustaqil yozilganini ko'rish mumkin. Masalan:

يا أيها الذين آمنوا

Arab adabiyotlaridan «Al-Munjid»da yuqoridagi qoidani davom ettirib shunday deyilgan:

a) agar so'z boshidagi hamza oldiga boshqa harflar qo'shilsa ham , markaz alif bo'ladi. Masalan: بأجمل ، لأفضل

b) lekin لعن va لعن so'zlarida markaz ya harfi bo'ladi.

ل va إلا , ل va إن yuklamalari birgalikda juda ko'p qo'llangani uchun ularning birikmasini yozishda hamzaning so'z o'rtasidagi yozilish qoidasiga amal qilinadi;

v) ل ko'makchisidan keyin ال anqlik artiklining hamzasi tushib qoladi.

Masalan:

فعلت هذا للخير

B.M.Grande hamzaning yozilishidagi o'zgarishlarga yana quyidagilarni kiritadi.

2. Agar so'z qisqa unlili hamza bilan boshlangan bo'lsa, u holda undan keyin kelgan bo'qiz portlovchisi tushib qoladi va qisqa unlining cho'zilishi bilan tiklanadi, ya'ni 'a' , 'i' , 'u' birikmalari 'a:, 'i:, 'u ga aylanadi. YOzuvda bunday ifodalanadi:

a) آ - أ

-I bob, hozirgi-kelasi zamon, 1 shahs ko'rsatkichi أ qo'shilganda. Masalan:

أسف - أسف - أسف hafa bo'lmoq

-IV fe'l shakli yasalganda. Masalan:

hafa qilmoq - آسف - آأسف - آأسف

أومل - أومل - أومل shaklida yoziladi. Masalan: أومل ishonmoq; أومل ishon; أومل asir olmoq; أومل - أومل - أومل asir ol!

2. VIII bobdagi ba'zi fe'llarni tuslaganda hamza VIII bob ko'rsatkichi t bilan assimilyatsiyalashadi. Masalan: أومل - أومل olmoq; أومل - أومل .

Lekin أومل - أومل - أومل ;

Nima uchun shundayligi B.M.Grande tomonidan aytilmagan.

-Ba'zan hamza tushib qoladi. Masalan: أومل - أومل; hosil bo'lishi: أومل - أومل -

أومل

-Ba'zan VI bob fe'li tuslanganda so'z boshidagi hamza و undoshi bilan almashadi. Masalan: أومل - أومل - أومل

hamza so'zning o'rtasida kelganda markaz ي و أ harflaridan biri bo'ladi. Bu harflar «unlilarning kattalik qonuni» bilan tanlanadi.

- «Kattalik qonuni»ga asosan unlilar quyidagi tartibda bo'ladi: *kasra* eng katta unli, undan kichigi *damma*, so'ngra *fatha* (*fatha* faqat sukundan katta). Kasrali hamza uchun *ya*, dammali hamza uchun *vav*, fathali hamza uchun *alif* markaz bo'ladi.
- Markaz tanlashda ikki unli, ya'ni hamzaning unlisi va undan oldingi unlilar taqqoslanadi va ulardan kattasi tanlanadi. Masalan: أومل markaz ي bo'ladi u i.
- Lekin arab adabiy tilida so'zning o'rtasidagi hamzaning bu qoidaga nomuvofiq yozilgan holatlarini ham ko'ramiz, ya'ni uning uchun markaz vazifasini *vav* yoki *alif* o'tashi kerak bo'lganda ba'zan *ya* yoziladi. Masalan:

مسألة = مسألة

مسؤول = مسئول

Bu so'zlarning har ikkala shakli ham mavjud bo'lib, ularning ikkinchisi qonunga to'g'ri keladi. Birinchisini esa tez yozish uchun qulayligi sababli shu shaklda yozilgan, deb tahmin qilish mumkin.

- Agar hamza so'zning o'rtasida cho'ziq unli alifdan keyin kelib. Fatha bilan harakatlangan bo'lsagina, markazsiz yoziladi. Masalan:
- الولد يسمع خذاه ساءل
- So'z o'rtasidagi hamza tushib qolishi ham mumkin. Lekin bu juda kam uchraydigan hodisa. Masalan: إسأل = سل

1. agar hamza sukun bo'lsa, oldidagi harakatga mos keluvchi harf yoziladi: بؤس بئس  
بأس
2. agar harakatli hamzadan oldingi harfning harakati sukun yoki fathali bo'lsa, hamzaning harakatiga mos keluvchi harf bilan yoziladi. Masalan: رؤف سأل مسألة
3. agar damma va kasradan keyin hamza fatha bilan kelsa, oldidagi harakatga mos keluvchi harf bilan yoziladi. Masalan: سؤال مؤنس
4. alif bilan yaning orasiga tushsa, hamzani mustaqil yoki ya bilan yozish mumkin: الرائي = الرائي بقاءي = بقاءي
5. olmoshlarda alif bilan yadan boshqa harf orasiga tushib, kasra yoki damma bilan harakatlangan bo'lsa, shu harakatga mos keluvchi harf yoziladi, agar harakati fatha bo'lsa, hamza markazsiz yoziladi:

بقاءه بقاءه بقاءه

III So'z ohiridagi markaz tanlash hamzadan oldingi unli tovushga boqliq:

a) agar hamzadan oldin qisqa unli kelgan bo'lsa, u holda hamza uchun markaz shu qisqa unliga mos keluvchi harf boqladi. Masalan: جرؤ فتىء بدأ

b) agar hamzadan oldin uzun unli yoki sukun kelgan bo'lsa, hamza markazsiz yoziladi. Masalan: جاء ساء جزء شىء

Shuningdek, hamzadan keyin «-atun» qo'shimchasi kelganda hamzaning yozilishi haqida «Al-Munjid»da shunday deyilgan:

a) hamzadan oldingi harf bo'sh harf bo'lmay, sukun bilan harakatlangan bo'lsa, markaz alif bo'ladi. Masalan: نشأة

b) hamzadan oldingi harf harakatli bo'sa, o'sha harfga mos keluvchi harf yoziladi. Masalan: فئئة لؤلؤة

v) hamzadan oldin bo'sh harf ya bo'lsa, markaz ya shaklida bo'ladi, alif yoki vav bo'lsa, hamza mustaqil yoziladi. Masalan: بريئة قراءة

Arab tilida hamza ikkiga boqlinadi:

1. همزة الوصل
2. همزة القطع

«hamzatul vasli» o'zining luqaviy ma'nosidan kelib chiqsak, «birlashtiruvchi» ma'nosini beradi.

«hamzatul vasli»ning qo'llanishi bo'qin nazariyasi bilan boqliq, ya'ni arab tilida bo'qin ikkita undoshning ketma-ket talaffuzi bilan boshlanmaydi. Ana shunday ketma-ketlikning oldini olish uchun bo'qin boshiga hamza va bitta qisqa unlidani

iborat bo'lgan bo'qin/'a, 'u, 'i/ qo'shiladi. YOzuvda bu bo'qin alif va uning ustida vasla belgisi bilan beriladi. Bu belgi mos keluvchi harakat bilan o'qiladi. Masalan:

استجمل - ستجمل أكتب - كتب

Jumladan, اسم ابن so'zlaridagi, (i) ham yordamchi tovush bo'lib, bo'qinning ketma-ket kelgan ikki undoshdan boshlanishini bartaraf etish uchun qo'llanilgan.

B.M. Grande shunday deydi: arab tilida ال artikli va ba'zi fe'llarning yordamchi shakllari unli bilan boshlanadi.

Jur'onning harakatlangan matnlarida bunday hollarda alif hamzasiz yoziladi.

\* Arab tilida ال artiklining qo'shilishidan va ba'zi fe'llarda ( VII, VIII, IX, X) birinchi undosh oldida unli paydo bo'ladi. Masalan: أكتب - الكتاب

\* Nutq o'rtasida (bir takt oraliqida) unli tushib qoladi, ketma-ket kelgan ikkita undoshning birinchisi esa oldingi so'zning ohiriga qo'shib ketib, u bilan birga yopiq bo'qin hosil qiladi. Masalan:

قال أكتب - qa:la ktub

دخل الأب - dahala l'abu

Bo'qinlarga ajratsak bunday bo'ladi:

qa:-lak-tub da-ha-lal-'a-bu

YOzuvda har ikkala holda ham alifning o'qilmasligini ko'rsatish uchun vasla belgisi qo'yiladi.

Arab tiliga bosha tillardan o'tgan so'zlarda bo'qin ketma-ket undoshlardan iborat bo'lganda ham bu so'zlar qanday bo'lsa shundayligicha talaffuz ilinmay, yordamchi unli qo'shiladi. Masalan: افلاتون *Platon*

Undosh bilan tugagan so'z keyingi so'zga qo'shilishi uchun so'z ohirida yordamchi unli oladi. Bu faqat nutq ravonligini amalga oshirish uchundir. Bu hodisani vaslalar deyiladi. YOrdamchi unlini tanlash unlilarning almashnuvi qoidasiga muvofiq tanlanadi.

Ohirgi bo'qinning unlisi	Ohirgi undosh oladi
-a-	
-i-	-i-
-u-	-a-
-ai-	-u-, -i-
-au-	-i-
	-i-

Masalan:	
من الغرفة	<u>mina-l-gurfati</u>
من الرجل	<u>mani-r-raguli</u>
او الكتاب	<u>au-i-l-kita:bu</u>

hamzatul qat'i ma'no tashuvchi bo'lgani uchun yo'qolmaydi. Masalan: IV bob fe'llarida, orttirma darajadagi sifatlarda *أفعل* *احمل*

«hamzatul qat'i»ning luqaviy ma'nosi: ajratuvchi hamza. Birlashtiruvchi hamzaga qarshi o'laroq vaslalamaydi. U so'zning negizini tashkil etadi yoki ma'no kashf etuvchi grammatik vaznlarning elementi sifatida ishlatiladi.

Masalan: أم أقلام

Hulosa qilib shuni aytish mumkinki, hamza faqatgina havo oqimining tovush chiqayotgan oraliqdagi to'siqni yorib chiqishigina emas, balki ana shu havo oqimining to'siqqa urilib to'htab qolishi natijasidagi tovushhamdir.

### SAVOLLAR

1. Undosh tovushlar akustik jihatdan qanday hosil bo'ladi?
2. Undoshlar hosil bo'lish usuliga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
3. Jarangli-jarangsiz undoshlar talaffuzida qanday farq bor?
4. Undoshlar mahrajiga ko'ra qanday tavsiflanadi?
5. O'zbek tilidagi undosh fonemalarga o'hshash fonemalarni sanang va ularni tavsiflang.
6. Arab tilining o'ziga hos fonemalari qaysilar va ular qanday tavsiflanadi?

### TAYANCh IBORALAR

1. Undoshlar.
2. Konsonantizm.
3. Portlovchi.
4. Frikativ.
5. Jarangli
6. Jarangsiz.
7. Labial.
8. Palatal.
9. Velyar.
10. Laringal.
11. Sonor.
12. Lab-burun.
13. Lab-tish.
14. Bo'qiz portlovchisi.

15. Chuqur tilorqa.
16. Tiloldi.
17. Shovqinli.
18. Sof sonor.
19. Itboq.
20. Tishora.
21. hamza.

### *ADABIYOTLAR*

1. Kovalev A.A., Sharbatov G.Sh., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1998, 1, 6, 7, 12, 13, 17, 26, 27,32, 38, 39.
2. Holidov B.Z., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1981, str. 17, 28-29, 35, 41, 45. .
3. Ibrohimov N.,Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1998, 8, 11-19 b.
4. Talabov E., Arab tili darsligi, Toshkent, 1987, 19-44.

## **ARAB TOVUSHLARINING FONOLOGIK HUSUSIYATLARI**

### REJA

1. Arab tili fonemalari haqida Grande nazariyasi.
2. Arab tilidagi undoshlar alohida fonemadir.
3. Fonologik oppozitsiyalar haqida tushuncha.

Arab tilining fonemalari haqida ikki hil fikr mavjud. Keng tarqalgan bir fikrga ko'ra arab tilining fonemalari, masalan, o'zbek tilidagi singari bir tovushdan iborat bo'lib, ular dastlab unli va undosh fonemalarga bo'linadi. Somiy, jumladan, arab tilidagi fonemalarning o'ziga hos hususiyatlari haqidagi ikkinchi fikr, to'qriroqi nazariya B.M.Grandega tegishlidir. U o'zining «Somiy tillarda bo'qin-fonema» degan maqolasida somiyshunoslikda fonemaga oid yangi bir nazariyani maydonga tashladi.

B.M.Grandening yozishicha arab tilidagi qisqa unli larni alohida fonema deb hisoblab bo'lmaydi. Ular undosh tovush bilan birgalikda turli variantlarni hosil qiladi.

Olim arab tilida qancha undosh tovush bo'lsa, shuncha fonema bor va har bir fonema to'rt ko'rinishdan iborat, masalan, *ta, tu,ti,t* singari, deydi. B.M.Grande unlisiz ko'rinishni «nul unlili ko'rinish» deb atash sharti bilan arab tilidagi fonemalar

tovush fonemalar emas, bo'qin fonemadir, deydi.

U unlilarning o'zicha alohida fonema bo'lmasligiga ularning o'zak hosil qiluvchi tovush sifatida qo'llanmasligini asos qilib ko'rsatadi. Ammo bu nazariya boshqa arabshunoslar tomonidan qabul qilingani yo'q. Buning sababi unlilarning bir o'zak doirasida bo'lsa ham, so'z va vazn yasashda muhim o'rin tutishidadir.

Masalan, quyidagi so'z va so'z shakllari unli tufayli bir-biridan farq qiladi:

bir necha - عِدَّةٌ	hozirlik - عِدَّةٌ
sanadi - عَدَّ	sanaldi - عُدَّ
hozirlash - إَعْدَادٌ	sonlar - أَعْدَادٌ
soch - شَعْرٌ	she'r - شِعْرٌ

Mana shuning uchun biz ham ko'pchilik tomonidan tan olingan fikrga qo'shilib «arab tilida bo'qin fonema bor» degan fikrga qo'shilmaymiz va undoshlarning o'zini alohida fonema hosil qiladi, deb tushunamiz va arabcha undosh fonemalarning o'ziga hos hususiyatlarini shu nazariya asosida ko'rib chiqamiz.

Arab tilida interdentallik, ya'ni tishoralik fonemalik belgilaridan biridir. Buni biz quyidagi misollarda ko'rishimiz mumkin:

efir - أَثِيرٌ	tutqin, asir - أُسِيرٌ
qimmatbaho - ثَمِينٌ	yoqli - سَمِينٌ
tuya lo'killashi - ذَمِيلٌ	hamkasb - زَمِيلٌ
majburiyat - ذَمَامٌ	jilov - زَمَامٌ

- 'ain va ha' halqum undoshlari alohida fonema bo'lib, bular chuqur tilorqa undoshlari bilan bir tomondan va bo'qiz undoshlari bilan ikkinchi tomondan fonemalik nuqtai nazaridan qarshi turadilar (oppozitsiya hosil qiladilar). Buni biz quyidagi misollarda ko'rishimiz mumkin:

bo'qiz - خلق	yaratish - خلق
maqtalgan - محمود	so'ngan - مهمود
yechish - حل	sirka - خل
isitmal - محموم	qiziqarli - مهموم
qamish - أسل	asal - عسل
buyruq - أمر	obod bo'lish - عمر
latta - عمر	oy - قمر
sharbat - عصير	qisqa - قصير
nom - اسم	bo'lak, qism - قسم

- Bo'qiz tovushlari o'zaro bir-biri bilan va halqum tovushlari ham o'zaro bir-biri bilan fonologik oppozitsiya hosil qiladilar. *ha'* va *hamza* oppozitsiyasiga misollar:

so'raluvchi - مسؤل	engillashtirilgan - مسهول
soqayish; dori - شفاء	suhbat - شفاه

- '*ain* va *ha'* oppozitsiyasiga misollar:

ishchi - عامل	tashuvchi - حامل
sabab - علة	lager - حلة

- Arab tilining faqat o'ziga hos bo'lib, uni boshqa tillardan ajratib turadigan muhim fonologik oppozitsiyalardan biri bu emfatiklik oppozitsiyasidir. Bu oppozitsiya ت bilan ط, ذ bilan ظ, س bilan ص, د bilan ض fonemalari orasida mavjud.

Birinchi oppozitsiyaga misollar (ط - ت):

izdosh; qaram - تابع	marka - طابع
to'zutilgan - مترب	shodlantirilgan - مطرب

Ikkinchi oppozitsiyaga misollar (ظ - ذ):

ogohlantirish - نذير	o'hshash - نظير
horlash - تذليل	soya solish - تظليل

Uchinchi oppozitsiyaga misollar (ص - س):

sir aytish - اسرار qattiq turib olish اصرار

tezlar (tezning ko'p.) - صراع kurashish - سراع

To'rtinchi oppozitsiyaga misollar (ض - د):

ishora qilmoq - دل adashmoq - ضل

o'rgatmoq - درب qattiq urmoq - ضرب

- Eksplozivlik (portlash-sir±alish) oppozitsiyasi hamma tillarda bor. Lekin bu oppozitsiyaning tarqalish doirasi turli tilarda turlichadir. Arab tili uchun س bilan ت fonemalari, د bilan ز; ق va ح bilan ب fonemalari orasidagi eksplozivlik oppozitsiyasi keng tarqalgan.

oppozitsiyasiga misollar: ت - س-

arzimaslik - تفاهة nodonlik - سفاهة

yo'qotmoq - تبر sinamoq - سبر

oppozitsiyasiga misollar: ز - د-

ishora qilmoq - دل toymoq - زل

qabihlar - دمام jilov - زمام

oppozitsiyasiga misollar: ح - ق-

belgilash - تقدير yashirish - تخدير

mushukcha - قطيط chiziqcha - خطيط

oppozitsiyasiga misollar: و - ب

ilgari - قبل so'z - قول

yangilik - بدیعة jamqarma - وديعة

Arab tilida jaranglilik-jarangsizlik hamma hollarda saqlanadi, shuning uchun arab tili konsonantizmi jaranglilik-jarangsizlik oppozitsiyasining kuchliligi bilan farq qiladi.

oppozitsiyasiga misollar: د-ت-

oqqush - تم bo'yoq - دم

o'tkirlik - حدة - parcha, bo'lak - حنة

parda - ستارة - furajka - سدارة

oppozitsiyasiga misollar: ذ - ث-

yomonlamoq - ذم - ثم - narida

suyuq asal - ذوب - ثوب - ko'ylak

kechirim so'ramoq - عذر - عثر - qoqilmoq

oppozitsiyasiga misollar: ز-س-

qo'shib to'qimoq - زجل - سجل - yozib qo'yimoq

chetlashmoq - عزل - عسل - asal qo'shmoq

kitobcha - كراس - كراز - ko'zalar

oppozitsiyasiga misollar: غ-ق-

laqillatmoq - غر?? - قر - o'rnashmoq

qiynovchi - باغ - باق - qoluvchi

hachir - بغل - بقل - ko'kat

- Sonorlik oppozitsiyasi ب bilan م, د bilan ن, ك bilan ي orasida bor.

oppozitsiyaga misollar: م-ب-

cho'zmoq - مد - بد - uzoqlashtirmoq

maqtamoq - مدح - بدح - urmoq

yuklash - حمل - حبل - arqon

oppozitsiyasiga misollar: ن-د-

kishilar - نسّم - دسم - yoq

zorlanmoq - حن - حد - o'tkir qilmoq

hom qisht - لبن - لبد - kigiz

oppozitsiyasiga misollar: ي-ك-

noumidlik - يأس - كأس - kosasimon idish

sindirib tashlash - كسر      yengillashtirmoq - يسر

artmoq- حك      yashamoq - حي

-ر va ل larning shovqinli juftlari yo'q. ular o'zlari bir-biri bilan qiltiroqlikda oppozitsiya hosil qiladi.

-ر-ل oppozitsiyaga misollar:

singimoq - تغلغل      tomoqni chayib olmoq - تغرغر      qulflamoq - أغلق

cho'ktirmoq - أغرق

ustun kelmoq - غلب      botmoq (quyosh haqida) - غرب

Demak, arab tili koseantizmida hamma tillar uchun umumiy bo'lgan oppozitsiyalar bilan birga arab tilining o'zidagina ko'p uchraydigan va arab tilining o'ziga hos bo'lgan oppozitsiyalar ham mavjud.

## SAVOLLAR

1. Bo'qin-fonema nima?
2. Grande nazariyasi to'qrimi? Nima uchun?
3. Arab tilida fonologik oppozitsiya qanday tovushlar orasida mavjud?
4. Arab tilida eksplozivlik (portlash-sirqalish) oppozitsiyasi mavjudmi?
5. Jarangli-jarangsizlik oppozitsiyasi-chi?

## TAYANCh IBORALAR

1. Bo'qin-fonema.
2. Somiy tillar.
3. Somiyshunoslik.
4. Interdentallik.
5. Tovushlar oppozitsiyasi.
6. Emfatiklik oppozitsiyasi.
7. Eksplozivlik oppozitsiyasi.
8. Tarqalish doirasi.
9. Jarangli-jarangsizlik oppozitsiyasi.

## ADABIYOTLAR

1. Grande B.M. Slogofonema v semitskih yaz'kah. Semitskie yaz'ki, V'p.2, Moskva, 1965,
2. Vilenchik YA.S., Arabskie gortann'e, ZIV, T.5, 1930, str.35-40.

## TOVUSHLARNING O'ZARO TA'SIRI. TO'LIJ VA JUZ'IY

## ASSIMILYASIYA

### REJA

1. Tovush o'zgarishi haqida.
2. To'liq assimilyatsiya.
3. Juz'iy assimilyatsiya.
4. Regressiv assimilyatsiya.
5. Kontakt va distakt assismilyatsiya.

Tildagi tovushlar, jumladan, undosh tovushlar turli o'zgarishlarga uchrashi mumkin. Eng ko'p uchraydigan tovush o'zgarishi assimilyatsiyadir. Assimilyatsiya to'liq va to'liqsiz bo'lishi mumkin.

To'liq assimilyatsiya bir tovush ikkinchi tovushga ta'sir qilib uni aynan o'ziga o'hshatib qo'yishidir. Masalan, arab tilida *l* tovushi *n* ning ta'sirida *n* ga, *s* ning ta'sirida *s* ga aylanadi.

To'liqsiz assisilyatsiyada esa bir tovush ikkinchi tovushga ta'sir qilib, uni biror jihatdangina o'ziga o'hshatadi. Masalan, arab tilida itboq *s* itboq bo'lmagan *t* ga ta'sir qilib, uni itboq *t* ga aylantirishi mumkin. Bunda assimilyatsiya faqat itboqlik jihatdan bo'ladi.

YAna assimilyatsiya progressiv va regressiv bo'lishi mumkin. Agar oldindagi tovush keyingi tovushga ta'sir qilsa, uni progressiv assimilyatsiya deb ataydilar. Agar keyingi tovush oldingi tovushga ta'sir qilsa, u regressiv assimilyatsiya deyiladi.

Assimilyatsiya kontakt va distakt bo'lishi mumkin. Agar bir-biriga ta'sir qiluvchi tovushlar yonma-yon bo'lsa, uni kontakt assimilyatsiya, agar ularning orasida boshqa tovush bo'lsa, distakt assimilyatsiya deb ataladi.

Arab tilida asosan kontakt regressiv assimilyatsiyaning to'liq va to'liqsiz turlari uchraydi. Aniqlik artikli *al* ning *l* si (الـخروف الشمسية) deb atalgan tiloldi undoshlari oldida kelganda to'liq regressiv assimilyatsiyaga uchraydi:

التعب	<i>at-ta'abu</i> (charchash)
الثعلب	<i>at-ta'labu</i> (tulki)
الدخول	<i>ad-duhu:lu</i> (kirish)
الذهب	<i>at-tahabu</i> (oltin)
	<i>ar-ra'su</i> (bosh)
الرأس	<i>az-zaitu</i> (moy, yoq)
الزيت	<i>as-sama:'u</i> (osmon)
السماء	<i>as-sarafu</i> (sharaf)
الشرف	<i>as-sabru</i> (chidam)
الصبر	<i>ad-darbu</i> (urish)
الضرب	<i>at-ta:libu</i> (tolib)
الطالب	<i>az-za:limu</i> (zolim)
	<i>an-naqdu</i> (pul)
الظالم	
النقد	

YAna ko'makchilardan *n* tovushi ham to'liq regressiv assimilyatsiyaga uchraydi:

إن+لا=إلا	<i>illa</i> (yo'qsa)
من+ما=مما	<i>mimma</i> (nimadandir)
أن+لا=ألا	<i>alla</i> (-ki, yo'q)

To'liqsiz progressiv assimilyatsiya arab tilida itboqlik jihatdan bo'lishi mumkin, sakkizinchi bobning infeksi *t* ga aylanadi. Masalan, اصطلاح o'zagidan اصلاح emas, اصطلاح bo'ladi; اضطرار o'zagidan اضطرار emas, اضطرار bo'ladi va hokazo.

Fonetik hodisalardan yana biri o'tish hodisasi bo'lib, bu bir tovushning ikkinchi tovushga aylanishidir. Boshqa tillardagi kabi arab tilida ham o'zlashma so'zlar bor. Ma'lumki bir tilning o'ziga hos fonemalari boshqa tilga o'zlashma so'zlar tarkibida o'tganda ular o'zlashtiruvchi tilning fonetik qonunlariga bo'ysunadi. Arab tiliga hos bo'lmagan fonemalar quyidagi o'zgarishlarga uchraydi:

*p* fonemasi arab tilida ب yoki ف ga o'tadi:

Papa (diniy unvon) - بابا Po'lat - فولاذ

Panama - باناما

*v* fonemasi arab tilida ف ga o'tadi:

viza - فيزا Vatikan - فاتيكان vazelin - فازلين

*g* fonemasi ج yoki غ ga o'tadi:

gavhar - جوهر Go'rgon - جرجان gaz - غاز

Demak, arab tilining tovush o'zgarishi doirasida o'ziga hos hususiyatlari, birinchidan, ba'zi hususitlarning arab tilida borligi va ikkinchidan, ba'zi hususiyatlarning unda yo'qligi bilan belgilanadi.

## SAVOLLAR

1. Assimilyatsiya nima?
2. To'liq assimilyatsiya nima?
3. Assimilyatsiyaning yana qanday turlarini bilasiz?
4. Arab tilida asosan qanday assimilyatsiya uchraydi?
5. Aniqlik artikli qo'shilgan so'zlarda qanday assimilyatsiya sodir bo'ladi?

## TAYANCh IBORALAR

1. Tovush o'zgarishi.
2. Assimilyatsiya.
3. To'liq
4. Juz'iy.
5. Regressiv.
6. Progressiv.
7. Kontakt.
8. Distakt.

## ADABIYOTLAR

1. Kovalev A.A., Sharbatov G.Sh., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1998, 31, 32, 36.
2. Holidov B.Z., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1977, str. 51-55.
3. Ibrohimov N., Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1997, 8, 19-24 b.
4. Talabov E., Arab tili darsligi, Toshkent, 1993, 55.
5. Gabuchyan G.M. Teoriya artiklya i problem' arabskogo sintaksisa, Moskva, 1972, str.220

## **ARAB TILIDA URU'U . GAPNING MAZMUNIGA KO'RA OO'ANG HUSUSIYATLARI.**

1. Asosiy urqu.
2. Ikkinchi darajali urqu.
3. Urquning ko'chishi.

O'zbek tilidagidan farqli ravishda, arab tilida urquli bo'qin kuchli va ancha yuqori ovozda talaffuz qilinadi. Urquning o'rni, sifati hammavaqt bo'qinning turi va soniga boqliq bo'ladi.

Arab tilida ur±ular asosiy va ikkinchi darajali bo'ladi. Asosiy urquli bo'qin ovozning yuqoriligi bilan ajralib turadi - u alohida kuch bilan, boshqa bo'qinlardan ajralib talaffuz qilinadi. Ikkinchi darajali urqu tushgan bo'qin asosiy urqulidan bir oz sust, biroq urqusizlardan birmuncha kuchli aytiladi. o'lar bir so'zda bir asosiy va bir yoki ikkita ikkinchi darajali urquli bo'qinlar bo'ladi.

Asosiy urqu hech qachon so'z ohiriga tushmaydi. Agar so'z ohiridan ikkinchi bo'qin cho'ziq bo'lsa, asosiy urqu o'shanga tushadi:

mak-tu:-bun, da-ras-tum

So'z ohiridan ikkinchi bo'qin qisqa bo'lsa, urqu undan oldingi uchinchi bo'qinga tushadi:

mak-ta-bun, ma-sha:ki-lu

Ikki bo'qinli so'zlarda urqu, hoh cho'ziq, hoh qisqa bo'lsin, birinchi bo'qinga tushadi:

qul-tu, na:-la, ya-dun

1000 kecha - ألف ليلة

1000 kechada - في ألف ليلة

2. 200 va 2000 kabi yahlit sonlar ham shu tahlit yasaladi. Faqat bu sonlarning ikkilik shakli olinadi. Mas:

200 oqshom - مائتا مساء

2000 kecha - ألفا ليلة

2000 kechada - في ألفي ليلة

3. 1000 gacha bo'lgan yuzliklarda yuz so'ziga sanalmish ot sifatida qaraladi, lekin u birlikda keladi. Sanalmish ot bilan esa izofa zanjiri hosil qilinadi. Mas:

300 - ثلاثمائة yoki ثلاث مائة

500 - خمسمائة yoki خمس مائة

300 ta studentdan - من ثلاثمئة طالب

4. Yahlit sonlardan keyin 1 yoki 2 soni qo'shilsa u quyidagicha bo'ladi:

502 ta qalam - خمسمئة قلم و قلمان

1001 kecha. - ألف ليلة و ليلة

1. Son necha hil bo'ladi?
2. 1-10 gacha bo'lgan sanoq sonlar sanalmish bilan qanday moslashadi?
3. 21-99 gacha bo'lgan sanoq sonlarning sanalmish bilan moslashuvi qanday bo'ladi?
4. «Bir necha» so'zi qanday beriladi?

## TAYANCh IBORALAR

1. Son
2. Sanalmish
3. Moslashuv
4. Izofa shakli
5. Bir necha
6. Ko'makchi

## ADABIYOTLAR

1. Ibrohimov. N.I. «Arab tili grammatikasi» T. 1997.
2. Kovolev. Sharbatov «Uchebnik arabskogo yaz'ka» M., 1998.
3. Holidov B.Z. «Uchebnik arabskogo yaz'ka» T., 1991.
4. Talabov E.T. «Arab tili darsligi» T. 1995.

### 5.1-5.2. OTLARDA JINS KATEGORIYASI

#### REJA

1. Muzakkar jins haqida.
2. Muannas jins haqida

Arab tilida otlar ikki jinsga muzakkar va muannasga ajraladi. Muannas jinsning grammatik belgisi so'z ohiridagi -atun, -atu qo'shimchadir. U yozuvda ة (ta-marbuta) harfi bilan ifodalaniladi.

مكتبة -kutubhona      المدينة -shahar      غرفة -hona

القرية - qishloq.

Shuningdek, اء au qo'shimchasi bilan tugagan hamda اى (a) qo'shimchasi

bilan tugagan soʻzlar, agar, **ى** (a) harfi oʻzak tarkibiga kirmasa muannas soʻz hisoblanadi. Masalan:

صَحْرَاءُ -sahro, بُشْرَى - esdalik, حُبْلَى - oqiroyoq.

Arab tilida yana shunday soʻzlar mavjudki ularning belgisi grammatik belgiga ega emas, shu soʻzning mazmuniga qarab belgilanadi.

1. **ة** ta marbuta harfi bilan tugagan soʻz erkak zotini bildirsa yoki erkak kishiga qoʻyilgan ism boʻlsa, bu soʻz muzakkr soʻz hisoblanadi.

Masalan:

خَلِيفَةٌ -halifa                      قِتَادَةٌ -Jatoda

حَمْرَةٌ -hamza                      طَلْحَةُ -Talha

2. Muannaslik grammatik belgisi boʻlmagan quyidagi soʻzlar muannas hisoblanadi. a) ayol kishini va ayollarni ismini bildiruvchi soʻzlar. **أُمُّ** -ona, عَرُوسٌ - kelinchak, زَيْنَبُ -Zaynab, **بِنْتُ** -qiz.

b) tanadagi juft aʼzolarni bildiruvchi soʻzlar.

كَوْنٌ -koʻz, يَدٌ -qoʻl, أذنٌ -quloq, رَجُلٌ -oyoq

v) aniqlik artiklni olmagan va tanvin qoʻshimchasi bilan tugamaydigan geografik nomlar.

مِصْرٌ -Misr                      بَغْدَادٌ -Baqdod

بَصْرَةٌ -Basra,                      طَرَابُلُوسٌ -Tripoli

g) shamol, olov, urush, quyosh kabi soʻzlar.

Masalan:

سَمُومٌ                      حَرْبٌ                      نَارٌ                      شَمْسٌ

3. Bundan tashqari **ة** bilan tugamagan ayrim otlar har ikkala jinsda ham ishlatilishi mumkin.

Masalan:

فَرَسٌ - ot                      كَبِدٌ - jigar                      فَوْسٌ - yoy

## SAVOLLAR

1. Muzakkar jins nima?
2. Muannas jinsning qushimchalari qaysilar?
3. Ikki jinsda ham ishlatiluvchi ismlar ham bormi?

## TAYANCh IBORALAR

1. Muzakkar jins
2. Muannas jins
3. ta marbuta
4. Ikki jinsga oid ismlar

## ADABIYOTLAR

1. Ibrohimov. N.I. «Arab tili grammatikasi» T. 1997.
2. Kovolev. Sharbatov «Uchebnik arabskogo yaz'ka» M., 1998.
3. Holidov B.Z. «Uchebnik arabskogo yaz'ka» T., 1991.
4. Talabov E.T. «Arab tili darsligi» T. 1995.

### 5.3. KELISHIK KATEGORIYASI.

#### REJA

1. Arab tilida kelishik.
2. Ismlarning kelishikda turlanishi.

Arab tilida ism guruhiga, kiruvchi so'zlarning 3 ta kelishigi mavjud: Bosh, qaratqich, tushum kelishiklar. Bu kelishiklar o'ziga hos qo'shimchalarga ega.

Bosh	Jaratqich	Tushum
كِتَابٌ	كِتَابٍ	كِتَابًا
الْكِتَابُ	الْكِتَابِ	الْكِتَابَ

الطاولةُ	الطاولةِ	الطاولةَ
----------	----------	----------

Shu yo'sinda turlanuvchi so'zlar 3 kelishikli deyiladi.  
Bular noaniq holatda kelganda tanvin bilan tugaydigan birlik va siniq ko'plikdagi so'zlar.

### *Ikkilik va to'qri ko'plikdagi ismlarni turlanishi.*

Ikkilik sondagi so'zning qaratqich va tushum kelishiklari bir-hil qo'shimchalarga ega.

To'qri ko'plikdagi so'zlarning kelishiklarda turlanishi quyidagicha.

B.k. - فلاحاتٌ فلاحونَ

J.T.k. - فلاحاتٍ فلاحينَ

Ko'rsatish olmoshlari aslida kelishikda turlanmaydi, lekin ularning ikkilikdagi variantlari qaratqich va tushum kelishiklarida boshqacha bo'ladi.

*YAqindagi*

*Uzoqdagi*

B.k. هاتانِ , هذانِ

ذَيْنِكَ , ذَانِكَ

J.k. هاتَيْنِ , هذَيْنِ

تَيْنِكَ , ذَيْنِكَ

## **5.4. SON KATEGORIYASI.**

REJA

1. Birlik
2. Ikkilik
3. Ko'plik

Ma'lumki, ismlardan 2 turdagi ko'plik soni yasaladi: 1. To'qri ko'plik. 2. Siniq ko'plik.

Siniq ko'plik yasashning juda ko'p turlari mavjud. Ba'zi so'zlardan barovariga bir necha variantlarda siniq, ko'plik hosil qilish ham mumkin. Birlikdagi so'zlar siniq ko'plikka aylanayotganda aniq bir formaga tushmaydi. Uni lu±at orqali yodlab qolish bilan o'zlashtiriladi. Siniq ko'plik hosil qilish yo'llari quyidagicha:

1. فَعْلًا qolipidan فَعْلٌ varianti orqali hosil qiladi.

2. فَعْلًا - أَفْعَلٌ qolipidagi rang, jismoniy kamchiliklarni bildiradigan hamda فَعْلٌ

qolipidagi otlardan فُعْلٌ formasi orqali ko'plik yasaladi.

Masalan:

أَحْمَرٌ - حَمْرٌ      أَسْوَدٌ - سُودٌ  
أَسَدٌ - أَسْدٌ

فُعْلَةٌ ba'zan فُعْلَةٌ qoliplaridagi so'zlardan فُعْلٌ formasi orqali ko'plik yasaladi.

Masalan:

تُحْفَةٌ - تُحِفٌ      دَوْلَةٌ - دَوْلٌ

Shuningdek فُعْلٌ ، فَعْلٌ ، فُعَيْلٌ ، فِعَالٌ ، فُعَلٌ ، فُعُولٌ ، أَفْعَالٌ ، فَعْلَةٌ ، فَوَاعِلٌ ، فَعَائِلٌ variantlarida ham siniq ko'plik hosil qilinadi.

Masalan:

سَاحِلٌ - سَوَاحِلٌ      سُؤَالٌ - أَسْئَلَةٌ      وَزِيرٌ - وَزَرَاءٌ

Bundan tashqari 4 o'zakli fe'llarga yana alohida variantlar beriladi. Yuqorida keltirganimizdek, bu formadan bu forma keladi deb yodlagandan, so'zning o'zi va ko'pligini yodlab qolish osonroq.

Siniq ko'plikdagi tanvinsiz \_\_\_ُ damma bilan tugasa 2 kelishikli hisoblanadi.

جَرَائِدٌ B.k.      جَرَائِدٌ J.T.k.

Faqatgina izofaning bir bo'lagi va ال olsa 3 kelishikliga aylanadi:

الجرائدُ - B.k.      الجرائدُ - T.k.      الجرائدُ - J.k.

Siniq ko'plikning qolgan formalari turlanmaydi.

Moslashuvda siniq ko'plik umumiy qoidaga bo'ysinadi. YA'ni aniqlanmish bilan aniqlovchi to'liq moslashadi.

Masalan:

الرجالُ العقلاءُ

Aniqlanmish qayri oqil bo'lsa, aniqlovchisi odatdagidek muannas birlikda beriladi.

Masalan:

البيوتُ الجديدةُ

Aniqlovchi vazifasida ko'rsatish olmoshlari kelganida hali yuqoridagi qoida to'liq saqlanadi.

هذه البيوتُ

هؤلاءِ الرجالُ

#### SAVOLLAR

1. Ismlardan necha hil ko'plik yasaladi?
2. Necha hil siniq ko'plik yasash yo'lini bilasiz?
3. Barcha siniq ko'plikdagi ismlar 3 kelishiklimi?
4. Siniq ko'plik vaznlarini sanang?

#### TAYANCh IBORALAR

1. To'qri ko'plik
2. Siniq ko'plik
3. Jolip
4. Ikki kelishikli
5. Tanvinsiz damma
6. Turlanmaslik

#### ADABIYOTLAR

1. Ibrohimov. N.I. «Arab tili grammatikasi» T. 1997.
2. Kovolev. Sharbatov «Uchebnik arabskogo yaz'ka» M., 1998.
3. Holidov B.Z. «Uchebnik arabskogo yaz'ka» T., 1991.
4. Talabov E.T. «Arab tili darsligi» T. 1995.

## 5.5. FE'LDAN YASALUVCHI ISMLAR: MASDAR, SIFATDOSHLAR, ASBOB NOMI, O'RIN PAYT NOMI, KASB-KOR NOMI

### *Sifatdoshlar*

#### REJA

1. Sifatdoshlar haqida ma'lumot.
2. Sifatdoshlarning turlari.
3. Aniq daraja sifatdoshlari.
4. Mahul daraja sifatdoshlari.
5. Sifatdoshlarning gapdagi vazifasi.
6. O'osila boblarida sifatdoshlar.

Sifatdoshlar arab tilida fe'ldan hosil bo'lgan va o'zida ham fe'llik, ham sifatlik hususiyatlarni mujassamlashtirilgan so'zlardir. Arab tilidagi sifatdoshlarning o'zbek tilidagidan farqi shuki, o'zbek tilida ular zamonga qarab o'zgarsa (borgan, borayotgan) arab tilida barcha zamonlar uchun bir hil shaklga ega.

Sifatdoshlar ikki hil bo'ladi:

1. Aniq nisbat sifatdoshlari. Bular 1 bob fe'lidan فَاعِلٌ qolipida hosil bo'ladi va fe'ldan anglashilgan ish-harakatning bajaruvchisini (sub'ektini) bildiradi.

Masalan: دَاخِلٌ - دَخَلَ - kiruvchi. شَرِبَ - شَارِبٌ - ichuvchi

Bu so'zlar ism toifasidagi boshqa so'zlar kabi ال artiklini olishi, jinsda va sonda hamda kelishikda turlanishi mumkin.

Masalan: الداخِلون - الداخِلان - الداخِلُ

الداخِلاتُ - الداخِلتان - الداخِلَةُ

2. Majhul daraja sifatdoshlari. Bular 1 bob fe'lidan مَفْعُولٌ vazniida hosil bo'ladi, hamda fe'l ifodalangan ish-harakat ob'ekti bo'lgan predmetni yoki ish-harakat natijasida hosil bo'lgan natijani (ish-harakat natijasini) bildiradi.

مَفْتُوحٌ - فَتَحَ - ochilgan.

مَشْرُوبٌ - شَرِبَ - ichilgan.

مَقْتُولٌ - قَتَلَ - o'ldirilgan

Bular ham aniq daraja sifatdoshlari kabi ismlarga hos umumiy hususiyatlarga ega.

Agar majhul daraja sifatdoshi o'zidan keyin u yoki bu predlogni talab qiladigan fe'ldan yasalgan bo'lsa, u jinsda va sonda o'zgarmasdan har doim muzakkar birlikda ishlatiladi. Jins va sonda esa sifatdoshdan keyin keluvchi predlogga qo'shib kelgan olmosh moslashadi.

عَظِيبٌ عَلَى - عَاضِبٌ عَلَيْهِ - غَاضِبٌ عَلَيْهَا

Aniq va majhul daraja sifatdoshlar gapda turli vazifalarni bajaradi:

1. Ular masdar kabi otlashishi va gapda ot bajaradigan vazifani bajarishi mumkin:  
Masalan:

عَالِمٌ - biluvchi - عَالِمٌ - olim.

2. Sifatdoshlar ko'pmncha gapda moslashgan aniqlovchi vazifasida keladi.  
Masalan:

عَالِمٌ مَشْهُورٌ - mashhur olim

3. Gapning kesimi vazifasini bajaradi va bunda nutq so'zlashib tugan paytda amalga oshayotgan ish-harakatni ifodalaydi.

أَنَا ذَاهِبٌ

O'osila boblarida aniq va majhul daraja sifatdoshlari hozirgi kelasi zamon - aniq va majhul daraja fe'llari oldidagi qo'shimchasini olib, o'rniga مُم qo'shimchasini qo'shish va ohirgi o'zakni tanvinlash yo'li bilan yasaladi.  
Aniq va majhul daraja sifatdoshlari.

boblar	Aniq daraja sifatdoshlari	Majhul daraja sifatdoshlari
I	فَاعِلٌ	مَفْعُولٌ
II	مُفَعَّلٌ	مُفَعَّلٌ
III	مُفَاعِلٌ	مُفَاعِلٌ

IV	مُفْعِلٌ	مُفْعَلٌ
V	مُتَّفَعِلٌ	مُتَّفَعَلٌ
VI	مُتَّفَاعِلٌ	مُتَّفَاعَلٌ
VII	مُنْفَعِلٌ	مُنْفَعَلٌ
VIII	مُفْتَعِلٌ	مُفْتَعَلٌ
IX	مُفْعَلٌ	مُفْعَلٌ
X	مُسْتَفْعِلٌ	مُسْتَفْعَلٌ

### *Makon va zamon nomlari*

Makon va zamon nomlari ish-harakat sodir bo'ladigan joyga va vaqtga ishora qiladi. Bunday ismlar 1 bob, hozirgi kelasi zamon vaznidagi يا old qo'shimchasining o'rniga م va ohirgi harkat bo'lgan dammaning o'rniga tanvin damma qo'yish orqali yasaladi.

Bunda ikkinchi o'zak harfning harakati fatha va kasra bilan ifodalangan bo'lsa, ismlar yasalganda ular o'z harakatini saqlab qoladi, agar o'rta o'zak damma bilan harakatlangan bo'lsa, unda u o'zining harakatini fathva yoki kasraga aylantiradi. Shunday qilib zamon va makon nomlari مَفْعَلٌ (maf-alun) va مَفْعِلٌ (maf-ilun) vaznlarida yaasaladi.

Masalan:

مَفْعَلٌ - qolipidagi

مَفْعَلٌ - qolipidagi

مدخلٌ - دخل

مجلسٌ - جلس

مطبخٌ - طبخ

منزلٌ - نزل

Shuningdek makon nom-belgilangan muddat, paytlari yana مَفْعَلَةٌ vaznida ham yasalishi mumkin.

Masalan:

درسٌ - مدرسةٌ

كتبٌ - مكتبةٌ

طبعٌ - مطبعةٌ

حكمٌ - محكمةٌ

Ba'zi hollarda ismul makon majhul daraja sifatdosh formasida ham hosil qilinadi.

Masalan:

مُسْتَفْعَلٌ - مُسْتَوْدِعٌ

Barcha makon va zamon otlari uchun bir ko'plik qolipi mavjud.  
Masalan:

مَوْقِفٌ - مَوَاقِفُ      مَخْرَجٌ - مَخَارِجُ

### *Ish qurollarning nomlari*

Ish-harakatni amalga oshirish vositasini bildiruvchi otlar qurol otlari deyiladi. Ish qurollarining nomlar ko'pincha 1 bobdagi o'timli fe'llardan مِفْعَلَةٌ ، مِفْعَالٌ ، مِفْعَلٌ vaznlarida hosil bo'ladi.

1.      بَرَدٌ - مِبْرَدٌ  
         نَجَلٌ - مِنجَلٌ
2.      كَنَسٌ - مِكنَسَةٌ  
         طَرَقٌ - مِطْرَقَةٌ
3.      فَتَحٌ - مِفْتَاخٌ

Bundan boshqa vaznlarda ham bunday ismlarni yasash mumkin.  
Masalan:

زِمَامٌ              فَأْسٌ

Zamonaviy arab tilida yuqoridagi vaznlardan tashqari yana فَعَالَةٌ vaznida ham bunday ismlar hosil qilinmoqda.

Masalan:

جَرَارَةٌ      ثَلَاجَةٌ      دَبَابَةٌ

### *Masdarlar*

Arab tilida harakat nomi *masdarlar* deyiladi va fe'ldagi ma'noni shahs va sondan, zmondan va jinsdan holi holda ifodalaydi. U o'zbek tilidagi «o'qish», «yozish», «yigiruv», «to'quv» kabi shakllarga mos keladi.

Harakat nomi arab tilida ma'lum vaznga ega:

فُعُولٌ - خُرُوجٌ - خَرَجَ

فَعْلٌ - ضَرَبَ - ضَرَبَ

O'ar bir bob fe'lining o'ziga hos masdar vaznlari mavjud. Bular ichida eng murakkabi 1 bob fe'lidir. Chunki 1 bobdagi har bir fe'ldan masdar o'ziga hos vaznda yasaladi.

### 1 bobdagi eng ko'p qo'llaniluvchi masdar qoliplari

Masdar-lar	Fe'llar va ularning masdarlari
1	فُعُولٌ ، فِعَالٌ ، فَعْلٌ ، فِعْلٌ ، فُعْلٌ ، فَعْلٌ
2	فِعْلَةٌ ، فَعْلَةٌ ، فَعِيلٌ ، فَعُولٌ ، فُعُولٌ

Bulardan tashqari yana مَ old qo'shimchasi orqali yasaladigan masdarlar ham mavjuddir. Bunday masdarlarning quyidagi shakllari ishlatiladi:

Vaznlar	Masdarlar
مَفْعَلٌ	مَدْحَلٌ
مَفْعَلَةٌ	مَرْحَمَةٌ

Ayrim hollarda 1 bob fe'llarning ba'zilaridan bittadan ortiq masdar yasalishi ham mumkin.

O'osila boblaridan masdarlar ma'lum qoliplar asosida hosil qilinadi:

Boblar	Joliplar	Misollar
1	40 dan ortiq	شُكْرٌ ، عِلْمٌ ، نَصْرٌ
2	تَفْعِيلٌ ، تَفْعِلَةٌ	تَعْلِيمٌ ، تَجْرِيَةٌ
3	فِعَالٌ ، مُفَاعَلَةٌ	سِبَاقٌ ، مُسَابَقَةٌ
4	إِفْعَالٌ	إِعْلَامٌ
5	تَفَعُّلٌ	تَعَلُّمٌ
6	تَفَاعُلٌ	تَبَادُلٌ
7	إِنْفِعَالٌ	إِنْقِلَابٌ

8	إِفْتِعَالٌ	إِجْتِمَاعٌ
9	إِفْعَالٌ	إِحْمِرَاءٌ
10	إِسْتِفْعَالٌ	اسْتِفْعَالٌ

1 bob fe'llarining masdarlari turli hildagi qoliplarga egaligi va ularni yodda saqlab qolish qiyinligi tufayli zamonaviy luqatlarda har bir 1 bob fe'lidan keyin o'sha fe'lning masdari yozib qo'yiladigan bo'ladi.

### To'rt o'zakli fe'llarning masdarlari

Boblar	Joliplar	Misollar
1	فَعْلَلَةٌ	دَحْرَجَةٌ
2	فَعْلَالٌ	دِحْرَاجٌ
3	تَفَعُّلٌ	تَدْحُرْجٌ
4	إِفْعَالٌ	إِضْمِحَالٌ

Masdarlar fe'ldan yasalgani bilan grammatik hususiyatlarga ko'ra otga ko'proq o'hshab ketadi. U tanvin qo'shimchasini qabul qiladi. Ot kabi ikkilik soniga ega va otlar kabi kelishiklarda turlanadi.

Shu bilan birga masdarlarning fe'llik hususiyati ham yo'q emas. Masdar hosil bo'lgan fe'l qaysi predlogni talab qilsa, masdar ham to'ldiruvchi yoki holni o'sha predlog yordamida boshqaradi.

Masalan:

العَاقِلُ يَعْتَمِدُ عَلَى عَمَلِهِ

Agar fe'l o'zidan keyingi otni tushum kelishigi yordamida boshqarsa, shu fe'lning masdari o'sha ot bilan izofa hosil qiladi.

Masalan:

إِنْتِقَالُ الْعَمَالِ

Barcha tillarda bo'lgani kabi arab tilida ham ko'pchilik so'zlar, shu jumladan masdarlar ham otlashadi. Bu *substantivatsiya* deb yuritiladi.

Masalan:

قَتَلَ الْخَلِيفَةُ جَعْفَرًا

Bular otga aylangandan keyin otlar qanday hususiyatga ega bo'lsa, ular ham shunday hususiyatlarni qabul qiladilar-ko'plik shakliga ega bo'ladilar.

Eng muhimi shundaki, ular masdar kabi «nima qilish» savoliga emas «nima»

savoliga javob bo'lib keladi.

## MAVZU YuZASIDAN SAVOLLAR VA TEST TOPSHIRIHLARI

1. Sifatlar deb nimaga aytiladi?
2. Arab tilida nechta sifat darajalari bor.
3. Jiyosiy daraja qanday vaznda yasaladi?
4. Orttirma daraja necha hil bo'ladi?
5. Mutloq orttirma daraja sifatlanmish bilan qanday moslashadi? Misollar keltiring.
6. Jiyosiy orttirma daraja sifatlanmish qaysi kelishikda keladi? Misollar keltiring.
7. Jaysi so'zlar bilan sifat darajasi sintaktik yo'l bilan solishtiriladi?
8. Cheklov deb nimaga aytiladi? Uning kesimga qanday aloqadorligi bor?
9. Sanoq sonlardan keyin ham cheklov qo'yiladimi?
10. Makon va zamon nomlari qanday vaznlarda yasalaladi? Ularning ko'plik formasi qanday?
11. Ish quollarini nomlari qanday vaznlarda yasaladi? Zamonaviy ish quollari nomlari-chi? Misollar keltiring.
12. Cheklov, makon va zamon, ish quollarining nomlari nimadan yasalaladi?

## TEST SAVOLLARI

1. Orttirma daraja qanday so'zlardan yasaladi?
  - a) fe'llarning masdarlaridan
  - b) arab tilida mavjud bo'lgan jamiki sifatlardan.
  - v) fe'l o'zaklaridan yasalgan sifatlardan
  - g) rang yoki jismoniy kamchilikni ifodalagan qolipdagi sifatlardan
2. Orttirma darajadagi sifatdan keyin kelgan so'z qanday holatda bo'ladi?
  - a) birlikda, muzakkar, bosh kelishikda.
  - b) noaniq holatda, ikkilikda, tushum kelishigida
  - v) مِنْ bilan ko'pincha, qaratqich kelishigida
  - g) مِنْ siz qaratqich kelishigida va faqat birlikda.
  - d) «V» va «A» punktlaridagi javoblar to'qri berilgan.
3. Orttirma darajadagi sifat gapda qanday vazifani bajarib kelishi mumkin?
  - a) ega, kesim va ba'zan moslashgan aniqlovchi
  - b) kesim, holat holi.
  - v) faqat aniqlovchi bo'lib keladi.
  - g) ega, kesim, aniqlovchi va holat holi.

4. «Dunyodagi eng go'zal ayol» jumlasini to'qri variantini toping.  
a)  
b)  
v)  
g)
5. Jaysi qatorda sifatlarning orttirma darajasi formasi yasaladi.  
a)  
b)  
v)  
g)  
d) to'qri javob berilmagan.
6. «Abdulla Oripov O'zbekistonning eng mashhur shoirlaridan» jumlasining to'qri tarjimasini toping.  
a)  
b)  
v)  
g)
7. Jaysi jumlada ..... ga oid to'qri misol berilgan?  
a)  
b)  
s)  
d)
8. Ismi makon va zamon qanday vaznlarda yasaladi?  
a)  
b)  
s)  
d)
9. Ismi zamon va makon otlari fe'l boblaridan ham yasalishi mumkinmi?  
a) yo'q mumkin emas.  
b) istisno tariqasida mumkin.  
v) ha, faqat 5 bobda  
g) mumkin
10. Zamonaviy arab adabiy tilida ish qurolnomalari qanday vaznda yasaladi?  
a)                      b)                      s)                      d)

## SAVOLLAR

1. Sifatdoshlar nima?

2. Sifatdoshlarning turlari.
3. Aniq daraja sifatdoshlari.
4. Sifatdoshlarning gapdagi vazifasi.
5. O'sosila boblarida sifatdoshlar.

#### TAYANCh IBORALAR

1. Sifatdosh.
2. Aniq daraja sifatdosh.
3. Majhul daraja sifatdosh.
4. Hosila boblarida sifatdoshlar.
5. Aniqllovchi.

#### ADABIYOTLAR

1. Arab tili grammatikasi. Ibrohimov N. Yusupov M. T-97y. 384-386 betlar.
2. Arab tili. Talabov E. Toshkent 1997 y. 384-352 betlar.

#### 6.1.-6.6. FE'L

##### REJA

1. Fe'l haqida umumiy ma'lumot
2. Fe'l zamonlari haqida.
3. Uch o'zakli fe'llarning o'tgan zamoni
4. O'tgan zamon fe'li haqida
5. I bob fe'llarining tuslanishi.

Arab tilidagi fe'llarning infinitiv (noaniq) shakli yo'q. Shuning uchun Yevropa va rus tillaridagi darsliklarda va luqatlarda shartli infinitiv shaklida fe'lning 3-shahs, muzakkar, birlikdagi shakli beriladi.

Masalan: كَتَبَ ، فَرِحَ ، كَبِرَ

Uch o'zakli fe'llarning 1 bobi فَعَلَ vaznida bo'ladi.

Masalan: فَعَلَ ، فَعِلَ ، فَعُلَ

Shu bob fe'llarining 80 foizi mana shu vaznda bo'ladi. Bundan tashqari فَعِلَ ، فَعُلَ

vaznidagi fe'llar ham bor.

Masalan: فرح ، كبر

فَعَلَ vaznidagi fe'llarning ba'zisi o'timli, ba'zilari o'timsiz bo'ladi. Ammo فَعَلَ vaznidagi fe'llar doimo o'timsiz bo'ladi.

Masalan: كَبُرَ

Ba'zi o'timsiz fe'llar predloglar yordamida 2- va 4- boblarda o'timli bo'ladi.

Masalan: ذَهَبَ - ذَهَبَ بِ - «ketmoq»-o'timsiz, «olib ketmoq»-o'timli.

Uning ta'rifi shunday:

O'tgan zamon fe'li bir ish-harakatning o'tgan zamonda bajarib bo'linganligiga dalolatdir. Uning ajratib turadigan alomati birorta harakatli va sukunli muannas ت - sini qabul qilishidir. Masalan: كَتَبْتُ

Bu ت larni «تاء الفاعل» - «bajaruvchi ت» deb ataladi. Muannas ت sini sukunli bo'lsin deb shart qilinishiga sabab shuki, harakatli muannas ت ham ت kabi. Ammo bu ت fe'lining alomati emas.

O'tgan zamon fe'lini inkor qilish uchun ما inkor yuklamasi ishlatiladi.

Masalan: ما كتب . Unga kirgan ما yuklamasi ish-harakatning allaqachon bajarib bo'linganligini bildiradi.

## SAVOLLAR:

1. Fe'llar deb nimaga aytiladi?
2. Fe'lining nechta zamoni bor?
3. O'tgan zamon fe'li qanday tuslanadi?
4. 1-bob fe'lining kichik tuslanishi qanday?

## TAYANCh IBORALAR

1. Fe'l
2. Uch o'zakli fe'l
3. Fe'l zamonlari
4. Fe'l vaznlari
5. O'timli fe'l
6. O'timsiz fe'l

## 7. تاء الفاعل

### ADABIYOTLAR

1. Holidov B.Z. Uchebnik arabskogo yaz'ka. T. 1981. 185-b.
2. Kovalev A.A., Sharbatov G.Sh. Uchebnik arabskogo yaz'ka. M. 1998. 131-b.
3. Ibrohimov N.I., Yusupov . Arab tili grammatikasi. T., 1997, 79-b.

### UCH UNDOShLI VA TO'RT UNDOShLI FE'LLAR

#### REJA

1. To'rt undoshli fe'llar haqida ma'lumot
2. To'rt o'zakli fe'llarning hosil bo'lish yo'llari
3. To'rt o'zakli fe'llarning zamonlarda tuslanishi

Arab tilida uch o'zak undoshli fe'llar bilan bir qatorda to'rt o'zak undoshli fe'llar ham mavjud. Ular garchi uch o'zakli fe'llar kabi keng tarqalmagan bo'lsada, ma'lum salmoqqa ega.

To'rt o'zak undoshli fe'llarning hosil bo'lish yo'llari quyidagicha:

1. Ikki undoshdan iborat tqlidiy so'zlarni ikki marta takrorlash yo'li bilan.

Masalan:

وسوس - vasvasa solmoq

زلزل - silkitmoq

قهقهه - qahqaha otmoq

2. Uch undosh o'zakli fe'llar ikkinchi bobidagi ikkilanganlardan birining boshqa undoshga o'zgarishi (dissimilyatsiya) yo'li bilan.

Masalan:

دجج - jildirmoq

دحرج - qildiratmoq

زَلَّق - silliqqlamoq

زَحَلَق - sirqalmoq

3. Horijiy tillardan kirgan to'rt o'zak undoshli otlardan hosil bo'ladi.

Masalan:

فلسفة - falsafa    فلسف - faylasuflik qilmoq

4. Ayrim ibora yoki birikmalarni tshkil etgan asosiy harflardan qisqartma shaklida hosil qilingan to'rt o'zak undoshdan hosil bo'ladi.

Masalan:

بِسْمَل - «Bismillohir rahmonir rahiym» demoq.

To'rt o'zakli fe'llar orasida ikkinlangan fe'llar umuman uchramaydi. O'amzali fe'llar, shuningdek, tarkibida illatli harf mavjud bo'lgan fe'llar esa to'qri fe'llar qatori uchrab turadi. Lekin bu fe'llarda illatli harflarga illatli harf sifatida qaralmaydi. O'anda bu fe'llarning tuslanishi to'qri fe'llarnikidan farq qilmaydi.

Masalan

أَمْرَك - Amerikalashtirmoq

هُرُول - yugurmoq

سَيْطَر - hukmron bo'lmoq

شَيْطَن - yomonlik qilmoq

دُهُون - yo'rqalamoq

*To'rt o'zakli fe'llarning hosila boblari.*

To'rt o'zakli fe'llarning 4 ta bobi mavjud.

1 bob fe'lining o'tgan zamon vazni **فَعَّلَ** bo'lib, u shahs sonida quyidagicha tuslanadi:

Shahs	Jins	Ko'plik	Ikkilik	Birlik
I		فَعَّلْنَا	–	فَعَّلْتُ
II	mz. mn.	فَعَّلْتُمْ فَعَّلْتَنَّ	فَعَّلْتُمَا	فَعَّلْتَ فَعَّلْتِ
III	mn. mn.	فَعَّلُوا فَعَّلْنَ	فَعَّلَا فَعَّلْنَا	فَعَّلَ فَعَّلَتْ

O'tgan zamon majhul darajasi **فُعِّلَ** vaznida bo'ladi.

To'rt o'zakli fe'llar 1-bobining hozirgi-kelasi zamon aniq darajasi يُفَعِّلُ vaznida bo'ladi. Majhul darajasi esa يُفَعِّلُ vaznida bo'ladi.

#### SAVOLLAR

1. Uch o'zakli fe'llar qanday bo'ladi?
2. To'rt o'zakli fe'llarning yasalish usullari.

#### TAYANCh IBORALAR

1. Fe'l
2. Aniq daraja
3. Majhul daraja
4. Uch o'zak
5. To'rt o'zak

#### ADABIYOTLAR

1. Ibrohimov N.I. Arab tili grammatikasi. T. 1997.
2. Kovalev. Sharbatov «Uchebnik arabskogo yaz'ka» M., 1998.
3. Holidov B.Z. «Uchebnik arabskogo yaz'ka» T., 1991.

#### ZAMON KATEGORIYASI

##### REJA

1. Fe'llarda zamon tushunchasi
2. Fe'lning o'tgan zamoni
3. Fe'lning hozirgi-kelasi zamoni

Buning arabcha ta'rifi quyidagicha:

O'tgan zamon fe'li bir ish-harakatning o'tgan zamonda bajarib bo'linganligiga dalolat qiluvchi fe'ldir.

«Ali darslarini tayyorlayapti, bir ozdan keyin uhlaydi» degani kabi. Bu fe'lning ajratib turuvchi belgilaridan biri unga yuklamasini qabul qilishidir.

Masalan:

Uch o'zakli fe'llarning o'tgan va hozirgi-kelasi zamoni quyidagi olti vaznda keladi:

1. فَعَّلَ

2. فَعِلَ
3. فَعُلَ
4. يَفْعَلُ
5. يَفْعِلُ
6. يَفْعُلُ

Agar o'tgan zamon shaklining o'rta o'zagi dammali bo'lsa, hozirgi-kelasi zamonda ham dammali bo'ladi.

Masalan: كَبُرَ - يَكْبُرُ

O'tgan zamoni bo'lsa, hozirgi-kelasi zamoni ko'pincha bo'ladi.

Masalan:

O'tgan zamoni bo'lsa, hozirgi-kelasi zamonning aksariyati vaznida bo'ladi.

Masalan:

O'tgan zamoni bo'lib, hozirgi-kelasi zamoni bo'ladigan fe'llar juda kam uchraydi.

O'ozirgi -kelasi zamon fe'llarining inkori uchun لا inkor yuklamasi, ba'zan ما inkor yuklamasi ishlatiladi.

Masalan: لا يكتب

Bu fe'llarning majhul darajasi يُفْعَلُ vaznida yasaladi.

Masalan: - يُكْتَبُ - yoziladi

Bularning hozirgi zamonidan kelasi zamonini ajratish uchun سوف yoki س yuklamalari qo'shiladi.

Masalan: سيكتب - u yozadi.

Bu fe'llarga qo'shiladigan قد yuklamasi gumon ma'nosini anglatadi.

Masalan:

قد يعرفه أبوك - «Otang uni taniydiganga o'hshaydi».

## SAVOLLAR

1. Fe'llarda zamon tushunchasi deganda nimani tushunasiz?
2. O'tgan zamon fe'lining ta'rifini aytib bering.
3. O'ozirgi-kelasi zamonning ta'rifini ayting.

4. فعل vazning hozirgi-kelasi zamondagi vazni qanday?

#### TAYANCh IBORALAR

1. O'tgan zamon
2. O'ziri zamon
3. Kelasi zamon
4. Vazn
5. Old qo'shimchalar

#### ADABIYOTLAR

1. Holidov B.Z. Uchebnik arabskogo yah'ka. T., 1981. 187-b.
2. Kovalev A.A., Sharbatov G.Sh. Uchebnik arabskogo yaz'ka. M., 1998
3. Ibrohimov N.I., Yusupov A. Arab tili grammatikasi. T., 1997.

#### 6.7.-6.8. FE'LLARDA MAYL KATEGORIYASI

##### REJA

1. Buyruq mayli
2. Buyruq maylining yasalihi
3. Buyruq maylining ishlatilishi

Buyruq maylidagi fe'l 2 va 3- shahsdagi buyruq, iltimos ma'nolarini bildiradi (o'qi, o'qing, o'qisin, o'qisinlar), 1 shahsda esa hohish, istak ma'nolarini ifodalaydi (o'qiy, o'qiylik).

Buyruq mayli arab tilida **فعل الأمر** deb yuritiladi va u shart mayli asosida yasaladi.

2 shahs uchun buyruq shart mayli oldidagi **ت** qo'shimchasini olib tashlash yo'li bilan hosil qilinadi. Bunda so'z boshidagi yonma-yon turgan va bir bo'qin ichidagi ikkita undosh tovush ular oldiga vaslali hamzani qo'yish bilan ikki bo'qinga ajratiladi.

Masalan:

فَتَحَ - تَفْتَحُ - تَفْتَحُ - اِفْتَحْ  
دَخَلَ - تَدْخُلُ - تَدْخُلُ - اُدْخُلْ  
جَلَسَ - يَجْلِسُ - يَجْلِسُ - اِجْلِسْ

Buyruq maylidagi fe'l oldiga qo'yilgan vaslali hamzaning harakati felning hozirgi-kelasi zamondagi o'rta o'zak undoshi harakatiga boqliq. Agar o'rta o'zak undoshining harakati – ُ «damma» bo'lsa, vasali hamza – ُ o'qiladi.

دَخَلَ - تَدْخُلُ - تَدْخُلُ - اُدْخُلْ

Agar o'rta o'zak undoshi harakati fatha yoki kasra bo'lsa, vaslali hamza kasra harakatini oladi.

إجلسن إجلس

Agar buyruq maylidagi fe'l gapning o'rtasida bo'lsa va undan oldingi so'z unli tovush bilan tugagan bo'lsa, vaslali hamza qoidasiga binoan yoziladi, lekin o'qilmaydi:

قُلْتُ إِجْلِسْ

Ikkinchi shahs buyruq mayli son va jinsda quyidagicha tuslanadi:

Jins	Ko'plik	Ikkilik	Birlik
Muzakkar	أدخلوا	أدخلا	أدخل
Muannas	أدخلن	أدخلا	أدخلي

Buyruq maylining 1 va 3 shahslari shu shahsdagi fe'lining shart mayli oldiga ل yuklamasini qo'yish orqali yasaladi:

لِنَدْخُلْ لِيَدْخُلْ

O'amma shahslar uchun buyruq maylining inkor shakli shart mayli oldiga لا yuklamasini quyish orqali hosil qilinadi:

لا يَكْتُبُوا لا تجلسي

Ba'zan 3 shahsga nisbatan buyruq mayli o'rnida o'tgan zamon fe'li ham ishlatilishi mumkin:

عاش السلام  
طابت ليلتكم

## ISTAK MAYLI

### REJA

1. Istak maylining yasalishi
2. Istak maylining ishlatilishi
3. Istak mayli yuklamalari
4. Istak maylini ifodalashda ishlatiluvchi yordamchi fe'llar

Fe'llarning istak mayli hozirgi-kelasi zamon shaklidan ohirgi undosh harakatini fathalash yo'li bilan yasaladi.

Shahs	Jins	Ko'plik	Ikkilik	Birlik
I		نكتب	-	أكتب
II	m.z.	تكتبوا		تكتب
II	m.n.	تكتبن	تكتبا	تكتبي
III	m.z.	يكتبوا	يكتبا	يكتب
III	m.n.	يكتبن	تكتبا	تكتب

Istak mayli quyidagi vazifalarda ishlatiladi.

1. Ish-harakatni bajarishdan ko'zlangan maqsadni ifodalash uchun feldan oldin ل يoki كي yuklamasi ishlatiladi. ل yuklamasi istak maylidagi fe'lga qo'shilib yoziladi.

Masalan:

ليزوروا - Ular ziyorat qilishlari uchun, ular ziyorat qilsinlar deb.

كِي أَفْهَمَ - *Tushunishim uchun, tushunishim maqsadida.*

Bu ibolralar oldidan o'tgan yoki hozirgi-kelasi zamondagi fe'l ham kelishi mumkin.

أَسْمَعُ كِي أَفْهَمَ - *Tushunishim uchun quloq solyapman*

ذَهَبَ الطَّلَابُ لِيُزَوِّرُوا - *Studentlar ziyorat qilish uchun ketdilar.*

Ba'zan har ikkala yuklama qo'shilib kelishi mumkin va u ham yuqoridagi ma'noni anglatish uchun ishlatiladi.

Masalan:

أَسْمَعُ لَكِي أَفْهَمَ - *tushunishim uchun quloq solyapman*

Agar istak maylidagi fe'l inkor ma'noda bo'lsa, mazkur yuklamalardan keyin لَا yuklamasi qo'yiladi:

لِ + كِي + لَا = لِكِي لَا      لَا + كِي = كِي لَا

لَا تَظْلَمُ لَكِي لَا تَظْلَمُ - *Zulm ko'rmayin desang, zulm qilma*

2. Istak, maqsad, niyat, zarurat, imkoniyat, qaror, rozilik, man' etish, buyruq, iltimos, hursandchilik, qo'rquv, taajjub va shunga o'hshash turli hissiyotlarni ifodalovchi fe'llardan keyin o'sha fe'llarning ikkinchi komponenti sifatidagi fe'l istak maylida keladi va istak maylidagi fe'ldan oldin أَنْ, agar istak mayli inkor ma'noda bo'lsa لَا

أَنْ = لَا + yuklamasi ishlatiladi.

Masalan:

أَسْمَحُ لِي أَنْ أَقْرَأَ - o'qishimga ruhsat bering

قَصَدْتُ أَنْ أَدْخُلَ غُرْفَةَ الْعَمِيدِ - Dekan honasiga kirishga jazm qildim

Istak mayli mazkur ma'noda ishlatilganda undan oldin (يُرِيدُ) *qo'lidan kelmoq, qila olmoq* fe'llari ishlatiladi:

نُرِيدُ أَنْ نَرْجِعَ إِلَى بَيْتِنَا - *Uyimizga qaytmoqchimiz*

نَسْتَطِيعُ أَنْ نَكْتُبَ بِالْعَرَبِيَّةِ - *Biz arabcha yoza olamiz*

3. Zaruriyatni, imkoniyatni bildiruvchi ayrim fe'llardan keyin yuklamasi bilan birga ishlatiladi.

Bu fe'llarning hususiyati shuki, shahs va sonda tuslanmasdan, bir hil qolipda ishlatiladi va ish-harakatning kimga tegishli ekanligini va shu fe'ldan keyingi predlog yoki shu fe'lning o'ziga qo'shilib kelgan olmoshlar orqali ifodalanadi. Bular quyidagi fe'llardir:

يُمْكِنُ - mumkin, يَنْبَغِي لِي - kerak, يَجِبُ عَلَيَّ - kerak, lozim, يُمْكِنُ - mumkin.

Masalan:

يجب عليه أن يسكت - *u jim turishi kerak*

يجب عليك أن تكدح - *sen mehnat qilishing kerak*

ينبغي لك أن ترجع - *sen qaytishing kerak*

يمكنني أن أذهب - *borishim mumkin*

Ayrim hollarda zaruriyatni ifodalovchi bu fe'llar tushib qolib, ulardan keyingi predloglarning o'zi shu fe'l bildirgan ma'nolarda ishlatilishi mumkin:

علينا أن نذهب - *biz ketishimiz kerak*

لكم أن تفهموا - *sizlar tushunishingiz kerak*

4. Ba'zan istak maylidagi fe'l بعد ، قبل predloglaridan keyin ham ishlatilishi mumkin:

إغسل يديك قبل أن تأكل - *ovqatlanishdan oldin qo'lingni yuv*

5. Istak mayli حتى yuklamasidan keyin ham ishlatiladi va «gacha» ma'nosini bildiradi:

سهرت حتى ينتصف الليل - *tun yarim bo'lguncha bedor bo'ldim*

6. لن inkor yuklamasidan keyin istak mayli ishlatiladi va kelasi zamonda mutlaqo amalga oshmaydigan ish-harakatni ifodalaydi:

لن أذهب معك أبدا - *men hech qachon sen bilan bormayman*

## TAYANCh IBORALAR

1. Istak mayli
2. Istak mayli yuklamalari
3. استطاع fe'li

## SAVOLLAR

1. Istak mayli qanday yasaladi?
2. Istak mayli nimalarni ifodalashda ishlatiladi?
3. Istak maylida qaysi yuklamalardan foydalaniladi?
4. Istak maylida inkor qanday ifodalanadi?

## ADABIYOTLAR

1. Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. T., 1997 y., ..

2. Talabov E. Arab tili. T., 1992 y.
3. Holidov B.Z. Uchebnik arabskogo yaz'ka. T., 1977 y.

## 6.9. TO'O'RI VA NOTO'O'RI FE'LLAR

### REJA

1. Ikkilangan fe'llar
2. O'amzali fe'llar
3. Kasal fe'llar

Arab tilida uch o'zakli fe'llarning har uchchovi uch hil undoshdan iborat bo'lsa, «to'qri fe'l» deyiladi. Agar o'zakdan birortasi hamza (ء) yoki alif, vov, yoy (ا، و، ي)

ي) kabi kasal harf yoki ikkinchi va uchinchi undoshi bir hil bo'lsa bunday

fe'llarga *noto'qri fe'llar* deyiladi. Ular o'z navbatida uch turga bo'linadi:

1. Ikkilangan fe'llar
2. O'amzali fe'llar
3. Kasal fe'llar:
  - a) To'qriga o'hshash fe'llar
  - b) bo'sh fe'llar
  - v) noqis fe'llar
4. Ikki marta noto'qri fe'llar:
  - a) hamzali va ikkilangan fe'llar
  - b) bo'sh va ikkilangan fe'llar
  - v) O'amzali va bo'sh fe'llar
  - g) uch marta bo'sh fe'llar
5. Uch marta noto'qri fe'llar

## IKKILANGAN FE'LLAR

### REJA

1. Ikkilangan fe'llar haqida tushuncha
2. Fe'l shakllarini yasashdagi fonetik o'zgarishlar
3. O'tgan zamonda tuslanish
4. O'ozirgi-kelasi zamonda tuslanish
5. Ikkilangan fe'llarda mayllar
6. Ikkilangan fe'llarning hosila boblari

Ikkinchi va uchinchi o'zaklari bir hil undosh bo'lgan fe'llar *ikkilangan fe'llar* deyiladi.

Ularning yasalishi:

1. Bir hil o'zak undoshlar qoidaga ko'ra birlashib, «tashdid» ostida bitta undosh bo'lib yoziladi. Agar bir hil o'zakdan birinchisidan keyin qisqa unli kelsa, u odatda tushib qoladi: دَلّ - دَلل

2. Agar bir hil undoshning birinchisidan oldin sukunli undosh bor bo'lsa, o'sha birinchisining harakati sukunning o'rniga o'tadi: يَدَلّ - يَدلل

3. Agar birinchi o'zakdan keyin uzun unli ا bo'lsa, birlashish sodir bo'ladi. Lekin birinchi o'zakdan keyin boshqa uzun unli bo'lsa, birlashish sodir bo'lmaydi: دال - دالل .

4. Juyidagi hollarda ikkita bir hil undoshning birlashishi sodir bo'lmaydi:

a) agar ikkita bir hil o'zakning ikkinchisi yopiq bo'qinni tashkil qilsa (sukun bo'lsa): فررت

b) Agar ikkita bir hil undoshning o'rtasida uzun unli bo'lsa: مدلول

v) Agar ikkita bir hil undoshning birinchisi ikkilangan bo'lsa, birlashish sodir bo'lmayadi: دَلّ

## IKKILANGAN FE'LLARDA MAYLLAR

Ikkilangan fe'llarning shart mayli ikki hil usulda yasaladi:

1. Aniq daraja formasidagi ohirgi qisqa unlini tushirib qoldirish. Bunda ohirgi ikkita undosh yonma-yon kelib qoladi. Bundan qochish uchun ohirgi undoshga *a* yoki *i* unlisi, bordiyu fe'l o'rta o'zagining harakati *u* bo'lsa, *a*, *i*, *u* unilari qo'yiladi.

Masalan: فَرَّ - يَفِرُّ - يَفِرَّ - يَفِرَّ

2. To'qri fe'llardagi kabi yasash mumkin: يَدلل

Ammo ohiri ان ، ين ، ون qo'shimchalariga tugaydigan hollarda birinchi usul bilan yasaladi, ya'ni ن qushimchalari tushib qoladi.

Shahs	Jins	Birlik	Ikkilik	Ko'plik
I	M.z. M.n	أدلل	-	ندلل
II	M.z. M.n.	تدلل تدلي	تدلا	تدللن تدلوا

III	M.z.	يدلن	يدلاّ	يدللن
	M.n.	تدلن	تدلاّ	يدلوا

Ikkilangan fe'llarning buyruq mayli ularning shart mayli formasidan umumiy qoida asosida yasaladi.

Masalan:

تَفَرَّرَ - فَرَرُوا      فَرَزَ - فَرَزُوا

Ikkilangan fe'llarning istak maylida ohirgi o'zak undoshi fathalanadi.

Masalan:

يَمَسُّ - يَمَسُّ  
يَفِرُّ - يَفِرُّ

#### SAVOLLAR

1. Janday fe'llarga ikkilangan fe'llar deyiladi?
2. Jachon bir hil undoshlar ajratib yoziladi?
3. Jayaan bir hil undoshlar tashdid bilan yoziladi?

#### TAYANCh IBORALAR

1. Ikkilangan
2. Bir hil o'zak undosh
3. Sukunli bo'qin
4. YOpiq bo'qin
5. Uzun unli

#### ADABIYOTLAR

1. Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. T., 1997 y., ..
2. Talabov E. Arab tili. T., 1992 y.
3. Holidov B.Z. Uchebnik arabskogo yaz'ka. T., 1977 y.
4. Grande B.M. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitel'no-istoricheskom osveshenii. M., 1998.
5. Kovalev A.A., Sharbatov G.Sh. Uchebnik arabskogo yaz'ka. M., 1998.

## 6.10. O'AMZALI FE'LLAR

### REJA

1. O'amzali fe'llar haqida tushuncha
2. O'amza haqida
3. O'amzali fe'llarning tuslanishi
4. O'amzali fe'llarning buyruq mayli
5. O'amzali fe'llarning hosila boblari

O'zak harflardan biri *hamza* bo'lgan fe'llarga *hamzali fe'llar* deyiladi. O'amza fe'l o'zagidagi uchta undoshdan biri bo'lishi mumkin.

O'amzali fe'llarning «noto'qri fe'llar» guruhiga kiritilishiga sabab, hamza bunday so'zlarda turlicha yoziladi, ya'ni hamzaga turli harflar taglik vazifasini bajaradi. Bundan tashqari ba'zi holatlarda hamzadan oldin kelayotgan unlining uzayishi sababli (o'zak undosh bo'lib kelayotgan) hamza tushib qoladi.

مفرد	مثنى	جمع
إقرأ إقْرِي	إقرأ	إقْرؤوا إقْرَأْ
إهْنِئ إهْنِي	إهْنِئَا	إهْنِئُوا إهْنِئِن
أبطؤ أبطِئِي	أبطؤَا	أبطؤُوا أبطؤُون

### *O'amzali fe'llarning hosila boblari*

Masdar	Sifatdosh		Buyruq mayli	O'ozirgi-kelasi z.		O'tgan zamon		Bob
	Majh. d	Aniq d.		Majh. d	Aniq d.	Majh. d	Aniq d.	
إِلْفٌ	مَأْلُوفٌ	أَلِفٌ	إِيْلِفٌ	يُؤَلِّفُ	يَأَلِّفُ	أَلَّفَ	أَلِفَ	I
تَأَلَّفَ	مُؤَلِّفٌ	مُؤَلِّفٌ	أَلَّفَ	يُؤَلِّفُ	يُؤَلِّفُ	أَلَّفَ	أَلَّفَ	II
إِيْلَافٌ	مُؤَلِّفٌ	مُؤَلِّفٌ	أَلِفٌ	يُؤَلِّفُ	يُؤَلِّفُ	أَوَّلَفَ	أَلَّفَ	III

إِيلَافٌ	مُؤَلِّفٌ	مُؤَلِّفٌ	إِيْلَافٌ	يُؤَلِّفُ	يُؤَلِّفُ	أُولِيفٌ	آلَفٌ	IV
تَأَلَّفٌ	مُتَأَلِّفٌ	مُتَأَلِّفٌ	تَأَلَّفٌ	يُتَأَلِّفُ	يُتَأَلِّفُ	تُؤَلِّفُ	تَأَلَّفٌ	V
تَأَلَّفٌ	مُتَأَلِّفٌ	مُتَأَلِّفٌ	تَأَلَّفٌ	يُتَأَلِّفُ	يُتَأَلِّفُ	تُؤَلِّفُ	تَأَلَّفٌ	VI
إِيْتِلَافٌ	مُؤْتَلِّفٌ	مُؤْتَلِّفٌ	إِيْتِلَافٌ	يُؤْتَلِّفُ	يُؤْتَلِّفُ	أُؤْتَلِّفُ	إِيْتِلَافٌ	VIII
اسْتِئْلَافٌ	مُسْتَأَلِّفٌ	مُسْتَأَلِّفٌ	اسْتِئْلَافٌ	يُسْتَأَلِّفُ	يُسْتَأَلِّفُ	أُسْتَأَلِّفُ	اسْتِئْلَافٌ	X

### SAVOLLAR

1. Janday fe'llar hamzali fe'llar deyiladi?
2. O'amza uchun tirkak qanday tanlanadi?
3. O'amzali fe'llarning 8-bobi haqida gapiring.
4. O'amzali fe'llarning buyruq mayli qanday hosil qilinadi?
5. O'amzali fe'llarning hosila boblari haqida gapiring.

### TAYANCh IBORALAR

1. O'amzali fe'llar
2. O'amzali o'zak
3. Tirkak, taglik, markaz
4. Unlilarning kattalik qonuni
5. Markazsiz
6. Alohida
7. Assimilyatsiya

### ADABIYOTLAR

1. Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. T., 1997 y., ..
2. Talabov E. Arab tili. T., 1992 y.
3. Holidov B.Z. Uchebnik arabskogo yaz'ka. T., 1977 y.
4. Grande B.M. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitelno-istoricheskom osveshenii. M., 1998.
5. Kovalev A.A., Sharbatov G.Sh. Uchebnik arabskogo yaz'ka. M., 1998.

6.11.-6.12. Illatli fe'llar. To'qriga o'hshash fe'llar.  
«Bo'sh» va «noqis» fe'llar.

## REJA

1. Illatli fe'llar haqida tushuncha
2. To'qriga o'hshash fe'llar haqida tushuncha
3. To'qriga o'hshash fe'llarning hozirgi-kelasi zamonda tuslanishi
4. To'qriga o'hshash fe'llarning o'tgan zamoni
5. To'qriga o'hshash fe'llarning hosila boblari

Birinchi o'zak harfi illatli و yoki ي bo'lgan fen'llar to'qriga o'hshash fe'llar deyiladi. To'qriga o'hshash fe'llarning aksariyati و harfi bilan boshlanadi. Ular hozirgi-kelasi zamonda tuslanganda o'rta o'zagi *kasra* yoki *fatha* bo'lsa, و harfi tushib qoladi:

وقع - يَقَعُ

Birinchi o'zak harfi ي bo'lgan fe'llarda bu hodisa ro'y bermaydi. Ular to'qri fe'llar kabi tuslanadi:

يسر - يَيْسِرُ

To'qriga o'hshash fe'llar o'tgan zamonda huddi to'qri fe'llarga o'hshab tuslanadi. O'ozirgi-kelasi zamonda esa quyidagicha tuslanadi:

وصل - يَصِلُ

To'qriga o'hshash fe'llarning majhul darajasi quyidagichadir:

وصل - وُصِلَ - يُوصَلُ

To'qriga o'hshash fe'llar mayllarda quyidagicha bo'ladi:

Shart mayli: لَمْ يَجِدْ

Buyruq mayli: جِدْ

Istak mayli: لَنْ يَجِدَ

وَدَعَ va وَفَرَ fe'lining buyruq maylidagi shakllari

مفرد	مثنى	جمع	مفرد	مثنى	جمع
دَعَا	دَعَا	دَعَوْا	أَوْفَرَ	أَوْفَرَا	أَوْفَرُوا
دَعِيَ		دَعْنُ	أَوْفَرِي		أَوْفَرْنَ

To'qriga o'hshash fe'llarning brinchi bob masdarlari (عِلَّةٌ) qolipidan yasaladi:

وَهَبَ - هَبَةٌ وَصَفَ - صِفَةٌ

Makon va zamon nomlari esa (مَفْعِلٌ) qolipida yasaladi:

مَوْعِدٌ

Mehnat qurollari nomlari esa (مُفْعَلٌ) qolipida yasaladi:

وَزَنٌ - مِيزَانٌ

To'qriga o'hshash fe'llarning 2, 3, 5, va 6 boblari huddi to'qri fe'llar kabi tuslanadi. 7-bob kam uchraydi. Uchraganda to'qri fe'llar kabi tuslanadi.

8-bobda illatli o'zak qolipdagi ت harfi bilan assimilyatsiyaga kirishadi:

وَحَدٌ - اِتَّحَدَ

To'qriga o'hshash fe'llarning hosila boblari

Masdar	Sifatdosh		Buyruq m.	O'ozirgi-kelasi zamon		O'tgan zamon	
	Majhul d	Aniq d.		Majhul d	Aniq d.	Majhul d	Aniq d.
صِلَةٌ	مَوْصُولٌ	وَاصِلٌ	صِلٌ	يُوصِلُ	يَصِلُ	وُصِلَ	وَصَلَّ
تَوْصِيلٌ	مُوصِّلٌ	مُوصِّلٌ	وَصِّلٌ	يُوصِّلُ	يُوصِّلُ	وُصِّلَ	وَصَّلَّ
مُوَاصَلَةٌ	مُوَاصِلٌ	مُوَاصِلٌ	وَاصِلٌ	يُوَاصِلُ	يُوَاصِلُ	وُوَاصِلَ	وَاصَلَّ
إِصَالٌ	مُوصِلٌ	مُوصِلٌ	أَوْصِلٌ	يُوصِلُ	يُوصِلُ	أُوصِلَ	أُوصَلَّ
تَوْصُّلٌ	مُتَوَصِّلٌ	مُتَوَصِّلٌ	تَوَصَّلٌ	يُتَوَصَّلُ	يُتَوَصَّلُ	تُوتَوَصِّلَ	تَوَصَّلَّ
تَوَاصُلٌ	مُتَوَاصِلٌ	مُتَوَاصِلٌ	تَوَاصِلٌ	يُتَوَاصِلُ	يُتَوَاصِلُ	تُوتَوَاصِلَ	تَوَاصَلَّ
إِتِّصَالٌ	مُتَّصِلٌ	مُتَّصِلٌ	إِتَّصِلٌ	يُتَّصِلُ	يُتَّصِلُ	أُتَّصِلَ	أُتَّصَلَّ
إِسْتِصَالٌ	مُسْتَوْصِلٌ	مُسْتَوْصِلٌ	إِسْتَوْصِلٌ	يُسْتَوْصِلُ	يُسْتَوْصِلُ	أُسْتَوْصِلَ	أُسْتَوْصَلَّ

## SAVOLLAR

1. Janday fe'llar to'qriga o'hshash fe'llar deyiladi?
2. To'qriga o'hshash fe'llar o'tgan zamonda qanday tuslanadi?
3. O'ozirgi-kelasi zamonda-chi?

## ADABIYOTLAR

1. Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. T., 1997 y., ..
2. Talabov E. Arab tili. T., 1992 y.
3. Holidov B.Z. Uchebnik arabskogo yaz'ka. T., 1977 y.
4. Grande B.M. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitelno-istoricheskom osveshenii. M., 1998.
5. Kovalev A.A., Sharbatov G.Sh. Uchebnik arabskogo yaz'ka. M., 1998.

## Bo'sh fe'llar

### REJA

1. Bo'sh fe'llar haqida tushuncha
2. O'tgan zamonda tuslanish
3. O'ozirgi-kelasi zamonda tuslanish
4. O'osila boblari

Ikkinchi o'zak undoshi illatli و yoki ي harflaridan iborat bo'lgan fe'llar *bo'sh*

*fe'llar* deyiladi. Bunday *fe'llarning* o'tgan va hozirgi-kelasi zamon shakllarida, ulardan yasalgan ismlarda bir qator fonetik o'zgarishlar ro'y beradi.

سَيَّرَ - سَارَ حَوْفَ - جَافَ قَوْلَ - قَالَ

Agar uchinchi o'zak harf sukunli bo'lib, bo'qin yopsa, illatli harf umuman tushib qoladi:

سِرْتُ ، قُلْتُ

Bo'sh *fe'llar* hozirgi-kelasi zamon o'rta o'zagining harakati *fatha* yoki *kasra* bo'lsa, o'tgan zamonda birinchi o'zak undoshning harakati *kasra* bo'ladi. Bordiyu *damma* bo'lsa, u holda *damma* bo'ladi.

*Bo'sh fe'llarning o'tgan zamonda tuslanishi*

حَافَ			سَارَ			قَالَ		
جمع	مثنى	مفرد	جمع	مثنى	مفرد	جمع	مثنى	مفرد
خِيفْنَا	-	خِيفْتُ	سَرْنَا	-	سَرْتُ	قُلْنَا	-	قُلْتُ
خِيفْتُمْ	خِيفْتُمَا	خِيفْتَ	سَرْتُمْ	سَرْتُمَا	سَرْتَ	قُلْتُمْ	قُلْتُمَا	قُلْتَ
خِيفُّنَّ		خِيفْتِ	سَرْتُنَّ		سَرْتِ	قُلْتُنَّ		قُلْتِ
خَافُوا	خَافَا	خَافَ	سَارُوا	سَارَا	سَارَ	قَالُوا	قَالَا	قَالَ
خِيفْنَ	خَافَتَا	خَافَتْ	سَرْنَ	سَارَتَا	سَارَتْ	قُلْنَ	قَالَتَا	قَالَتْ

Bo'sh *fe'llarning* o'tgan zamon majhul darajasida *uvi* va *uyi* tovush birikmalari uzun unli *i:* ga aylanadi:

قُولَ - قِيلَ

حُوفَ - خِيفَ

Fe'ning birlik birinchi va ikkinchi shahsi, ko'plik uchinchi shahs, muannas jinsining majhul darajsiularning aniq daraja formasi bilan mos keladi. Bu qoidadan *سار* fe'li mustasno. Chunki bu fe'ning birinchi o'zak harfi *kasra* bilan harakatlangan.

*Bo'sh fe'llarning hozirgi-kelasi zamoni*

Bo'sh *fe'llar* hozirgi-kelasi zamonda tuslanayotganda bir nechta fonetik o'zgarishlar ro'y beradi.

Agar birinchi o'zak undosh yopiq bo'qinni tashkil qilsa, undan keyin kelayotgan

illatli o'zak undoshning unlisi birinchi o'zak undoshiga o'tadi. Bunda ikki holat bo'ladi:

a) agar uchinchi o'zak undosh ochiq bo'qinni tashkil qilsa illatli o'zak undoshi yuqorida zikr qilingan unli tovush bilan birga uzun unliga aylanib urqu oladi.

Masalan:

قَوْلٌ - يَقُولُ - يُقُولُ -- يَقُولُ

b) Agar uchinchi undash yopiq bo'qinni tashkil qilsa va bo'qin urquli bo'lsa, illatli o'zak harf tushib qoladi.

Masalan:

يَقُولُنَّ - يَقُلْنَ

### Bo'sh fe'llarning hozirgi-kelasi zamonda tuslanishi

سَارَ			حَافَ		
جمع	مثنى	مفرد	جمع	مثنى	مفرد
نَسِيرُونَ		أَسِيرٌ	تَحَافٌ	-	أَحَافٌ
تَسِيرُونَ		تَسِيرٌ	تَحَافُونَ		تَحَافٌ
تَسِرْنَ	تَسِيرَانِ	تَسِيرِينَ	تَحْفَنَ	تَحَافَانِ	تَحَافِينَ
يَسِيرُونَ	يَسِيرَانِ	يَسِيرٌ	يَحَافُونَ	يَحَافَانِ	يَحَافٌ
يَسِرْنَ	تَسِيرَانِ	تَسِيرٌ	يَحْفَنَ	تَحَافَانِ	تَحَافٌ

### Bo'sh fe'llarning mayllari

Uzun unli tovush ohirgi yopiq bo'qinda qisqa unli tovushga aylanadi. Bu fonetik qonunga binoan bo'sh fe'llarning shart mayli quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

يَقُولُ - يَقُولُ - يَقُلْنَ

يَسِيرٌ - يَسِيرٌ - يَسِرْ

Agar uchinchi o'zak ochiq bo'qinni tashkil etsa, illatli undosh saqlanadi:

يَقُلْنَ - قُلْنَ - يَحْفَنَ - حَفْنَ - يَسِرْ - سِرْ

### Bo'sh fe'llarning sifatdoshlari

Bo'sh fe'llardan sifatdoshlar yasalayotganda uzun unli ا dan keyin kelayotgan illatli o'zak undoshlari bo'lmish و va ي harflari hamzaga aylanadi. Fonetik

qonunlarga binoan bo'sh fe'llarning 1-bob aniq daraja sifatdoshi quyidagicha bo'ladi:

قول - قال - قائل

سير - سار - سائر

Bo'sh fe'llardan majhul daraja sifatdoshlari yasalayotganda esa ular uchun doimiy bo'lgan fonetik o'zgarishlar ro'y beradi.

Masalan:

قال - مقوول - مقوول - مقوول

O'rta o'zak undoshi illatli ي bo'lgan fe'llarda esa ي uzun unli و ni yengib ketadi, ya'ni يو tovush birikmasi uzun unli ي gv aylanib ketadi:

باع - مبيوع - مبيع

### Bo'sh fe'llar hosila boblarining jadvali

Masdar	Sifatdosh		Buyruq m.	O'ziri-kelasi zamon		O'tgan zamon	
	Majhul d	Aniq d.		Majhul d	Aniq d.	Majhul d	Aniq d.
قَوْمٌ	مَقُومٌ	قَائِمٌ	قُمْ	يُقَامُ	يُقُومُ	قِيمَ	قَامَ
تَقْوِيمٌ	مُقَوِّمٌ	مُقَوِّمٌ	تَقَوِّمُ	يَتَقَوَّمُ	يَتَقَوِّمُ	تُقَوِّمَ	تَقَوَّمَ
مُقَاوِمَةٌ	مُقَاوِمٌ	مُقَاوِمٌ	قَاوِمٌ	يُقَاوِمُ	يُقَاوِمُ	قُوِّمَ	قَاوَمَ
إِقَامَةٌ	مُقَامٌ	مُقِيمٌ	أَقِمْ	يُقَامُ	يُقِيمُ	أُقِيمَ	أَقَامَ
تَقَوُّمٌ	مُتَقَوِّمٌ	مُتَقَوِّمٌ	تَقَوِّمُ	يَتَقَوَّمُ	يَتَقَوِّمُ	تُقَوِّمَ	تَقَوَّمَ
تَقَاوُمٌ	مُتَقَاوِمٌ	مُتَقَاوِمٌ	تَقَاوِمٌ	يَتَقَاوِمُ	يَتَقَاوِمُ	تُقَاوِمَ	تَقَاوَمَ
إِنْقِمَامٌ	مُنْقِمٌ	مُنْقِمٌ	إِنْقِمِ	يُنْقِمُ	يُنْقِمُ	أُنْقِمَ	أِنْقَمَ
إِقْتِيَامٌ	مُقْتِمٌ	مُقْتِمٌ	إِقْتِمِ	يُقْتِمُ	يُقْتِمُ	أُقْتِمَ	أَقْتَمَ
إِسْوَدَادٌ	-	مُسْوَدٌّ	إِسْوَدِّدْ	-	يَسْوَدُّ	-	إِسْوَدَّ
اسْتِقَامَةٌ	مُسْتَقِمٌ	مُسْتَقِيمٌ	اسْتَقِمْ	يُسْتَقِمُ	يُسْتَقِيمُ	أُسْتَقِمَ	اسْتَقَامَ

### SAVOLLAR

1. Janday fe'llar bo'sh fe'llar deyiladi?
2. Bunday fe'llar tustlanganda qanday fonetik o'zgarishlar ro'y beradi?
3. Ularning sifatdoshlari qanday hosil bo'ladi?
4. O'sosila boblari haqida gapiring.

## TAYANCh IBORALAR

1. Bo'sh fe'llar
2. O'sosila boblar

## ADABIYOTLAR

1. Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. T., 1997 y., ..
2. Talabov E. Arab tili. T., 1992 y.
3. Holidov B.Z. Uchebnik arabskogo yaz'ka. T., 1977 y.
4. Grande B.M. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitelno-istoricheskom osveshenii. M., 1998.
5. Kovalev A.A., Sharbatov G.Sh. Uchebnik arabskogo yaz'ka. M., 1998.

## *Noqis fe'llar*

### REJA

1. Noqis fe'llar haqida tushuncha.
2. Ularning o'tgan zamonda tuslanishi.
3. Ularning hozirgi-kelasi zamonda tuslanishi.
4. O'sosila boblari.

Uchinchi o'zak undoshi illatli و yoki ي bo'lgan fe'llar *noqis* fe'llar deyiladi.

Masalan:

رَمِي - رَمَى دَعَا - دَعَا

Bunday fe'llarning o'tgan va hozirgi-kelasi zamon shakllarida, ulardan yasalgan ismlarda fonetik o'zgarishlar ro'y beradi.

Fonetik qonunga ko'ra agar illatli o'zak undoshlar bo'lmish و yoki ي harflaridan keyin uzun unli *i:* va *u:* kelsa, ular o'zidan oldin kelayotgan qisqa damma va kasra bilan tushib qoladi.

Masalan:

نَسُوا

O'ar uch tipdagi noqis fe'llarning majhul daraja formasi bir hil vaznda tuslanadi.

Masalan:

رَمَى - رُمِيَ دَعَا - دُعِيَ

*Noqis fe'llarning o'tgan zamon aniq va majhul darajada tuslanishi*

مفرد	مثنى	جمع	مفرد	مثنى	جمع
دَعَوْتُ	-	دَعَوْنَا	دُعَيْتُ	-	دُعَيْنَا
دَعَوْتَ		دَعَوْتُمْ	دُعَيْتَ		دُعَيْتُمْ
دَعَوْتِ	دَعَوْتُمَا	دَعَوْتُنَّ	دُعَيْتِ	دُعَيْتُمَا	دُعَيْتُنَّ
دَعَا	دَعَا	دَعَا	دُعِيَ	دُعِيَ	دُعُوا
دَعَتْ	دَعَتَا	دَعَوْنَ	دُعَيْتِ	دَعَتَا	دُعِينَ

*Noqis fe'llarning hozirgi-kelasi zamoni*

Noqis fe'llar hozirgi-kelasi zamonda tuslanayotganda quyidagi fonetik o'zgarishlar ro'y beradi:

1. Urqisiz ohirgi bo'qinda illatli o'zak undoshlar o'zlarining damma harakatlarini yo'qotadilar va uzun unli a:, u:, i: tovushlariga aylanadilar.

Masalan:

يرمى ، يدعو

2. Noqis fe'llarning hozirgi-kelasi zamon majhul formasida ohirgi tovush birikmalari uzun unli a: ga aylanadi.

Masalan:

يُرْمَى - يُرْمِي يُدْعَى - يُدْعَوُ

*Fe'llarning hozirgi-kelasi zamonda tuslanishi*

Majhul daraja — رَمَى			Aniq daraja — دَعَا		
مفرد	مثنى	جمع	مفرد	مثنى	جمع

نُرْمَى	-	أُرْمَى	نَدْعُو	-	أَدْعُو
تُرْمُونَ		تُرْمَى	تَدْعُونَ		تَدْعُو
تُرْمِينَ	تُرْمِيَانِ	تُرْمِينَ	تَدْعُونَ	تَدْعُوَانِ	تَدْعِينَ
يُرْمُونَ	يُرْمِيَانِ	يُرْمَى	يَدْعُونَ	يَدْعُوَانِ	يَدْعُو
يُرْمِينَ	يُرْمِيَانِ	يُرْمَى	يَدْعُونَ	يَدْعُوَانِ	يَدْعُو

### Noqis fe'llarning mayllari

Fe'llarning istak mayli yasalayotganda ularning uchinchi o'zak undoshi fathalanar edi. Noqis fe'llarda ham shu qoidaga amal qilinadi va ba'zi o'zgarishlar ro'y beradi.

Masalan:

رَمْى - يَرْمِى - يَرْمِى  
دَعَا - يَدْعُو - يَدْعُو  
نَسِى - يَنْسِى - يَنْسِى

Noqis fe'llardan shart mayli yasalayotganda ularning ohiridagi و ، ا ، ي ، ا uzun unililari o'zlariga mos qisqa unliga o'zgaradi.

Masalan:

رَمْى - يَرْمِى - يَرْمِى  
دَعَا - يَدْعُو - يَدْعُو  
نَسِى - يَنْسِى - يَنْسِى

Buyruq mayli esa shart maylidan yasaladi. So'z boshida ikki undoshning yonma-yon kelishini yo'qotish maqsadida *hamzali alif* orttiriladi.

Masalan:

إِزْمَ إِذْعُ إِئْسَ

### Noqis fe'llarning sifatdoshlari

Noqis fe'llardan sifatdoshlar yasalayotganda turli fonetik o'zgarishlar ro'y beradi. Aniq daraja sifatdoshi yasalayotganda illatli harflar qisqaradi. O'osil bo'lgan sifatdoshlar ikki kelishikli bo'lib, ularning bosh va qaratqich kelishiklari bir hil bo'ladi.

Masalan:

رَامٍ - الرَامِي B-J. k.

Majhul daraja sifatdoshida qolipdagi و harfi illatli harfga aylanib ketadi.

Masalan:

رَمَى - مَفْعُولٌ - مَرْمِيٍّ

### UCh KARRA ILLATLI FE'LLAR (O'TA NOJIS FE'LLAR)

REJA

1. O'ta noqis fe'llar haqida
2. Ularning o'tgan zamonda tuslanishi
3. O'ozirgi –kelasi zamonda tuslanishi
4. Hosila boblari

Fe'l tarkibida birgina illatli o'zak bo'lib qolmay, u bilan birga hamza ham o'zak harf sifatida kelas, yoki bitta fe'lda ikkita illatli o'zak bo'lsa, bunday fe'l o'ta noqis fe'l deyiladi.

1. a) Fe'lning birinchi o'zagi و , ikkinchi o'zagi hamza bo'lsa, bunday fe'llarni tuslashda bir tomondan to'qriga o'hshash fe'llar, ikkinchi tomondan hamzali fe'llarning tuslanish qoidalariga amal qilinadi.

Masalan:

وَأَلٌ - يَيْلٌ - إِلٌ

- b) Bunday fe'llarning birinchi o'zagi illatli, uchinchi o'zagi esa hamzali bo'lishi ham mumkin.

Masalan:

وَطِيٌّ - يَطَأٌ - طَأٌ

2. a) Agar birinchi o'zak hamza, ikkinchi o'zak harf illatli undosh bo'lsa, bunday fe'llar bir tomondan hamzali fe'llar, ikkinchi tomondan bo'sh fe'llarga hos qonun-qoidalarga bo'ysunadi.

Masalan:

آبٌ - يَأُوبٌ - أُبٌ

- b) Agar birinchi o'zak harf hamza, uchinchi o'zak harf illatli undosh bo'lsa, bunday fe'llar bir jihatdan noqis fe'llar kabi tuslanadi.

Masalan:

أَلَا - يَأْلُو - أَلُو

- v) Fe'llarning ikkinchi o'zak harfi hamza, uchinchisi illatli bo'lishi mumkin.

Masalan:

بَا - يَبُوءُ - أَبُوءُ

3. Agar ikkinchi o'zak harf illatli, uchinchi esa hamza bo'lsa, bunday fe'llar bir jihatdan hamzali fe'llar kabi tuslanadi.

Masalan:

سَاءَ - يَسُوءُ - سُوءٌ

*Eslatma:* (رَأَى) fe'li hamzali va noqis fe'llar kabi tuslanishidan tashqari 1-bob hozirgi-kelasi zamoni va buyruq mayli shaklida, 4-bobning barcha shaklida hamza tushib qoladi.

Masalan:

I. رَأَى - يَرَى - رَأَى (رَه)

II. أَرَى - يُرَى - أَرَى

### Fe'llarning tuslanish jadvali

رَأَى - المضارع			رَأَى - الماضي		
جمع	مثنى	مفرد	جمع	مثنى	مفرد
نَرَى	-	أَرَى	رَأَيْنَا	-	رَأَيْتُ
تَرُونَ	تَرَيَانِ	تَرَى	رَأَيْتُمْ	رَأَيْتُمَا	رَأَيْتَ
تَرِينَ		تَرَيْنَ	رَأَيْتُنَّ		رَأَيْتِ
يَرُونَ	يَرَيَانِ	يَرَى	رَأَوْا	رَأَيَا	رَأَى
يَرِينَ	تَرَيَانِ	تَرَى	رَأَيْنَ	رَأَتَا	رَأَتْ

Agar fe'l tarkibida ikkita illatli undosh bo'lsa, bunday fe'llar arsb tilida «لفيف» deyiladi va ular ikkiga bo'linadi:

a) birinchi va uchinchi o'zak undoshlari illatli bo'lgan fe'llar (لفيف، مفروف):

وَلَى - يَلِي - لِي

b) ikkinchi va uchinchi o'zak undoshlari illatli harf bo'lgan fe'llar (لفيف مقرون):

طَوَى - يَطْوِي

### Fe'llarning tuslanish jadvali

حَيّ - المضارع			حَيّ - الماضي		
جمع	مثنى	مفرد	جمع	مثنى	مفرد
نَحْيَا	-	أَحْيَا	حَيَيْنَا	-	حَيَّيْتُ
تَحْيُونَ	تَحْيِيَانِ	تَحْيَا	حَيَيْتُمْ	حَيَيْتُمَا	حَيَّيْتِ
تَحْيِينَ		تَحْيِينَ	حَيَيْتُمْ		حَيَّيْتِ
يَحْيُونَ	يَحْيِيَانِ	يَحْيَا	حَيُّوا	حَيَّا	حَيَّيْ
يَحْيُونَ	يَحْيِيَانِ	يَحْيَا	حَيَّيْنِ	حَيَّيْنَا	حَيَّيْتُ

### SAVOLLAR

1. Janday fe'llar noqis fe'llar deyiladi?
2. Ularning tuslanishida qanday fonetik o'zgarishlar ro'y beradi?
3. Noqis fe'llarni o'tgan zamonda tuslang.
4. O'ozirgi-kelasi zamonda tuslang.
5. O'osila boblari haqida gpiring.

### ADABIYOTLAR

1. Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. T., 1997 y., ..
2. Talabov E. Arab tili. T., 1992 y.
3. Holidov B.Z. Uchebnik arabskogo yaz'ka. T., 1977 y.
4. Grande B.M. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitel'no-istoricheskom osveshenii. M., 1998.
5. Kovalev A.A., Sharbatov G.Sh. Uchebnik arabskogo yaz'ka. M., 1998.

### 7.1. لیس FE'LI

#### REJA

1. لیس fe'li haqida ma'lumot
2. Uning noqis ma'noli bo'lishi haqida

Bu fe'l كان va unga o'hshash fe'llardan bo'lib, ega va kesimdan iborat jummalarga kiradi. Egani o'z holida qoldirib, kesimning tushum kelishigida bo'lishini yoki ب predlogi bilan kasrali bo'lishini talab qiladi.

Masalan:

مُحَمَّدٌ عَالِمٌ - Muhammad olim

مُحَمَّدٌ لَيْسَ بِعَالِمٍ yoki لَيْسَ عَالِمًا - Muhammad olim emas

Bu fe'l ham muannas (3 shahs muannas ko'plikdan) boshlab ning si tushib qoladi. Chunki unga muannas nuni (ن) kirganda o'zidan oldingi harfni sukunli bo'lishini talab qiladi. Huddi فعلن - فعل kabi. Bunda لیس - لسن bo'ladi. Natijada ikki sukunli harf yonma-yon keldi. Bu arablar yomon ko'radigan holat hisoblanadi. Illat harfi bo'lgani uchun ی olib tashlanadi. لیس fe'li ko'pincha «emas» deb tarjima qilinadi.

#### SAVOLLAR

1. لیس fe'li qanday fe'llar toifasiga kiradi?
2. لیس fe'lidan keyin ot-kesim qaysi kelishikda turadi?
3. لیس o'zbek tiligi qanday tarjima qilinadi?

#### TAYANCh IBORALAR

1. YOrdamchi fe'l
2. Noqis fe'l

3. Ot-kesim
4. Inkor fe'l

#### ADABIYOTLAR

1. Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. T., 1997 y., ..
2. Talabov E. Arab tili. T., 1992 y.
3. Holidov B.Z. Uchebnik arabskogo yaz'ka. T., 1977 y.
4. Grande B.M. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitel'no-istoricheskom osveshenii. M., 1998.
5. Kovalev A.A., Sharbatov G.Sh. Uchebnik arabskogo yaz'ka. M., 1998.

#### 7.2.-7.6. BOSHLASH VA DAVOM ETISHNI ANGLATUVCHI FE'LLAR

##### REJA

1. YOrdamchi fe'llar
2. Boshlash fe'llari
3. Boshlash fe'llarining ishlatilishi
4. Davom etishni anglatuvchi fe'llar

Sub'ektning ish-harakatni bildiruvchi yetakchi fe'l bilan kelib, unga qo'shimcha ma'no beruvchi fe'llar *yordamchi fe'llar* deyiladi. YOrdachi fe'llar quyidagi ma'nolarni anglatadi:

1. Gapdagi ish-harakatning boshlanishini bildirish uchun quyidagi fe'llar ishlatiladi: أخذ ، بدأ ، ابتداءً ، جعل ، راح ، شرع ، أصبح ، صار ، أقبل ، قام

Bu fe'llardan keyin asosiy fe'l hozirgi-kelasi zamonda ishlatiladi. Mazkur qo'shimcha fe'lning zamonini yordamchi fe'llar aniqlaydi: qo'shma fe'l o'tgan zamonda bo'lsa, ular ham o'tgan zamonda, qo'shma fe'l hozirgi-kelasi zamonda bo'lsa, yordamchi fe'l ham hozirgi-kelasi zamonda keladi.

Masalan:

بَدَأَ الْعُمَّالُ يَعْمَلُونَ مِنَ الصَّبَاحِ - *Ishchilar ertalabdan ishlay boshladilar.*

2. Ish-harakatning o'tgan zamonda bajarilganligini va hozirgi zamonda ham

davom etayotganligini quyidagi yordamchi fe'llar bildiradi: ظَلَّ ، وَاصَلَ ، مَضَى ، مَا بَرِحَ ، مَا فَتِيَ ، مَا زَالَ ، اسْتَمَرَ ، دَامَ ، تَابَعَ . Bu fe'llardan keyin ham asosiy fe'l hozirgi-kelasi zamonda qo'yiladi.

Masalan:

كَانَ شَعْبُنَا يُنَاضِلُ وَلَا يَزَالُ يُنَاضِلُ مِنْ أَجْلِ السَّلَامِ - *Halqimiz tinchlik uchun kurashgan va hozir ham kurashishda davom etmoqda*

تَابَعَ الرَّجُلُ يَسِيرُ حَتَّى الْمَسَاءِ - *U kishi kechgacha yurishda davom*

*etdi*

## SAVOLLAR

1. Yordamchi fe'llar nima vazifani bajaradi?
2. Jaysi fe'llar boshlash fe'llarini ifodalaydi?
3. Davom etishni ifodalashda qaysi fe'llardan foydalaniladi?
4. Boshlash va davom etish fe'llari asosiy fe'l bilan qanday moslashadi?

## TAYANCh IBORALAR

1. Fe'llar
2. Yordamchi fe'llar
3. Boshlash fe'llari
4. Davom etish fe'llari

## ADABIYOTLAR

1. Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. T., 1997 y., ..
2. Talabov E. Arab tili. T., 1992 y.
3. Holidov B.Z. Uchebnik arabskogo yaz'ka. T., 1977 y.
4. Grande B.M. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitel'no-istoricheskom osveshenii. M., 1998.
5. Kovalev A.A., Sharbatov G.Sh. Uchebnik arabskogo yaz'ka. M., 1998.

9.1.-9.3. BOo'LOVChILAR.  
TENG BOo'LOVChILAR.

REJA

1. Boqlovchilarning turlari
2. Zidlovchi boqlovchilar
3. Ayiruvchi boqlovchilar
4. Biriktiruvchi boqlovchilar
5. Tushuntiruvchi boqlovchilar

Jumlada ega, kesim, to'ldiruvchi va hol kabi bosh va ikkinchi darajali bo'laklar bo'lishi hammaga ma'lum. Ba'zi hollarda shu bo'laklar jumlada bir nechta bo'lib, uyushib kelishi mumkin. Bunday uyushib kelgan bo'laklarni *uyushiq bo'laklar* deyiladi. Uyushiq bo'laklar bir hil jinsda, sonda, kelishikda va maylda bo'ladilar. Bunday bo'laklar bir-birlari bilan turli boqlovchilar orqali boqlanadilar:

1. *Biriktiruvchi boqlovchilar.*

Bunday boqlovchilarga  $\text{فَ}$  ،  $\text{و}$  ،  $\text{ثُمَّ}$  lar kiradi. Bulardan  $\text{و}$  ikkita bir hil bo'lakni o'zaro teng boqlaydi.  $\text{فَ}$  boqlovchisi *esakeyin* degan ma'noni bildirib, biriga ikkinchisini qisqa muddatdan so'ng boqlaydi.  $\text{ثُمَّ}$  boqlovchisi ma'lum bir vaqtdan so'ng boqlaydi.

Masalan:

$\text{محمود يقرأ و يكتب}$  - *Muhammad o'qiyapti va yozyapti*

$\text{دخل عثمان و عمر فسلم}$  - *Usmon va Umar kirdi, birozdan*

so'ng

Salim kirdi.

جاء محمود ثم أخواه - Mahmud keldi so'ngra uning

ikki

akasi keldi.

2. Zidlovchi boqlovchilar.

بُنْ va لَكِنْ لِكِنْ. بُنْ va لَكِنْ لِكِنْ. بُنْ va لَكِنْ لِكِنْ.

va gapning bir bo'lagini ikkinchi bo'lagiga teskari qo'yadi.

Masalan:

ما كتب سليم بل محمود - Salim emas. Mahmud yozdi.

لا تفتح الباب لكن النافذة - Eshikni emas, derazani och.

boqlovchisi ham bir bo'lakni ikkinchisiga qarshi qo'yadi, lekin u inkor yuklama kirmagan jumlagaga kiradi.

Masalan:

القاعدة خاصة و لا عامة - Joida hususiy, umumiy emas.

3. Ayiruvchi boqlovchilar.

Bularga أو va إِمَّا...إِمَّا boqlovchilari kiradi. Bu boqlovchilar bir necha narsadan bittasini tanlashga dalolat qiladi.

Masalan:

إشرب في الصباح شايًا أو قهوة - Ertalab yo choy, yoki kofe ich.

خذ إما كتابًا و إما دفترًا - YO kitobni, yoki daftarni ol.

boqlovchisi ham huddi yuqoridagi ma'noda ishlatiladi. Lekin u so'roq jumllariga kiradi.

Masalan:

أ أنت أكلت البيضة أم فاطمة؟ - Tuhumni sen yedingmi yoki

Fotimami?

4. Tushuntiruvchi boqlovchi.

Bunga أي - «ya'ni» boqlovchisi kiradi.

Masalan:

جاء الخياط أي سليم - Tikuvchi keldi, ya'ni Salim.

## SAVOLLAR

1. Boqlovchilar qanday turlarga bo'linadi?
2. Zidlovchi boqlovchilarga nimalar kiradi?

## TAYANCh IBORALAR

1. Boqlovchi
2. Zidlovchi
3. Biriktiruvchi
4. Ayiruvchi
5. Tushuntiruvchi
6. Uyushiq bo'lak

## ADABIYOTLAR

1. Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. T., 1997 y., ..
2. Talabov E. Arab tili. T., 1992 y.
3. Holidov B.Z. Uchebnik arabskogo yaz'ka. T., 1977 y.
4. Grande B.M. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitel'no-istoricheskom osveshenii. M., 1998.
5. Kovalev A.A., Sharbatov G.Sh. Uchebnik arabskogo yaz'ka. M., 1998.

## 10.-10.12. PREDLOGLAR

### *Tub va yasama predloglar. Jo'shib yoziladigan va ajratib yoziladigan predloglar.*

## REJA

1. Predloglar haqida tushuncha
2. Tub predloglar
3. YAsama predloglar
4. Jo'shib yoziladigan predloglar
5. Ajratib yoziladigan predloglar

Predloglar so'z turkumining حرف guruhiga kiritiladi. Bunday so'zlar mustaqil ma'no bildiruvchi so'zlar oldidan kelib, ana shu so'zni qaratqich kelishigida turishiga sabab bo'ladi.

Arab tilida predloglar ikki qismga ajratiladi:

1. Mustaqil predloglar
2. Ravish predloglar

Mustaqil predloglarga في - da, ichida, على - ga, da, ustida, من - dan, حتى - gacha, ب - bilan, ل - uchun, ga tegishli, bilan, birga va shu kabi predloglar kiradi.

Ravish predloglarga esa فوق - ustida, تحت - ostida, tagida, بين - o'rtasida, بعد - keyin, قبل - avval, أمام - yaqinida, وراء - orqasida, داخل - ichida, خارج - tashqarisida va shu kabi predloglar kiradi.

Bu predloglardan ayrimlari berilgan so'zga qo'shib yoziladi, qolganlari esa alohida ishlatiladi.

Masalan:

Alloh nomi bilan - بسم الله O'qituvchi uchun - للمعلم

Uygacha - حتى بيت Darsdan so'ng - بعد الدرس

Ravish predloglarning ba'zilar mustaqil ma'nodagi so'z ham bo'lib kelishi mumkin. Ular predlog vazifasiga o'tganida tushum kelishigi formasini oladi.

Masalan:

ichkari - داخلٌ uying ichkarisida - داخل البيت

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerak-ki, bu predloglar mustakil so'z bo'lib, boshqa predloglar bilan birga ham ishlatilishi mumkin.

Masalan:

tashqari - خارجٌ shahar tashqarisida - في خارج المدينة

Arab tilida faqat uchtagina kelishik bo'lganligi sababli predloglar ko'p ishlatilib, qolgan kelishiklar ma'nolarini ifodalab kelishi mumkin.

Yuqorida biz predlogdan keyin kelgan so'z qaratqich kelishigida ishlatiladi, degan edik. Agar so'z uch kelishikli bo'lsa, u aniq *tanvin-kasra* harakatiga tugaydi:

من + كتابٌ = من كتابٍ

Agar so'z ikki kelishikli bo'lsa, u fatha bilan tugasa ham qaratqich kelishigida hisoblanadi:

خارجٌ + طشقندٌ = خارج طشقند

Bordiyu so'z kelishiklarda turlanmasa, uning harakati predlog ta'sirida ham o'zgarmaydi:

من + عصاً = من عصاً

### Ba'zi predloglarning ma'nolari

Yuqorida eslatib o'tgan predloglarimiz o'z vazifasiga qarab ishlatiladi:

في - predmetning joylashishini, uning o'rnini va vaqtini bildiradi. Yana u

biror narsa ichidaligini ko'rsatadi: *qadimda*, في المصنع - في القديم - *zavodda*.

على - bu predlog ham في ga o'hshaydi. YA'ni predmetning joylashuvi,

uning o'rnini bildiradi. Faqat في da biror narsaning ichidaligiga

ishora qilingan bo'lsa, على predlogi biror narsaning ustida

joylashganligiga ishora qiladi: على الأرض - yer ustida.

إلى - ish-harakati yo'naltirilgan joy yoki shahsni bildiradi: إلى المعلم

*o'qituvchiga, إلى السوق - bozorga.*

حتى - ish-harakatining ma'lum vaqt yoki joygacha ekanligini bildiradi:

*tonggacha, حتى الصباح, universitetgacha, حتى الجامعة.*

من - predlogi quyidagi ma'nolarni bildiradi:

a) ish-harakatining boshlanish joyini bildiradi: *o'rmondan, من غابة*,

— *Moskvadan, من موسكو*.

b) predmet tayyorlangan materialga ishora qiladi: *حاتم من ذهب - oltin uzuk (oltindan yasalgan uzuk).*

v) Tegishlilik yoki butunning bir qismini ifodalaydi: *طائفة من المثقفين - bir guruh ziyolilar.*

ب - birgalikda amalga oshirilgan ish-harakatni ifodalaydi: *ضرب بالعصا - hassa bilan urdi.*

مَعَ - ish-harakatning birgalikda bajarilishini bildiradi: *مع المعلم - o'qituvchi bilan.*

لِ - tegishlilik, egalik, sabab, maqsad va shu kabi ma'nolarni ifodalaydi:

*تربة صالحة, talabaga dedi, قال للطالب, qoqoz fabrikalari, مصانع للورق - ekish uchun yaroqli tuproq. للزراعة*

عِنْدَ - biror narsaninn boshqa biror narsaga nisbatan joylashgan joyini bildiradi: *عند المعلم - o'qituvchi oldida (huzurida).*

كَ - qiyoslash ma'nosini bildiradi: *كالنار - olovdek.*

عَنْ - *haqida, ..dan* kabi ma'nolarni bildiradi:

*عن طيب خاطر - chin dildan*

*سأل عن سليم - Salim haqida so'radi.*

## SAVOLLAR

1. Predlog nima?
2. Tub predloglar qanday yasaladi?
3. YAsama predloglar qanday yasaladi?
4. Predloglardan keyin kelgan ismlar qaysi kelishikda qo'yiladi?

## ADABIYOTLAR

1. Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. T., 1997 y., ..
2. Talabov E. Arab tili. T., 1992 y.
3. Holidov B.Z. Uchebnik arabskogo yaz'ka. T., 1977 y.
4. Grande B.M. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitel'no-istoricheskom osveshenii. M., 1998.
5. Kovalev A.A., Sharbatov G.Sh. Uchebnik arabskogo yaz'ka. M., 1998.

### 11.-11.8. YuKLAMALAR

#### So'roq yuklamalari

##### REJA

1. So'roq gaplarning qismlarga bo'linishi.
2. So'roq gaplar haqida ma'lumot.
3. So'roq so'zlarning ishlatilish o'rinlari.

Tarkibidagi so'roqning ma'nosiga qarab so'roq gaplar uch turga bo'linadi:

1. *Umumiy so'roq gap.* O'a yoki yo'q so'zlariga javob bo'ladigan so'roq gaplar *umumiy* so'roq gaplardir. Bunday so'roq gaplar هل yoki أ yuklamalari yordamida yasaladi.

Masalan:

هَلْ أَنْتَ طَالِبٌ - *Sen dehqonmisan?*

أ هِيَ فَالاحَةُ - *U ayol dehqonmi?*

2. *Mahsus so'roq gap.* Muayyan so'roq yuklamalari yordamida yasaladigan va to'la javobni talab qiladigan so'roq gaplar *mahsus so'roq gap* deyiladi. Bunday gaplar so'roq yuklamalari bilan boshlanadi. Arab tilida quyidagi so'roq yuklamalari mavjud:

كيف - àèèè?, متى - àèèè?, ما - àèèè?, ماذا - àèèè?, أيّ - àèèè?

qanday?, من - èèèè?, أين - èèèè? Bularga turli predloglar qo'shilib yangi

so'roq olmoshlari yasaladi: لِمَا - nima uchun?, إِلَى أَيْنَ - qaerga?, مِنْ أَيْنَ -

qaerdan?, إِلَى مَتَى - qachongacha?, بِكَمْ - qanchadan? va hokazolar.

Masalan:

أَيْنَ أَبُوكَ - *Otang qaerda?*

## SAVOLLAR

1. Janday gaplar so'roq gaplar deyiladi?
2. So'roq gaplar ma'nosiga ko'ra necha turga bo'linadi?
3. Janday so'roq so'zlarni bilasiz?
4. **ك** olmoshi o'zidan keyingi ism bilan qanday holatda turadi?

## TAYANCh IBORALAR

1. Yuklama
2. So'roq yuklamasi
3. Mahsus so'roq gaplar
4. Umumiy so'roq gaplar

## ADABIYOTLAR

1. Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. T., 1997 y., ..
2. Talabov E. Arab tili. T., 1992 y.
3. Holidov B.Z. Uchebnik arabskogo yaz'ka. T., 1977 y.
4. Grande B.M. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitelno-istoricheskom osveshenii. M., 1998.
5. Kovalev A.A., Sharbatov G.Sh. Uchebnik arabskogo yaz'ka. M., 1998.

## INKOR YUKLAMALARI

### REJA

1. Inkor yuklamalari haqida umumiy ma'lumot
2. Moziy fe'llar bilan keladigan yuklamalar
3. Muzore' fe'llari bilan keladigan yuklamalar

Arab tilida turli inkor yuklamalari mavjud. Bulardan **ما** inkor yuklamasi asosan moziy fe'llarini inkor qilishda ishlatiladi.

Masalan:

**ما كتب محمود** - *Mahmud yozmadi.*

**ما ذهب زيد** - *Zayd bormadi.*

Muzore' fe'lini inkor qilish uchun **لا** inkor yuklamasi ishlatiladi.

Masalan:

**لا يكتب محمد** - *Muhammad yozmayapti.*

Bundan tashqari لم inkor yuklamasi ham bor. Bu yuklama muzore' fe'lining ma'nosini moziyga aylantiradi.

Masalan:

لم يقرأ محمد - *Muhammad o'qimadi.*

لما yuklamasi ham shu ma'noda ishlatiladi.

Ismlarni inkor qilish uchun ليس (emas) fe'li bilan لا yuklamasi ishlatiladi. Bular odatda ega va kesimdan tashkil topgan jumlagacha kirib, egani bosh kelishikda qoldirib, kesimni tushum kelishigiga qo'yadi.

Masalan:

زيد ليس عالماً - *Zayd olim emas.*

Agar لا inkor yuklamasi jinsni inkor qilishda ham ishlatiladi.

Masalan:

لا يوجد أحدٌ في الدار - *O'ovlida hech kim yo'q.*

## SAVOLLAR

1. Inkor yuklamalari haqida nimalarni bilasiz?
2. Moziy fe'llarga qanday inkor yuklamalari ishlatiladi?
3. Muzore' fe'llari bilan qanday inkor yuklamalari keladi.

## TAYANCh IBORALAR

1. Inkor yuklamasi
2. Moziy fe'llar
3. Muzore' fe'llari

## ADABIYOTLAR

1. Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. T., 1997 y., ..
2. Talabov E. Arab tili. T., 1992 y.
3. Holidov B.Z. Uchebnik arabskogo yaz'ka. T., 1977 y.
4. Grande B.M. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitel'no-istoricheskom osveshenii. M., 1998.
5. Kovalev A.A., Sharbatov G.Sh. Uchebnik arabskogo yaz'ka. M., 1998.

## TA’KID YUKLAMALARI

Bunday yuklamalarga *جميع*، *كل*، *عين*، *نفس*، *عامّة* lar kiradi. Avvalo bu soʻzlar taʼkidlanayotgan ismdan gumonni ketkazish uchun ishlatiladi. Masalan, *Zaydning oʻzi keldi* degan misol Zaydning habari keldimikin, hati keldimikan, yoki oldidan odam keldimikan degan gumonni ketkazadi. Bu taʼkid yuklamasida taʼkidlanayotgan ismga qaytuvchi olmosh boʻlishi shart va ular bir-biri bilan jinsda va sonda moslashadi.

Masalan:

*جاءت الفتيات كلهن* - *Jizlarning hammasi kelishdi.*

*جاء القوم كلهم* - *Javmning hammasi keldi.*

## SAVOLLAR

1. Taʼkid yuklamalari haqida nimani bilasiz?
2. Bu yuklamalar qanday qismlarga boʻlinadi?
3. Bu yuklamalarning vazifalari nimalardan iborat?

## TAYANCh IBORALAR

1. Taʼkid yuklamalari

2. Jaytuvchi olmosh
3. Jinsda va sonda moslashuv
4. Gumonni ketkazish

## ADABIYOTLAR

1. Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. T., 1997 y., ..
2. Talabov E. Arab tili. T., 1992 y.
3. Holidov B.Z. Uchebnik arabskogo yaz'ka. T., 1977 y.
4. Grande B.M. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitel'no-istoricheskom osveshenii. M., 1998.
5. Kovalev A.A., Sharbatov G.Sh. Uchebnik arabskogo yaz'ka. M., 1998.

## ShART YuKLAMALARI

### REJA

1. Shart yuklamalari haqida umumiy ma'lumot.
2. Ularning fe'llarga ta'siri haqida.
3. Ularning taqsimlanishi haqida.

Fe'lning ohiri sukunli (jazm) bo'lishini talab qiladigan yuklamalar ikki qismga bo'linadi:

1. Shart ma'nosini qo'yadigan va o'zidan keyingi ikkita fe'lni sukunli bo'lishini talab qiladigan yuklamalar. Bularga *مَتَى* ، *مَهْمَا* ، *إِنْ* kabi yuklamalar kiradi.

Masalan:

*إِنْ تَدْرُسْ تَعَلَّمَ* - Agar o'qisang bilasan.

*مَتَى تَذْهَبُ أَذْهَبُ* - Jachon ketsang ketaman.

2. Shart ma'nosini bermasdan, o'zidan keyingi bitta fe'lni shart mayliga qo'yadigan yuklamalar. Bularga *لَمْ* ، *لَ* yuklamalari kiradi.

Masalan:

*لَمْ يَكْتُبْ مُحَمَّدٌ* - Muhammad yozmadi.

*لَيَذْهَبُ زَيْدٌ إِلَى الْمَدْرَسَةِ* - Zayd maktabga borsin.

## SAVOLLAR

1. Shart yuklamalari haqida nimalarni bilasiz?
2. Shart yuklamalari fe'llarga qanday ta'sir ko'rsatadi?
3. Ular necha turga bo'linadi?
4. Bitta fe'lni jazm qiluvchi yuklamalar qaysilar?

#### TAYANCh IBORALAR

1. Jazmni talab qiluvchi yuklama
2. Shart mayliga qo'yish
3. Shart yuklamasi
4. Yuklamaning ta'siri

#### ADABIYOTLAR

1. Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. T., 1997 y., ..
2. Talabov E. Arab tili. T., 1992 y.
3. Holidov B.Z. Uchebnik arabskogo yaz'ka. T., 1977 y.
4. Grande B.M. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitel'no-istoricheskom osveshenii. M., 1998.
5. Kovalev A.A., Sharbatov G.Sh. Uchebnik arabskogo yaz'ka. M., 1998.

#### ISTISNO YuKLAMALARI

##### REJA

1. Istisno yuklamalari haqida umumiy ma'lumot.
2. Bu yuklamalarning qismlarga bo'linishi.
3. لا yuklamasining istisno ma'nosida ishlatilishi.
4. غير yuklamasining istisno ma'nosida kelishi.

Avvalo istisno-bu o'zidan avval o'tgan narsalar hukmidan biror narsani إلا va shunga o'hshash yuklamalar yordamida ajratib olishdir.

Masalan:

جاء الطلاب إلا زيدا - *Zayddan boshqa talabalar keldilar.*

Istisnoda quyidagi yuklamalar ishlatiladi: إِلا ، غَيْرَ ، سِوَى ، عَدَا خِلا ، لَيْسَ

Agar mustasno inokr bo'lmagan jumladan keyin kelsa, mustasno nasb holatida bo'ladi.

Masalan:

- قَدَّمَ الحُجَّاجُ إِلاَّ واحِداً

Agar mustasno mustasno minhuning jinsidan boshqa bo'lsa ham nasb bo'ladi.

Masalan:

- ما جاءَ القَوْمُ إِلاَّ زَيْداً - *Zayddan tashqari qavmning hammasi keldi.*

Agar jumla manfiy bo'lsa, mustasno minhu zikr qilinmagan bo'lsa, mustasno mustasno minhu zikr qilinganda qaysi kelishikda bo'lsa, o'sha kelishikda bo'ladi.

Masalan:

ما رَأَيْتُ أَحَداً إِلاَّ aslida ما رَأَيْتُ إِلاَّ خالداً yoki ما جاءَ أَحَدٌ إِلاَّ زَيْداً aslida ما جاءَ إِلاَّ زَيْداً

خالدا

حَاشَا ، خِلا ، عَدَا lardan keyingi mustasno majrur bo'ladi.

Masalan:

- ما رَأَيْتُ خِلا زَيْداً - *Zayddan boshqasini ko'rmadim.*

- ما أَكَلْتُ عَدَا لَحْمٍ - *Go'shtdan boshqasini yemadim.*

## SAVOLLAR

1. Istisno yuklamalari haqida nimalarni bilasiz?
2. Bu yuklamalar necha qismga bo'linadi?
3. إِلاَّ yuklamasi qanday moslashadi?
4. عَدَا ، خِلا ، حَاشَا yuklamalaridan keyingi ismning harakati qanday bo'ladi?

## TAYANCh IBORALAR

1. Istisno yuklamalari
2. Mustasno
3. Manfiy jumla

## ADABIYOTLAR

1. Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. T., 1997 y., ..
2. Talabov E. Arab tili. T., 1992 y.
3. Holidov B.Z. Uchebnik arabskogo yaz'ka. T., 1977 y.
4. Grande B.M. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitelno-istoricheskom osveshenii. M., 1998.
5. Kovalev A.A., Sharbatov G.Sh. Uchebnik arabskogo yaz'ka. M., 1998.

## ISTAK MAYLI YuKLAMALARI

### REJA

1. Istak mayli haqida umumiy ma'lumot.
2. Istakni ifodalashda ishlatiladigan yuklamalar.
3. Istak maylining qoidalar.

Bu mayl ish-harakatni bajarishdan ko'zlangan maqsadni ifodalash uchun ishlatiladi. Buning uchun fe'ldan oldin كِي yoki لِ yuklamalari ishlatiladi. لِ yuklamasi istak maylidagi fe'lga qo'shib yoziladi.

Masalan:

يَكْتُبُوا - YOzishlari uchun

كِي أَفْهَمَ - Tushunishim uchun

Agar istak mayyidagi fe'l inkor ma'nosida bo'lsa, bu yuklamalardan keyin لا yuklamasi qo'yiladi: لا + كَي + ل = لَكَيْلَا

Masalan:

لا تَظْلِمُ لِكَيْلَا تُظْلَمَ - *Zulm ko'rmayin desang, zulm qilma.*

Istak, maqsad, niyat, zarurat, imkoniyat kabi turli hissiyotlarni ifodalovchi fe'llar oldidan اَنَّ , agar istak mayli inkor ma'noda bo'lsa اَلَّا = لا + اَنَّ yuklamasi ishlatiladi.

Masalan:

اسْمَحْ لِي اَنْ اَقْرَأَ - *O'qishimga ruhsat bering.*

اُرِيدُ اَنْ اَكْتُبَ رِسَالَةً - *Hat yozishni hohlayman.*

اَلَّا يَضُرِّيَنِي - *Meni urmasligi uchun.*

Istak mayli حَتَّى yuklamasidan keyin ham ishlatiladi va u –gacha ma'nosini bildiradi.

Masalan:

سَهَرْتُ حَتَّى اللَّيْلِ - *Tungacha bedor bo'ldim*

لَنْ yuklamasidan keyin ham istak mayli formasi ishlatiladi va kelasi zamonda mutloq amalga oshmaydigan ish-harakatni bildiradi.

Masalan:

لَنْ اُذْهَبَ مَعَكَ - *Sen bilan hech qachon bormayman.*

## SAVOLLAR

1. Arab tilida necha hil mayl bor?
2. Istak mayli nimani ifodalaydi?
3. Janday yuklamalar istak maylini ifodalaydi?

## TAYANCh IBORALAR

1. Istak mayli
2. Mayl
3. O'issiyotni ifodalovchi fe'llar
4. لَنْ yuklamasi

## ADABIYOTLAR

1. Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. T., 1997 y., ..
2. Talabov E. Arab tili. T., 1992 y.
3. Holidov B.Z. Uchebnik arabskogo yaz'ka. T., 1977 y.
4. Grande B.M. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitel'no-istoricheskom osveshenii. M., 1998.
5. Kovalev A.A., Sharbatov G.Sh. Uchebnik arabskogo yaz'ka. M., 1998.

## KELASI ZAMON YUKLAMALARI

### REJA

1. Kelasi zamon yuklamalari haqida ma'lumot.
2. Ularning ma'no ifodalashdagi vazifasi.
3. Ularning turlari haqida.

Kelasi zamon yuklamalariga quyidagi yuklamalar kiradi:

1. سَ yoki سَوْفَ yuklamasi. Bu yuklamalar ish-harakatning kelasi zamonda sodir bo'lishini ifodalaydi.

Masalan:

سَأَكْتُبُ - *yozyapman* - سَوْفَ أَكْتُبُ - *kelajakda yozaman*.

Inkor formadagi gaplar bilan سوف yuklamasi ishlatiladi.

Masalan:

سَوْفَ لَا أَكْتُبُ - *(Kelajakda) yozmayman*.

2. قَدْ yuklamasi. Bu yuklama ish-harakatning bajarilishidagi gumonni, ehtimollikni bildiradi.

Masalan:

قَدْ يَذْهَبُ - *Ehtimol u borar.*

## SAVOLLAR

1. Kelasi zamon yuklamalari haqida nimalarni bilasiz?
2. Ular qanday ma'noni ifodalaydi?
3. Ular qanday turlarga bo'linadi?

## TAYANCh IBORALAR

1. Yuklamalar
2. Kelasi zamon yuklamalari
3. Inkor formasidagi fe'llar
4. Gumonni bildiruvchi fe'llar

## ADABIYOTLAR

1. Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. T., 1997 y., ..
2. Talabov E. Arab tili. T., 1992 y.
3. Holidov B.Z. Uchebnik arabskogo yaz'ka. T., 1977 y.

## 12.-12.1. SINTAKSIS SODDA GAP SINTAKSISI

### REJA:

1. Sintaksis haqida tushuncha.
2. Morfologiya haqida tushuncha.
3. Sodda gap haqida ma'lumot.
4. Ikki markazli gaplar.

O'ar bir til grammatikasi so'z shakllarini, so'z yasalishining morfologik xususiyatlarini va so'zlarning birikib gap hosil qilish usullarini o'rganadi. Grammatika ikki bo'limdan: morfologiya va sintaksisdan iborat. So'zning tarkib nuqtai nazaridan o'rganish morfologiyaning vazifasidir. Morfologiya so'zlarning shakli va ma'nosidagi umumiylikka asoslanib tasnif qiladi. Sintaksis so'zlarning birikuv qoidalarini, so'z birikmalarini va gaplarning tuzilishini, ularning turlarini o'rganadi.

Sintaksis tilning sintaktik qurilishini, ya'ni sintaktik birliklar hamda ular orasidagi o'zaro aloqa va munosabatlarni o'rganadi. Sintaktik aloqa - gaplarda so'zlarning va so'z birikmalarining o'zaro grammatik boqlanishini bildiradi.

Sintaktik munosabat esa so'z birikmasi va gapdagi so'zlarning bir-biriga nisbatan qanday grammatik ma'no va vazifada qo'llanishini bildiradi.

So'zlarni gap vazifasida qo'llash qoidalari va gapda so'zlarning so'z birikmalariga birikuv qoidalari u yoki bu til sintaksisining asosini tashkil qiladi. Hulusa qilib

aytganda sintaksisning vazifasi tilning sintaktik qurilishini o'rganishdir. Sintaksis so'zlarning bir-biriga boqlanishini, ya'ni so'z birikmalari, gaplar va gaplardagi so'zlarning bir-biriga nisbatan bajaragan vazifalarini o'rganadi.

Gapdagi so'zlar bir-biri bilan o'zaro boqlangan bo'lib, bu so'zlarning har biri gap tarkibida biror grammatik vazifani bajaradi. Gap bo'laklari sintaktik kategoriya bo'lib, gapdagi so'zlarning o'zaro munosabatini, bu so'zning gapdagi rolini ko'rsatadi.

Gapdagi so'z o'zining grammatik tabiatiga muvofiq faqat grammatik ma'nolarni ifodalabgina qolmasdan, sintaktik munosabatlarni ifodalash vazifasini ham bajaradi. Gap bo'laklarini tasnif qilish sintaksisning qiyin va muhim muammosidir. Gap bo'laklarini ajratishda sintaktik munosabatlarning harakteri, muayyan joylashish holati, shuningdek, ularning bir-biri bilan sintaktik boqlanganlik darajasini asosiy mezon qilib olish mumkin.

Gap bo'laklari gapni tashkil qilishdagi rolga qarab ikki hil bo'ladi: bosh bo'laklar va ikkinchi darajali bo'laklar. Bosh bo'laklar gapning mazmun jihatidan ham, shakliy jihatidan ham o'zaro boqlangan ikki uyushtiruvchi markazi bo'lib, ular o'zaro predikativ aloqa orqali tutash bo'ladi. Bu predikativ yadro, konstruktiv markaz ikki markazli gapning asosidir. Ikki markazli gaplarda har bir markazning grammatik hokim so'zi birgalikda gapning bosh bo'laklarini tashkil qiladi. Gapning ikkinchi darajali bo'laklari - ikki markazning hokim elementlaridan boshqa bo'laklari.

Demak, gapning bo'laklari ma'lum grammatik qoidalar asosida bir-biri bilan boqlanib turli sintaktik guruhlarni - butunlikni hosil qiladi.

Arab tilida ham huddi o'zbek va rus tillari kabi gap bo'laklari ikki hil bo'ladi - bosh bo'laklar va ikkinchi darajali bo'laklar. Ikkinchi darajali bo'laklar yo egaga, yo kesimga boqlanib, yo ega markazini, yo kesim markazini hosil qiladi, ya'ni ega va kesim markazi ikki markazli gapning strukturasi tashkil qiladi.

Gapning bosh bo'laklari gapni sintaktik va semantik tashkil qilishda asosiy rol o'ynaydi va gapning butun strukturasi belgilaydi. Demak, ega va kesim gapning asosiy markazi hisoblanadi. Gapdagi qolgan bo'laklar esa ikki markazdan biriga boqlanadi. Bu markazga boqlangan elementlar shu bo'lakka tobe bo'ladi. Demak, ega va kesim o'ziga boqlangan so'zlar ustidan hokim bo'ladi. Bular hech qvnday bo'lakka tobe emas.

Bosh bo'lakning birinchi darajali sanalishi uning boshqa elementlarni tobe etishidan qat'iy nazar o'zicha mustaqillikka, bir butunlikka ega bo'lishi gapning asosini tashkil qilishidandir. qolgan bo'laklar esa bosh bo'laklarga ergashib yuradi, shunga ko'ra ular ikkinchi darajali hisoblanadi.

Darajalarni faqat tobelikka qarab belgilasak, kesimni ham ikkinchi darajali sanash lozim bo'lar edi, chunki kesim egaga tobedir. o'olbuki, u birinchi darajali bo'lak hisoblanadi. Chunki ega va kesim boshqa bo'laklarsiz bir butunlikni tashkil qila oladi. Ikkinchi darajali bo'laklarda esa bu hususiyat yo'q.

## SAVOLLAR:

1. Sintaksis nimani o'rganadi?
2. Morfologiya nima?
3. Sintaktik munosabat deganda nimani tushunasiz?
4. Ikki markazli gap nima?
5. Gapning ikkinchi darajali bo'lagi deb nimaga aytiladi?

#### **TAYANCh IBORALAR:**

1. Sintaksis.
2. Morfologiya.
3. Sintaktik aloqa.
4. Gap bo'laklari.
5. Bosh bo'lak.
6. Ikkinchi darajali bo'lak.
7. Ega markazi.
8. Kesim markazi.
9. Tobe so'z.
10. Predikativ yadro.

#### **Adabiyotlar:**

1. Sizova I.A. «Chto takoe sintaksis» M., 1966 str.15
2. Vinogradova V.V. «Ocherk osnovn'e vopros' sintaksisa predlojeniya» M., 1955 str 10.
3. Holodovich A.A. Problem' yaz'kaznaniya. 1961. str 21.
4. Muhin A.M. Funktsionaln'y analiz sintaksicheskikh elementov. M., 1964. str 25.

## 12.1. PREDIKATIV MUNOSABATLAR.

REJA:

1. Gap haqida umumiy tushuncha.
2. Predikativlik mohiyati
3. Ega kesim munosabatlari

Ko'pchilik tilshunos olimlar gapning asosida predikativ munosabat yotadi deb hisoblaydilar. Ular gapga ta'rif berganda predikativlikni ham nazardan chetda qoldirmaganlar Masalan. M.Irisqulov: «Bir yoki bir nechta so'zdan tashkil topgan predikativlik hususiyatiga va ohang butunligiga ega bo'lgan, hamda nisbiy tugal fikr anglatadigan tilning muloqat birligi gap deyiladi», -deb ta'rif bergan.

Gapni har qanday lingvistik birlikdan farqlochi asosiy belgi predikativlik. Bu masalada tilshunoslikda ikkita asosiy nuqtai nazar bor:

1. Predikativlik - gap mazmunining voqeiy borliq bilan munosabatidir.
2. Predikativlik- gap komponentlari (tarkibiy bo'laklari) orasidagi o'ziga hos munosabat.

Bu ikki nuqtai nazar bir qarashda bir-biriga qarama-qarshidek tuyulsada, lekin aslida ular bir birini to'ldiradi.

Predikativlik-aytilayotgan mazmunning voqeilikga munosabatidir deydi akademik Vinogradov. Predikativlik-har qanday gapning grammatik ma'nosini ifodalasa, predikativ munosabat ikki markazli gaplarda ega va kesim munosabatini ifodalaydi.

Predikat-asli mantiqiy kategoriya bo'lib ko'pincha grammatik kesimga mos bo'ladi.

Arab tilida predikatsiya ikki element *المُسْتَنْدُ* va *المُسْتَنْدُ إِلَيْهِ* siz bo'lishi mumkin emas. Bu ikki element orasidagi munosabat ya'ni predikativlik arab tilida *اسْتِنَادٌ* deyiladi. Bunda *المُسْتَنْدُ* kesimga (predikatga), *المُسْتَنْدُ إِلَيْهِ* esa sub'ektga to'qri keladi.

Arab nahvshunoslarining gapga bergan ta'riflari bir-bilan farq qiladi. Ba'zi olimlar uchun *جُمْلَةٌ* va *كَلَامٌ* sinonimdir.

Ibn O'ishom: *الكَلَامُ هُوَ الْقَوْلُ الْمَفِيدُ بِالْقَصْدِ* ya'ni «Gap, bu ma'lum maqsad bilan aytilgan foydali qavldir».

Ibn Uqayl: *الكَلَامُ هُوَ اللَّفْظُ الْمَفِيدُ يُحْسِنُ السُّكُوتَ عَلَيْهَا* ya'ni, «Gap -bu unga sukut muvofiq

keladigan foydali soʻz (ifoda)dir».

Zamahshariy: «Gap biri ikkinchisiga kesim boʻlgan ikki ismdan iborat boʻladi: زيدٌ عالمٌ yoki ضَرَبَ زيدٌ kabi feʼl va ismdan iborat boʻladi. U jumla deb ham, kalom deb ham ataladi».

Ibn Oʻishom ularni sinonim demaydi va «و الجملة أعمُّ من الكلام فَشَرَطُ الكلام الإِفَادَةَ» yaʼni «Jumla kalomga nisbatan umumiyroqdir, kalomning sharti foydali maʼlumot berishdir.»

Arab tilida gap kesimning ifodalanishiga koʻra ikki turli boʻladi. Ismiy va feʼliy. Arab nahvshunos olimlari ism bilan boshlangan gapni «Ismiy gap», feʼl bilan boshlangan gapni «Feʼliy gap» deb ataydilar. Gapning boshlanishini hisobga olishdan murod المسند va المسند إليه boʻlib ulardan oldin yuklamalar kelishining ahamiyati yoʻq.

Masalan:

الجملة الاسمية	-	أ قام زيد
الجملة الفعلية	-	قد قام زيد

#### TAYANCh IBORALAR:

1. Predikativlik. Predikat
2. Gap komponentlari
3. Gap
4. Ismiy gap
5. Feʼliy gap

#### SAVOLLAR:

1. Predikativ munosabat deb nimaga aytiladi?
2. Gap deb nimaga aytiladi?
3. Arab nahvshunoslarining gapga bergan taʼriflarini aytib bering.
4. Janday gaplar feʼliy gaplar deyiladi?
5. Ismiy gapning taʼrifini aytib bering.

#### ADABIYOTLAR

1. M.I Steplin-Kamenskiy. O predikativnosti. L., 1956. str. 133.
2. I.A. Sizova. «Chto takoe sintaksis» M., 1966 g. str.9.
3. A.M Muhin. Funktsionalnʼy analiz sintaksicheskikh elementov. M-L., 1964. str 251.
4. Mahmud az-Zamahshariy «al-Unmuzaj» J. 1901 g. str3.

### 12.2. SODDA GAP TURLARI. YOʻIJ VA YOYIJ GAPLAR

#### REJA:

1. Sodda gap haqida tushuncha.

2. Sodda yiqiq gap.
3. Sodda yoyiq gap.

Sodda gap deb gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklardan iborat bo'lgan gaplarga aytiladi. Sodda gaplar ikki hil bo'ladi.

1. Yiqiq
2. YOyiq

Yiqiq sodda gaplar ega va kesimdan tashkil topgan bo'ladi. Gapdagi so'zlar bir-biri bilan o'zaro boqlangan bo'lib bu so'zlarning har biri gap tarkibida biror grammatik vazifani bajaradi. Gap bo'laklari gapni tashkil qilish roliga qarab ikki hil bo'ladi. Bosh bo'laklar va ikkinchi darajali bo'laklar. Yiqiq sodda gapda bosh bo'laklar ishtirok etadi.

Masalan:

كريم طالب - *Karim studentdir.*

Sodda yoyiq gapda esa, gapning bosh bo'laklari o'ziga moslashgan aniqlovchilar olib kelishi mumkin. Moslashgan aniqlovchilarning soni bir nechta bo'ladi.

Masalan:

هذا الطالب مجتهد - *Bu student tirishqoqdir*

هذا الطالب مجتهد جدا - *Bu student juda tirishqoqdir.*

هذا الطالب الجديد مجتهد جدا - *Bu yangi student juda tirishqoqdir.*

Ularning joylashish tartibi umumiy koida asosida buladi. Ular mazmuniga ko'ra darak gap , so'roq gap va undov gap bo'lishi mumkin.

## TAYANCh IBORALAR

- 1 Sodda gap
- 2 YOyik sodda gap
- 3 Yiqik sodda gap
- 4 Gapning bosh bulaklari
- 5 Gapning ikkinchi darajali bulaklar

## SAVOLLAR:

- 1 Sodda yoyiq gap deb nimaga aytiladi?
- 2 Sodda yiqik gap deb nimaga aytiladi?
- 3 Bosh bo'laklarning aniqlovchilari deganda nimani tushunasiz?

## ADABIYOTLAR

1. Holidov B.Z. Uchebnik arabskogo yaz'ka, Toshkent, 1981. 185-bet.
2. Kovalev A.A., Sharbatov , Uchebnik arabskogo yaz'ka, Moskva, 1998. -bet.
3. Ibohimov N.I., Yusupov , Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1997, -bet
4. Sizova I.A. Chto takoe sintaksis? Moskva, 1966, str.13

### 12.3. GAPNING BOSH BO'LAKLARI: EGA VA KESIM

REJA:

1. Gapning bosh bo'laklari.
2. Ega va kesim munosabatlari.
3. Ikki markazli gap tushunchasi.

Gap bo'laklari gapni tashkil qilishdagi roliga qarab ikki hil bo'ladi: Bosh bo'laklar va ikkinchi darajali bo'laklar. Bosh bo'laklar gapning mazmun jihatidan ham, shakliy jihatidan ham o'zaro boqlangan ikki uyushtiruvchi markazi bo'lib, ular o'zaro predikativ aloqa orqali tutash bo'ladi. Bu predikativ yadro, konstruktiv markaz ikki markazli gapning asosidir. Ikki markazli gaplarda har bir markazning grammatik hokim so'zi birgalikda gapning bosh bo'laklarini tashkil qiladi. Gapning ikkinchi darajali bo'laklari- ikki markazning hokim elementlardan boshqa bo'laklardir. Ega va kesim markazi ikki markazli gapning strukturasi tashkil qiladi.

Gapning bosh bo'laklari gapni sintaktik va semantik tashkil qilishda asosiy rol o'ynaydi va gapning butun strukturasi belgilaydi. Demak ega va kesim gapning asosiy ikki markazi hisoblanadi, gapdagi qolgan bo'laklar bu ikki markazdan biriga boqlanadi. Bu ikki markazga boqlangan elementlar shu bo'lakka tobe bo'ladi. Demak ega va kesim o'ziga boqlangan so'zlar ustidan hokim bo'ladi. Bular hech qanday bo'lakka tobe emasdir. Bosh bo'lakning birinchi darajali sanalishi uning boshqa elementlarni tobe etishidan qat'iy nazar o'zicha mustaqillikka, bir butunlikka ega bo'lishi gapning asosini tashkil qilishidandir. qolgan bo'laklar esa to'liq gap hosil qilmay bosh bo'laklarga ergashib yuradi, shunga ko'ra ular ikkinchi darajali hisoblanadi.

Darajalarni faqat tobelikka qarab belgilasak, kesimni ham ikkinchi darajali saqash lozim bo'lardi, chunki kesim egaga tobedir, holbuki u birinchi darajali bo'lak hisoblanadi, chunki ega va kesim boshko bo'laklarsiz bir butunlikni tashkil qila oladimidi, ikkinchi darajali bo'laklarda esa bu hususiyat yo'q.

O'zbek va rus tillarida gapda ko'pincha avval ega, keyin kesim keladi. Ayrim hollarda esa bu tartib o'zgarishi mumkin. Arab tilida esa gapdagi so'zlarning tartibi mustahkam. Chunki ismiy gapda odatda birinchi o'rinda ega, keyin kesim keladi, fe'liy gapda esa ko'pincha kesim egadan oldin kuyiladi. Ismiy gapda bosh bo'laklarning tartibini kuyidagicha tushuntirish mumkin Avval ega keyin kesimning kelishi gapdagi bosh bo'laklarning odatdagi tartibidir.

Masalan:

الصلاة نور

Ega ism bilan , kesim sifat bilan ifodalangan bunday gap turi zamonaviy arab

tilida juda keng tarqalgan. Bunda bosh bo'laklar holatda turlicha bo'lish kerak, chunki u bu kabi gaplarni atributiv birikmalardan farq qiluvchi ko'rsatkichdir.

B.M. Grande bilan N.V. Yushmanov bunday gaplarda kesimni ta'kidlab ko'rsatmoqchi bo'lishsa teskari tartib qo'llanishi mumkinligini aytib o'tishgan.

قوي الأسد

Mubtado quyidagi hollarda habardan oldin turishi shart:

a) agar bosh bo'laklarning ikkalasi ham aniq bo'lsa:

آفة العليم - النسيان

Bu kabi gaplarning o'ziga hos jihati shundaki, unda kesim ega bilan moslashmaydi va hech qanday sifati bilan undan fark qilmaydi:

Ega ko'rsatish olmoshi yoki kishilik olmoshi bilan, kesim esa ism bilan ifodalangan gaplarda ham to'qri tartib qo'llaniladi:

هو عليي هذا كلام

Arab tilida keng uchramasa ham ega ism, kesim son tipidagi gaplar ham faqat to'qri tartibda keladi.

الرجال أربعة

Gapdagi bosh bo'laklarning teskari tartibi quyidagi hollarda bo'ladi:

a) kesim so'roq olmosh yoki ravish bo'lsa: من أنت

b) agar ega o'z tarkibida kesimga ta'luqli birikma olmoshiga ega bo'lsa:

أحن والداك

v) kesim ko'makchi yoki old ko'makchi boshqaruvidagi ism bilan ifodalangan bo'lsa va ega noaniq holatda bo'lsa: في الدار صاحبها

TAYANCh IBORALAR:

1. Ega
2. Kesim
3. Bosh bo'laklar.
4. Ikkinchi darajali bo'laklar.
5. Tobe so'z.
6. Ikki markazli gap

SAVOLLAR

1. Nima uchun ega va kesim bosh bo'lak deb hisoblanadi?
2. Hokim so'z nima?
3. Kanday gaplar ikki markazli gaplar deyiladi?
4. Kachon kesim egadan oldin keladi?

ADABIYOTLAR

1. A.M. Muhin «Funksionaln'y analiz sintaksicheskikh elementov» M.L.; 1964 . , str.260
2. I.R. Avanesov « Vtorospenn'e chlen' predlojeniya kak grammaticheskie kategorii» M.; 1962. ;str. 60-61
3. V.V. Vinogradov. « Osnovn'e vopros' sintaksisa predlojeniya» M.; 1955, str 179.

### 13. OT KESIMLI GAP

#### REJA

1. Ismiy jumla
2. Ot kesimli gap

Ba'zan gapning kesimi predlog bilan kelgan otdan iborat bo'ladi. Bunda tabiiyki, ega bilan kesim jinsda va sonda o'zaro moslashmaydi. Kesim noaniq holatda keladi degan qoidaga ham asos qilinmaydi. Bunday kesim eganing mavjudlik o'rnini yoki paytini bildirish uchun hizmat qiladi.

Masalan:

الطَّالِبُ فِي الكُلِّيَّةِ - *Student fakultetdadir.*

الفَلَّاحَةُ فِي الحَقْلِ - *Dehqon ayol daladadir.*

الامتحانات في الاسبوع الماضي - *Imtihonlar kelasi haftadadir.*

Ba'zan gapning egasi kesimdan keyin keladi va u noaniq holatda bo'ladi. Bunday gapdagi kesim o'zbekchada hol shaklida tarjima qilinib, o'zbekcha gapdagi kesim «bor», «yo'q» so'zlari bilan ifodalanadi.

Masalan:

على الطاولة كتابٌ - *Stol ustida kitob bor.*

في المدينة حديقةٌ - *Shaharda park bor.*

Ot kesim ل predlogi bilan kelgan bo'lsa, ko'pincha bunday gapda egalik ma'nosi ifodalangan bo'ladi. Ega bilan kesimning o'rni almasha, albatta, yuqorida aytilgan ma'no hususiyatlari ularda o'z aksini topadi.

Masalan:

القلم للطلاب - *Jalam studentnikidir.*

للطالب قلمٌ - *Studentda qalam bor.*

## SAVOLLAR

1. Gapning kesimi predlog bilan kelganda qanday o'zgarish yuz beradi?
2. Gapning egasi kesim bilan kelganda qanday o'zgarish yuz beradi?

## TAYANCh IBORALAR

1. Ega
2. Kesim
3. Ot
4. Ot kesimli gap

## ADABIYOTLAR

1. Ibrohimov. N.I. «Arab tili grammatikasi» T. 1997.
2. Kovolev. Sharbatov «Uchebnik arabskogo yaz'ka» M., 1998.
3. Holidov B.Z. «Uchebnik arabskogo yaz'ka» T., 1991.
4. Talabov E.T. «Arab tili darsligi» T. 1995.

#### 14. FE'L KESIMLI GAP

##### REJA

1. Eganing fe'l kesimdan olidn turishi.
2. Eganing fe'l kesimdan keyin turishi.

Fe'liy jumlada ega uyushib, turli jinsda kelsa, jumlaning boshidagi fe'l kesim o'zidan keyin turgan eganing jinsi bilangina moslashadi.

Masalan:

ذهب الرجل والمرأة - *Kishi va ayol ketdi.*

ذهبت المرأة والرجل - *Ayol va kishi ketdi.*

Agar fe'l kesim turli jinsdagi uyushib kelgan egalardan keyin kelsa, egalarning turgan o'rnidan qat'iy nazar, muzakkar jinsda va ikkilikda bo'ladi.

Masalan:

الرجل والمرأة ذهبا إلى المكتبة - *Kishi va ayol kutubxonaga ketdi.*

Agar fe'l kesim uyushib kelgan bo'lsa, unda bitta kesim egadan oldin kelib u bilan jinsda moslashadi, qolganlari esa undan keyin kelib, u bilan jinsda va sonda moslashadi.

Agar fe'l kesimdan keyin ko'plikdagi qayri oqil ism ega bo'lib kelsa, kesim har doim birlikda va muannas jins shaklida bo'ladi.

Masalan:

وَقَفَّتْ السَّيَّارَاتُ أَمَامَ الْفَنْدِقِ - *Mashinalar mehmonhona oldida to'htadi.*

الْكَلَابُ نَبَحَتْ فِي اللَّيْلِ - *Itlar kechasi huridi.*

### SAVOLLAR

1. Ega kesimdan oldin tursa u bilan qanday moslashadi?
2. Ega kesimdan keyin tursa u bilan qanday moslashadi?
3. Agar ega ikkita va har hil jinsda bo'lsa, moslashuv qanday bo'ladi?
4. Ega ko'plik, qayri oqil bo'lsa, fe'l kesim bilan qanday moslashadi?

### TAYANCh IBORALAR

1. Fe'l-kesim
2. Ega
3. Turli jinsdagi ega
4. o'ayri oqil ega
5. Oldin turgan fe'l kesim
6. Keyin turgan fe'l kesim

### ADABIYOTLAR

1. Ibrohimov. N.I. «Arab tili grammatikasi» T. 1997.
2. Kovolev. Sharbatov «Uchebnik arabskogo yaz'ka» M., 1998.
3. Holidov B.Z. «Uchebnik arabskogo yaz'ka» T., 1991.
4. Talabov E.T. «Arab tili darsligi» T. 1995.

### **17.1.-17.3. GRAMMATIK BIRIKISH USULLARI BITISHUV. MOSLASHUV. BOShJARUV.**

REJA:

1. Arab tilida fe'llarning o'z to'ldiruvchilarini boshqarishi.
2. Vositali va vasitasiz boshqaruv va ularga misollar.
3. Jumlada ham vositali, ham vositasiz boshqaruvning kelishi.
4. Moslashuv va uni misollar orqali tushuntirish
5. Ikkilik va ko'plikda moslashuv, ularni misollar orqali tushuntirish.

Fe'llar arab tilida o'z to'ldiruvchilarini ikki turli boshqarish mumkin: Vositasiz, vositali.

Vositasiz boshqaruv deb fe'llarning o'z to'ldiruvchilarini bevosita tushum kelishigida boshqaruviga aytiladi:

Masalan:

تقرأ التلميذتان مجلة - *Ikki o'quvchi qiz jurnal o'qiyapti*

أخذت هذا القلم من الدكان - *Bu qalamni men do'kondan oldim.*

Boshqaruv ب ko'makchisi yordamida ro'y bersa, u vositali bo'ladi:

كتب المعلم بالقلم - *O'qituvchi qalam bilan yozdi.*

يحصل العمال على الراتب - *Ishchilar maoshini oladilar.*

Ayrim fe'llar o'z to'ldiruvchilarini bir vaqtning o'zida ham vositasiz, ham vositali boshqaruv hususiyatiga ega bo'ladi.

شربت الشاي بالسكر - *Choyni qand bilan ichdim.*

غسلت وجهي بالصابون - *Yuzimni sovun bilan yuvdim.*

Moslashuv.

Birlikdagi moslashuvni quyidagi misoldan tahlil qilsa bo'ladi.

Atributivlik munosabatida ko'plik hamda ikkilikdagi aniqlanmishlarning aniqlovchilari bilan aloqasida quyidagilarga amal qilinadi:

Aniqlanmish ikkilikda bo'lsa nimani anglatishidan qat'y nazar moslashuv to'liq bo'ladi:

مهندسان مجتهدان - *O'arakatchan ikkita injiner*

مهندستان مجتهدتان - *O'arakatchan ikkita injener ayol.*

Agar ko'plikdagi aniqlanmish insonlarni ifodalasa, moslashuv to'liq bo'ladi:

عمال نشطاء - *Faol ishchilar*

عاملات نشطات - *Faol ishchi ayollar*

Ko'plikdagi aniqlanmish insonlarni ifodalasa, muannas jinsdagi jamlovchi ot kabi talqin qilinadi. Boshqacha aytganda, mazkur turdagi aniqlanmishlar bilan aniqlovchi birlik va muannasda moslashadi.

Masalan:

بيوتٌ كبيرةٌ - *Katta uylar.*

مجلاتٌ ممتعةٌ - *Jiziqarli oynomalar.*

Insonni ifoda etmagan aniqlanmishlar bilan ba'zan aniqlovchilarning to'liq moslashgan holatlarini ham ko'rish mumkin.

اعلامٌ حضرٌ - *YAshil bayroqlar.*

سياراتٌ سريعةٌ - *Tez mashinalar.*

Biroq bunday moslashuv juda kam qo'llaniladi. Grammatik birlik ifoda quvvatini oshirish zarur bo'lganda yoki birlik mantiqiy urqu olganda unga murojaat qilinadi.

### SAVOLLAR

1. Vositali va vositasiz boshqaruv qachon ishlatiladi?
2. Vositali va vositasiz boshqaruvga misollar keltiring?
3. Moslashuv haqida gapirib bering.
4. Misollar keltiring.

### TAYANCh IBORALAR

1. Vositali va vositasiz iboralar.
2. Birlik, ikkilik, ko'plik, moslashuv.

### ADABIYOTLAR

1. Ibrohimov. N.I. «Arab tili grammatikasi» T. 1997.
2. Kovolev. Sharbatov «Uchebnik arabskogo yaz'ka» M., 1998.
3. Holidov B.Z. «Uchebnik arabskogo yaz'ka» T., 1991.
4. Talabov E.T. «Arab tili darsligi» T. 1995.

### 17.4. IZOFA

#### REJA

1. Izofa birikmasi haqida ma'lumot.
2. Izofa turlari haqida ma'lumot.
3. O'ar bir tur haqida alohida ma'lumot.
4. Izofa zanjiri haqida ma'lumot.

Yuqorida o'tgan qoidalar aniqlovchi bo'lib keladigan ko'rsatish olmoshlariga ham tegishlidir. Kesim agar ismiy bo'lsa ham unga, ham tegishli bo'ladi. Faqat bunda kesim umumiy qoidaga binoan noaniq holatda bo'ladi.

هؤلاء الرجال عقلاء - *Bu kishilar aqlidirlar.*

هؤلاء النساء عاقلات - *Bu ayollar aqlidirlar.*

هذه البيوت جديدة - *Bu uylar yangidir.*

هذه المقالات مفيدة - *Bu maqolalar foydalidir.*

Arab tilida moslashgan aniqlovchi birikmasidan tashqari moslashmagan aniqlovchi ham bor. Bunda ikki ism bir-birini aniqlab keladi. Ammo ular bir-biri bilan moslashmaydi. Uning birinchi ismi ikkinchi ismini kasrali bo'lishini talab qiladi. Bunday birikmani *izofa birikmasi* deyiladi, u ikki qismdan tashkil topadi. Buning birinchisi *muzof*, ikkinchisi *muzof ilayhi* deyiladi. Izofa birikmasi ikki hil bo'ladi.

1) Ma'naviy izofa,

2) Lafziy izofa.

Ma'naviy izofa lafziy izofadan 5 ta narsa bilan farq qiladi:

1. Ma'naviy izofada *muzof* doimo ism bo'lib keladi.

